

LATIF MAHMUDOV

SEVGI DESAM...

(Hikoyalar, esselar)



«O'QITUVCHI» NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2005

84(55)6-44

Mazkur to'plamdan yozuvchining turli yillarda chop etilgan kitoblaridan («Qadrdon ko'zlar», «Vafo», «Chinor») saralab olingan hikoyalari, shuningdek, yangi asarlari joy olgan. Ularni mushtarak qilgan narsa — el-yurtga sadoqat, mehr va muruvvat, pokiza muhabbat tuyg'ularidir...

To'plam umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

W 31191
2.91

M 4700000000 - 31 Buyurtma varag'i — 2005
353(04) — 2005


ISBN 5-645-04180-1

© «O'qituvchi» NMIU, 2005

Sevqi desam...

Bugun sening tug'ilgan kuning. Uying gulga, ko'ngling kuyga to'ladi. Do'stlaring, tanish-bilishlaring kelar. Hammasida guldasta, xursand, shod. Qutlashadi seni. Ular orasida faqat men yo'qman. Kim biladi, yo'qligim, balki bilinmas. Sezmassan ham. Mayli. Yuzingdan kulgu, qalbingdan qo'shiq arimasin, tilagim shu. Shu topda sendan uzoq, juda olisda yolg'iz o'zim, chiroq ham yoqmay, oynadan mo'ralab turgan oy yorug'ida rasmingga termilib o'tiribman. Ingichka tutash qoshlaring ostidagi sho'x ko'zlaring yo'llaringga intizor boqishini, kulimsiragan mana shu lablaringning «ha... sevaman» deb pichirlashini qanchalar orziqib kutgan edim! Orzu-umidlar bilan o'tgan xushnud kunlar... Sadaqayrag'och og'ushiga yashiringan yotoqxonona balkoni, ilk uchrashuv daqiqalari, sho'x, sofdil Ikrom... O'ylagan sarim qalbim nozik hislar bulog'iga aylanadi. Qo'msab, beixtiyor shirin xo'rsinaman.

Ikrom ismli kursdoshim bilan qizlar yotoqxonasi qarshisida bir kampirning uyida turardik. Seni birinchi bor qachon, qayerda ko'rganimni eslay olmayman. Faqat har kuni darsdan kelib, derazaning oldida soatlab kutib o'tirishlarim yodimda. Quyosh novcha teraklar ortiga yashiringanda balkonga chiqib kitob o'qirding. Nima ham bo'lib, bir kuni ko'zing tushib qoldi menga. Avvaliga uncha e'tibor bermading, keyin, anchadan keyin sekin o'girilib, yer tagidan qarading-u, qoshlaringni chimirib kirib ketding. Yuragim juda-juda shirin orziqib ketdi. Ketingdan ikki-uch qiz oynadan bosh chiqarib qaradi, kuldi. Shu kundan boshlab sen shunchaki qizlarga xos qiziqish bilan, men esa orziqib bir-birimizni kuzatadigan bo'ldik. Ahvolimga Ikrom dam kular, dam achinardi. Ba'zan kitobdan bosh ko'tarib, «O'zingni qo'lga ol, imtihon yaqin-a» deb ogohlantirib qo'yardi. Biroq uning gaplari qulog'imga kirmasdi. Bir kuni tutaqib ketdi u. «Menga qara, yurak-



bag'ringdan urgan bo'lsa, devona bo'lib yuravermay tanish-qo'y, taptimg bosiladi». Rost... Shu kungacha uzoqdan ko'rishimning o'zi kifoya edi. Tanishish orzusi endi ezgu bir niyatga aylangandi. Qani endi, o'ylardim tunlari uyqum qochib, balkondan yiqilsang, men tutib qolsam yo ko'lda cho'mila turib cho'ksang, kiyim-piyimim bilan o'zimni suvga otib qutqarsam! Bu xayollar ham bir nav. Darsda ham ko'zim domlada, biroq uni ko'rmayman, nima deyayotgani qulog'imga kirmaydi. Xayolim parishon. Hozir shu topda qayerdasan? Fikrimni to'plamoqchi bo'lib, yozishga tutinaman, qo'lim o'z-o'zidan ismingning bosh harfini yozib qo'yganini sezmay qolaman. To'lqinlanib tikilaman unga. Nazarimda, harflarning eng go'zali, jozibalisi shu.

Ikrom bilan bir kun universitet hovlisida fakultetlararo o'tkazilayotgan futbol musobaqasini tomosha qilgani chiqdik. Maydonchaga yaqinlashganimizda Ikrom sekin qulog'imga pichirladi:

— Yoningga qara, devona.

Shoshib qoldim. Qaradim-u, yuragim urib ketdi. Favvora oldidagi skameykada kitob o'qib o'tirgan ekansan!

— Oldiga bor, — dedi Ikrom turtib, — yolg'iz o'tiribdi.

— Nima deyman?

— Qiziq ekansan-ku. «Soatingiz necha bo'ldi, nima kitob o'qiyapsiz», deb so'ra. U yog'i o'zi chippayopishadi. Ha, nega suratga tushayotgan odamday qaqqayib qolding, bor!

Arang bordim. Sezmading. Sekin tomoq qirdim. Yalt etib qarading-u, bilinar-bilinmas jilmayding. Tilim uchida turgan gapim ichimga tushib ketdi.

— Kechirasiz... Haligi, soat necha bo'ldi?

— Qo'lingizda turibdi-ku, qarab ola qoling.

Soatimni cho'ntakka solib qo'yish esimga kelmabdi, lavlagim chiqib ketdi. Ikrom uzoqdan qo'li bilan skameykani ko'rsatdi. Tushundim. Yoningga o'tirdim.

— Hm... Yaxshi kitobmi deyman. Hatto futbolni tomosha qilmay o'qiyapsiz.

— Futbolni jinim suymaydi.

— Shundoq o'yinni-ya. Men o'lguday yaxshi ko'raman.

— Nega o'tiribsiz, boring, tomoshadan qolasiz.

— Zumrad...

Qoshlaringni chiroyli chimirding.

— Otimni qayerdan bilasiz?

— Bir kuni dugonangiz orqangizdan chaqirganda eshitib qoluvdim, — dedim yerga qarab. Quloqlarimgacha qizarib ketganigami yo beixtiyor xo'rsinib yuborganimgami, «Nima bo'ldi sizga, Botirjon», deding sekin.

— Siz... siz mening ismimni qayerdan bilasiz?

— Men ham... o'rtog'ingiz orqangizdan chaqirganda eshitib qoluvdim.

Qo'llaring bilan yuzingni to'sib olding. Hayajondanmi yo behad quvongandanmi, o'rnimdan turib, qayta o'tirdim. Har ikkimiz nozik hislar bilan to'lqinlangan holda juda uzoq jim qoldik. O'yin tugab, hamma tarqaldi. Quyosh sada-qayrag'ochlar uchidan oltin sochlarini asta yig'di. Yengil shabada sochlaringni yuz-ko'zlaringga tushirib o'ynar, uzoqda yotoqxonada derazasidan eshitalayotgan gitara tovushini ahyon-ahyon quloqqa chalib o'tardi. Bir-birimizga aytadigan gapimiz shu qadar ko'p-u, qiziq, so'zsiz jim o'tiribmiz. Zotan, bunday paytda til emas, dil gaplashadi, shunday emasmi, azizim. Ikkimiz ham cheksiz baxtiyor edik...

Shu-shu tez-tez uchrashib turadigan bo'ldik. Bir kuni kinodan qaytayotib, yarim yo'lgacha allaqanday xayol bilan kelding. Yotoqxonaga yaqin qolganda to'satdan to'xtab, menga qarading.

— Botirjon, xayol surishni yaxshi ko'rasizmi?

— Ha...

— Men ham. Yuring, ozgina o'tiraylik.

Anhor yoqasidagi skameykaga borib o'tirdik.

— Bilasizmi, sizga havasim keladi.

— Nega?

— Erta-indin o'qishingiz tugaydi. Qishloqqa borib ishlaysiz.

Qanday baxtlisiz! To'g'risi, shahardan chiqqan emasman. Qishloq desa, oydinga mudragan dalalar, qamish tomlik pastak uylar, olislarda miltillagan chiroqlar ko'z oldimga keladi. Yana...

Ko'kdagi to'lin oy chil-chil bo'lib sinayotgan suvga tikilib, jim bo'lib qolding. Ko'zlaringdan, lablaringdan bir narsa demoqchi bo'lib turibsan-u, biroq nimadir xalaqit beryapti.

— Xo'sh, yana?

— Yanami? O'lisda miltillayotgan chiroqqa qarab oydingda dala o'rtaqidagi so'qmoqdan ot choptirib ketyapsiz. U yerda kimdir zoriqib, ko'zlari to'rt bo'lib kutadi sizni. Uning dardiga malham bo'lasiz, davolaysiz. Qanday yaxshi! Shifokorlikning gashti ham, azob-uqubatlari ham o'sha yerda yana ham bilinsa kerak, a? Hozir siz bilan men o'sha yerlarda ko'proq kerakmiz, shunday emasmi!?

— Ha, — dedim beixtiyor xo'rsinib. Sen ajablanib qarading menga. — Sendan o'lisda yashash... Bilsang edi, qanchalik og'ir...Yo'q, tatimaydi, baribir zerikaman.

— Yo'q, yo'q, — sen hayajon bilan qo'llarimni ushla-ding, — kishining oldida katta, yorqin maqsadi bo'lsa, zerikmaydi, menga shunday tuyuladi.

— Maqsadim o'qish va sen eding...

— Menimcha, faqat shugina emas. Haqiqiy yorqin maqsad o'zidan kattaroq, yorqinroq ikkinchi bir maqsadni yaratadi. Ikkinchisi uchinchisini.

— Hozir, bilsang, shaharda qolishdan bo'lak...

— Unday demang, axir uch yil ko'z ochib-yumguncha o'tib ketadi-ku! Men ham hademay yoningizga boraman... Juda-juda orziqib kuting, xo'pmi?

— Zumrad...

Xayrlashdik. Tongotar ko'z yummadim o'sha kuni. Shu yaqin orada gavjum, sershovqin, zavq-shavq bilan gurullagan shaharni tashlab ketishimni o'ylagan sarim, yuragimning allaqayeri tilinganday, beixtiyor ko'zimga yosh kelardi. Nahot endi ko'nglimni iliq hislar bilan to'liqlantiruvchi ovozingni... eshitmasam. Kunim xatga qolsa. Ba'zan aql bilan yurak to'q-nashadi, ba'zan emas, ko'pincha. Shunday kezlari kishini yurak boshqarsa, olmosdek fikr ham o'tmaslashar ekan.

Qachonlardir, aniq yodimda yo'q, uchinchimi yo to'rtinchimi kursdaligimda universitet professorlaridan birining Dilbar ismli qizi meni yoqtirib qolganligini allakimdan

eshitgan edim. Bordi-yu, kim bilib o'tiribdi, o'shandan iltimos qilsam, otasiga aytsa, meni biron kafedrada qoldirish professor uchun hech gap emas-ku! Ertalab turib qo'ng'iroq qildim. Telefonni Dilbar oldi. O'zimni tanitdim. Telefon qilishimni hech kutmagan ekanmi, shoshib sababini so'radi. Sizda picha gapim bor, dedim. Hordiq chiqargani uch-to'rt kishi bo'lib shahardan tashqariga chiqib ketishayotgan ekan. Taklif qildi. Noiloj ko'ndim. Tayinlangan yerga kelganimda bir to'da yigit-qiz bilan Dilbar kutib turardi. Jo'nadik. Ufq'larga tutashgan yashil dalalar, toshdan toshga sapchib oqqan sho'x daryo ham sensiz ko'nglimni ochmadi. Qaytishda Dilbarga iltimosimni aytdim. U kiprigini og'ir-og'ir qoqib, menga qarab qoldi. Keyin «Botirjon, — dedi afsuslanganday, — men sizdan buni kutmagan edim...»

Muzlab ketdim. Uchib borayotgan mashinadan o'zimni tashlab qochishga tayyor edim!

Mashina to'ppa-to'g'ri universitet oldida to'xtadi. Ham-mamiz oftobda qoraygan, yuz-ko'zlarimiz chang, mashinadan tushdik. To'g'rida, universitetdan chiqib kelayotganingni ko'rib qotib qoldim. Sen ham uch-to'rt qadam berida biroz oqargan holda dam menga, dam yonimdagi qizga hushsiz tikilding.

— Mana, terib bergan gullaringiz, o'zingizga siylov, — Dilbar gullarni qo'limga tutib, yugurib ketdi.

Keyin... keyin nima bo'lgani aniq yodimda yo'q. Tutilib-tutilib bor gapni senga aytib berdim, shekilli, hatto Dilbarga qilgan iltimosimni ham. Faqat sening «Eh, nega shunday qildingiz... men sizni bunchalik deb o'ylamasdim. Men bo'lsam ertalabdan beri kutaman, ko'z tutaman... Bugun, bugun mening tug'ilgan kunim edi», deganing hozir ham qulog'im ostida eshitilib turibdi. Yigitlik izzat-nafsi yo'l qo'ysa, oyo-g'ingga yiqilishdan toymas edim. Sovuq boqishingga tob bero'lmay boshimni egib turardim. Qo'limdagi so'linqirab qolgan gul yerga tushib sochilib ketdi. Yalinib-yolborishlarim, kechirim so'rashlarim foyda bermadi. Sevgim haqida to'lib-toshayotgan gaplarim ham ta'sir qilmadi.

— Bilasizmi..., — juda sekin gapirdingmi yo ovozing uzoq-uzoqdan eshitildimi, anglay olmadim, — ko'ngil... ko'ngil

juda nozik narsa. Oyim uni chinni piyolaga o'xshatardilar. Chinni piyolani chertsang, qanday tiniq jaranglaydi, darz ketsa, ming chegalat, aslidek ovoz chiqarmaydi. Ko'ngil ham xuddi shunday. Bir singach...

— Zumrad...

— Qo'ying, hali o'zingizni yaxshilab sinang. Balki... Bu haqda o'shanda gaplasharmiz, — deding ko'zlaringga yosh olib. Yugurib ketding. Ketingdan chopmoqchi bo'ldim. Biroq befoyda edi.

Bir haftadan so'ng universitet yo'llanmasi bilan olis qishloqqa jo'nab ketdim. Kuzatgani chiqmassan deb o'ylovdim. Yo'q, kechikib bo'lsa ham, harqalay chiqding. Poyezd allaqachon jilib, tezligini oshirgan, perrondagilar siyraklashib qolgandi. Uzoqda sen ko'rinding. Oynadan boshimni chiqarib chaqirdim. Yalt etib qarading. Chopmoqchi bo'lding. Biroq holsizgina qo'l silkitib qolding. Kelgan kunimoq xat yozdim senga. Ikki kun o'tar-o'tmas javob oldim. Quvonchimga olam tor keldi o'sha kuni! «Kuting!» debsan. Kutaman, juda orziqib kutaman. Faqat tezroq... kel. Bugun esa sen tug'ilgan kun, azizim. G'oyibona qo'lingni siqaman. Boya «Tanish-bilishlaring yig'ilib o'yin-kulgi qilganda, balki yo'qligim bilinmas ham» deb xayol qilibman. Kechir! Sevasan meni! Ishonaman bunga! Mana, hozir, yolg'iz o'zim, oynadan tushgan oy yorug'ida ko'nglim iliq hislar bilan chayqalib, hamon rasmingga qarayman va beixtiyor shoirning misralari yodimga tushadi:

*Sevgi desam, faqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbim.
Sen desam-u, butun dunyoning
Sho'rishiga quloq solsam jim...*

Yo'lda

Shofer yo'l yoqasida qo'l ko'tarib turgan qizni ko'zi qiyib o'tib ketolmadi. Noiloj mashinani to'xtatdi.

— Qo'shbuloqqami? Ola keting!

Yigit loqaydgina yonidan joy ko'rsatdi. Halima chamadonini kuzovga irg'itib, kabinaga chiqdi.

Mashina jildi.

— Shahardanmi?

— Ha, TashMIdan. Qo'shbuloqqa. Praktikaga. Institutda ertaga mashina bo'ladi deyishgandi, kutmay yo'lga chiqaverdim.

Shofer «yaxshi qilibsiz» deganday iljayib, allaqanday kuyni xirgoyi qila boshladi. Halima odatda so'raladigan gaplardan birvarakay qutulganiga xursand edi. Tuyaning o'rkachidek bir-biriga mingashgan past-balandliklarga, etagi qorayib borayotgan taqir cho'lga qarab zerikdi. Ko'zlarini yumdi, xayolga toldi.

Oradan chorak soat o'tar-o'tmas mashina chapga burildi-yu, taqqa to'xtadi. Halima qalqib ketib, peshanasini oynaga urib oldi.

— Yomon tegdimi? — yigit shoshib peshanasini ushlab ko'rmoqchi edi, Halima siltab tashladi.

— Ko'zga qarab to'xtating-da.

Shofer jahl bilan eshikni ochib, pastga tushdi. Halima to'satdan to'xtash sababini endi angladi. Ulardan ikki-uch metr narida bosib paxta ortilgan mashina turardi. Kabinasida hech kim yo'q. Bo'ynini cho'zib qaragan edi, mashina ostidan egnini qoqib chiqib kelayotgan qizga ko'zi tushdi. U ingichka qoshlarini chimirib, Halimaga yer ostidan bir qarab olgach, yigitga yaqinlashdi.

— O'tkir, reyssori sinibdi.

— Reyssori?!

Yigit mashina orqasiga o'tib, tezda qaytib keldi.

— Esing joyidami, Nodira. Shu yerdan yurasanmi?

— Yaqinroq deb... Axir, reja to'lishiga shu mashinadagi kifoya edi-da.

O'tkir bir nima demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, begona odamning oldida botinmadi shekilli, qo'l siltab mashinaga chiqdi.

— Ayt, tezroq mashina yuborishsin! — qiz kaftini og'ziga karnay qilib qichqirib qoldi.

— Bechora. — Halima qizga achindi, yo'l-yo'lakay kabinadan boshini chiqarib, ikki-uch orqasiga qarab qo'ydi. — Cho'lda tuni bilan qolib ketadimi?

O'tkir indamadi. Halima yigitning toshbag'irligidan tutaqib ketdi.

— Menga qarang, bo'lgani shumi?

— Nimani?

— Mashinangizni-da.

— Nima qilibdi?

— Muncha toshbaqaga o'xshab imillaydi. Tezroq haydang.

— Agar mashinamdan ertaroq borishga ko'zingiz yetsa, tushib, piyoda bora qoling.

— Kechirasiz, hamma bilan ham shunaqa muomala qilasizmi?

Shofer zo'rma-zo'raki iljaydi.

— Yo'g'-e. Mashinada o'tirib, mashinamni yomonlaganlar bilan.

Halima yuzini ters o'girib oldi.

Shofer rulni qo'yib yuborib, yo'ldan ko'z uzmay papirosini yondirdi, keyin boshini kabinadan chiqarib, qir etagidan sudralib kelayotgan bulutga xavotirlanib qarab qo'ydi.

— Hademay quyadi.

— Sizga nima... Yolg'iz qolgan qiz bechoraga jabr.

— O'zidan ko'rsin, to'g'ri yo'l qolib...

— Bechora jo'rttaga qilmagandir! Nima balo, ko'nglingiz toshmi?

O'tkir Halimaga bir o'girilib oldi. Uzoqda miltirayotgan chiroqlarga qarab xo'rsindi. Yuragida nima kechayotganini bu qiz qayoqdan bilsin. «Nima balo, ko'nglingiz toshmi?» Yo'q... tosh emas.

Faqat... Uning xayolidan «Barvaqt qayt, bolam, kelishingga osh damlab, poylab o'tiraman», deb qolgan onasining javdiragan ko'zlari ketmasdi...

Allanarsaning oynaga tegib chirsillashidan O'tkirning xayoli bo'lindi. Halima kaftini tutgan edi, ikki-uch yirik tomchi tushdi. U ro'molcha bilan kaftini artib, yigitga ko'z qirini tashladi. O'tkir o'ng'aysizlandi. Ro'parasidagi ko'zguda ta'na bilan tikilib kelayotgan ko'zlarga ko'zi tushdi. Yuzini chetga burdi. Shu topda qulog'ining ostida Nodiraning ingichka, bo'g'iq tovushi jonlangandek bo'ldi. «Tezroq mashina yuborishsin!» Bu

tovushdan yuragining allaqayeriga sanchiq turdi. Yolg'iz qolgan qizning ahvolini o'ylab, bo'shshib ketdi. Kechiring, oyi, deya ko'nglidan o'tkazdi-da, g'ayritabiiy bir kuch bilan mashinani orqaga bura boshladi.

— Sizga nima bo'ldi? Qayoqqa?

U indamadi.

Motor ovozi eshitib, Nodira yugurib qarshi chiqdi.

— O'tkir?!

Yigit mashinani yonma-yon turg'azdi. Pastga tushdi. Qizning sovqotgan barmoqlarini kaftlarining orasiga oldi.

— Arqonni bo'shat. Menikiga ortamiz!

Nodira iliq bir mehr bilan O'tkiringa qarab qo'ydi. Boyatdan beri hech narsaga tushunolmay o'tirgan Halima yengil tortib, kabinadan chiqdi.

Qanorlarni O'tkirning mashinasiga ortib bo'lishgan ham edi, shivalab turgan yomg'ir zo'raydi. Halima bilan Nodira yugurib reyssori siniq mashinaga chiqib olishdi.

Mashina lapanglab tepaliklar orqasiga yashirindi. Nodira iyagini rulga qo'yib, xayol aralash O'tkirning ketidan shiringina jilmayib qo'ydi.

Muhabbat

Ekskavatorning kovshi mashina ustiga kelganda to'xtab qoldi. Telpagini qoshlarigacha bostirib olgan shofer kabinadan boshini chiqardi, keyin eshikni ochib pastga tushdi, ekskavatorga yaqinlashdi... Hech kim yo'q. Ajablanib, u yoq-bu yoqqa alangladi. Birdan yonidagi tepalik orqasida havorang shlapalik yigit bilan gaplashib turgan Muhabbatga ko'zi tushdi-yu, ketishini ham, ketmasligini ham bilmay turib qoldi. Yigitni tanidi: Muhabbatning bo'lajak turmush o'rtog'i Po'lat.

— Ketayotganing rostmi? — tepalik orqasidan Po'latning ovozi eshitildi.

— Ha.

— Tavba. Boshqa odam qurib qolgan ekanmi?

— Po'latjon, nega tushunmaysiz, axir! Qurilishimizning o'zidan o'n besh kishi ketyapti. Cho'llik ekskavatorchilardan ko'p narsa o'rganish mumkin. Undan keyin...

- Uni-buni qo'y, qanchaga ketyapsan?
- Bir yarim oyga.
- Muhabbat!.. Bilasan-ku...
- Tez-tez xat yozib turaman.
- Ertaga uy egasi ijara haqini so'rasa, qo'liga xatlaringni tutqazamanmi?.. Bo'ldi... O'sha Tojiboyingni...

Yigit o'z nomini eshitib, cho'chib tushdi. Biron ko'ngilsiz harakat qilib qo'yishdan qo'rqqandek, kabinaga kirib pedalni bosdi, kovshdagi tuproqni kuzovga to'kib, motorni o'chirdi. Pastga tushishi bilan Muhabbat kelib qoldi.

— Kechirasiz, Tojiboy aka.

Tojiboy nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftlagan edi-yu, Muhabbatning yoshli ko'zlarini ko'rib indamadi. Mashinasiga o'tirib jo'nab ketdi. Muhabbat g'ildirakka holsiz suyanganicha qoldi.

Shu topda ko'ksini to'ldirib kelgan yig'iga erk bergisi, uzoq kechalar uyqusini qochirgan o'ylarini kimgadir to'lib-toshib aytgisi, ko'nglini bo'shatgisi keldi. Nahot, yuragini yozgudek kishisi bo'lmasa? O'zini u hech qachon hozirgidek notavon, yolg'iz his qilmagan edi. Po'lat-chi! U bo'lajak turmush o'rtog'i! Dunyoda sevganingdan ham yaqinroq kishi bo'ladimi, axir! Ammo u bularning hammasiga tushunarmidi? Yo'q, tushunmaydi. Eshitib qolsa kulishi mumkin. U begona. Ha, u tamoman begona. Muhabbat buni shu bugun, hozir sezdi. Nega uzoqdan ko'zi tushishi bilan ishini tashlab, oldiga yugurib bordi. Yana yalinganimi?! Axir shunday qilmaslikka ertalabdan beri o'ziga o'zi so'z bermaganmidi! Po'lat... So'nggi oy ichida shunday o'zgaribdi, tabiati bahor havosiga o'xshab qolibdi. Qani endi Tojiboydagi soddalik, mehribonlik, oliyanoblik unda bo'lsa!

To'g'ri, uning ham o'ziga xos tomonlari bor. Kelishgan, chiroyli, bir-biriga tutash qoshlari ostidan kulib turuvchi ko'zlari, jarangli kulgisi, ovozi Muhabbatning qalbini allaqanday shirin bir tuyg'u bilan to'lqinlantirib turardi. Yotoqxonada ham, ishda ham bo'sh qoldi, darrov Po'latni o'ylab ketadi, fikri-zikri u bilan band bo'ladi. Bir kuni shivalab yomg'ir yog'ardi. Ishdan keyin Tojiboy Muhabbatni mashinada

olib borib qo'ymoqchi bo'ldi. Yo'lda xayol aralash u Tojiboyga qarab: «Po'lat aka», deb yuborgani esida. Shunda Tojiboy yalt etib qaradi-yu, sekin yuzini burdi. Yotoqxonagacha churq etmadi. Bugun ham Tojiboy allanechuk bo'lib jo'nab ketdi. Yaxshi yigit. Yuragida kiri yo'q. U Muhabbatni sevadi. Buni Muhabbat uch yil avval sezgan. O'shanda shaharga kelishganiga endi bir hafta bo'lgandi. Po'lat konservatoriyaga, Muhabbat institutga kirish imtihonini topshirib bo'lgan kezzar edi.

Kechqurun yotoqxonaga Po'lat keldi. U negadir ma'yus ko'rinardi. Muhabbatning kinoga borish to'g'risidagi taklifiga istar-istamas rozi bo'ldi-yu, ammo kinodan chiqib, yana boshqacha bo'lib qoldi.

— Sizga nima bo'ldi, Po'lat?

— Bilmadim, — dedi Po'lat qayrag'och tepasida yiltillab turgan yulduzga tikilib. Muhabbat hayron bo'lib unga o'girildi. Po'latning qorachadan kelgan dumaloq yuzi g'amgin. Ko'zlari ham negadir kirtaygan, sochlari to'zg'igan, havorang galstugi qiyyshayib, yoqasidan chiqib turibdi.

— O'zim ham hayronman, — dedi anchadan so'ng Po'lat olataroq bo'lib ketgan botinkasining tumshug'i bilan yer chizib, — yotoqxonaga kirdim-u hafsalam pir bo'ldi. Bir uyda olti kishi turarkanmiz. Shu ham sharoit bo'ldimi.

— Bizda ham shunday, — dedi shoshib-pishib Muhabbat. — Qaytaga zerikmaysan kishi.

Po'lat iljaydi. Soatiga qarash bahonasi bilan qarshisida turgan ayolga ko'z qirini tashlab oldi.

Ular katta ko'chadan o'tishgach, Po'lat to'xtadi.

— Shu yerda picha o'tirmaymizmi?

U javob kutmasdanoq, anhor labidagi skameykalardan biriga o'tirdi. Muhabbat uning yoniga keldi.

Novcha teraklar ortidan oy ko'tarildi. Uning kumush tangasi suv betida jimirlay boshladi.

Po'lat qiz qo'llarini ingichka, oriq barmoqlari orasiga oldi.

Po'latning birinchi marta «sen» deyishida Muhabbatning yuragiga nimadir iliqqina tegdi. U Po'latning yelkasiga ohista boshini qo'ydi.

— Bo'lmasa, nega xafasiz?

— Bilasanmi, yaxshi kuy yozish uchun, ya'ni nima desamikin... Kompozitor bo'lish uchun yaxshi sharoit kerak. Menda esa uning uchquni ham yo'q.

...Shu kuni Muhabbat Po'lat bilan bo'lgan suhbatni o'ylab, allavaqtgacha ko'z yummasdi. Qiziq, nimadan norozi u? Bir uyda olti kishi turishidanmi? Faqat shumi? Muhabbat o'ylab o'yiga yetolmasdi.

Ko'p o'tmay Po'lat yotoqxonaga qarshisidagi bir kampirnikiga ko'chib o'tdi.

Mana endi Po'latjonning shinamgina xonasi bor. Bog'ga qaragan derazasini ochishi bilan ariq bo'yidagi ko'm-ko'k yalpiz, qiyg'os gullayotgan shaftoli isi gup etib dimoqqa uriladi.

— Menga qara, — dedi bir kuni Po'lat deraza romiga suyanganicha bog'chani zavq bilan tomosha qilayotgan Muhabbatga yaqinlashib. — Ayt... Bular... qanday qilib?

— Po'lat, endi siz bemalol ijod qila olasiz... Ishga kirdim... Endi...

— Nima? O'qish-chi?

— Sirtqi bo'limga o'tib oldim. Bilasiz-ku, ishsiz turolmayman.

— Qanaqa ish ekan? — dedi biroz jimlikdan keyin Po'lat.

Muhabbat uning ovozidagi ohangni kesatiqqa ham, achinishga ham yo'yolmay ajablanib:

— Qurilishda, — dedi birozdan so'ng. — Eski kasbim. Ekskavatorchi bo'lib ishlayapman.

Oraga jimlik cho'kdi. Muhabbat Po'latni qattiq ranjir, deb o'ylagan edi. Yo'q, u kutganday bo'lmadi. Po'lat xuddi allaqachon taqdirga tan bergan kishidek xotirjamlik bilan uyni u boshidan-bu boshiga yurib, allaqanday kuyni ohista xirgoyi qila boshladi...

... Dam olish kuni. Po'lat bilan Muhabbat magazindan chiqishi bilan ularning oldiga bir mashina kelib to'xtadi. Kabinadan o'rta bo'yli, qalpog'ini qoshlarigacha tushirib olgan yigit tushdi.

— Tojiboy akamlar, — dedi Muhabbat Po'latga, — tani-shing. Birga ishlaymiz. Shkafni eltib beradilar.

Po‘lat qarshisidagi yigitning bo‘rtib chiqqan yonoqlariga, g‘ijimlangan kiteliga bir zum tikilgach, sovuqqina ko‘rishdi.

Haligina uzoq-uzoqdan sudralib kelayotgan bulut samoni butunlay qoplab olgan. Yerga ikki-uch yirik tomchi tushdi. Muhabbat xavotirlanib osmonga qaradi.

Kabinaga Tojiboy bilan Po‘lat o‘tirdi. Muhabbat kuzovda qoldi.

— Mayli, men shu yerda ketaveraman, — dedi Muhabbat Tojiboyning kabinaga o‘tiring, deb qistashiga ko‘nmay, — havo aynib turibdi. Ertaga Po‘latning konserti bor. Ovoziga ta‘sir qilishi mumkin.

Tojiboy Po‘latga ko‘z qirini tashlab, ichidan g‘ijinib qo‘ydi. Ellik qadamcha yurgach, mashinani to‘xtatdi. To‘g‘ridagi magazindan soyabon olib chiqib, Muhabbatga uzatdi...

* * *

U hamon ekskavatorga suyanib, xayol surib turibdi. Uzoqdan mashinaning guvullagan tovushi eshitildi. Muhabbat cho‘chib boshini ko‘tardi. «Tojiboy... — xayolidan o‘tkazdi u, — qaytib kelyapti... Nahot, shuncha xayol surgan bo‘lsam? Yo‘q! Shu ahvolda yurgandan Po‘latning oldiga borib, orani ochiq qilgan ma‘qul».

Kechqurun.

Po‘latning ochiq derazasidan gitaraga jo‘r bo‘layotgan qizning mayin tovushi eshitildi.

Muhabbat uning ovozidan darrov tanidi. Po‘lat bilan bir kursda o‘qiydi u. Oti Dilbar edi, shekilli. Ha-ha, Dilbar. Yangi yilni o‘shalarnikida kutishgan. Nega u bu yerda? Po‘lat yangi yozgan ashulasini doim Dilbarga aytirib ko‘rish odati bor edi. Balki shuning uchun chaqirgandir.

Muhabbat eshik bandini ushladi-yu, ikkilanib turib qoldi. Po‘latning ertalabki dag‘al muomalasi, sovuq qarashlari esiga tushib, qo‘lini tortib oldi. Kelganiga afsuslandi.

Qo‘shiq tindi.

— Dilbar, bu qo‘shiqni sizga atab yozganman. Chin so‘zim, ishonmaysizmi? — ichkaridan Po‘latning entikkan ovozi eshitildi.

— Qo'shiqni chakki yozmabsiz-u, ammo adresiga kelganda yanglishibsiz, — kulgi aralash javob berdi Dilbar. — Endi menga javob.

— O, yo'q. Siz mening farishtamsiz, Dilbar. Chin so'zim, sizsiz...

— Qo'ying-e, hazil ham evi bilan-da. Muhabbat eshitsu xafa bo'ladi. Bunaqaligingizni bilsam, sira kelmas edim. Muhabbat yaxshi qiz. Uni...

— Qo'ying, Dilbar. Biz u bilan... shunchaki...

— Po'lat, axir uch yildan beri...

— Nima Po'lat? To'g'ri, uch yildan beri yaqinmiz. Yoshlik qildim. Menga yaxshi sharoit yaratib berdi. Turmushimiz haqida men emas, u o'yladi. Shunisiga uchdim.

— Uning muhabbati-chi? Nahotki...

— Tushunsangiz-chi! Tavba, ekskavatorchi qayoqda-yu, kompozitor qayoqda. Bir kamim rabochiy etik kiyib yurgan...

— Po'lat, bu nima qiliq? Qo'lingizni torting, sizga aytyapman.

Ichkarida nimadir sharaqladi. Taraqlab eshik ochildi. Dilbar otilib ko'chaga chiqib ketdi. Uning ketidan chap lunjini ushlagan Po'lat ko'rindi. U qarshisida turgan Muhabbatni ko'rib, oqarib ketdi. Muhabbat unga yaqinlashdi. «Nahotki, shuning gaplariga uchgan bo'lsam», xayolidan o'tkazdi u. Keyin Po'latning bezrayib turgan ko'zlariga tikildi-yu, indamay chiqib ketdi.

...Muhabbat vagon derazasini ochib yubordi. Ichkariga gup etib, yengil shabada kirdi.

— Bahor, — dedi u hayajonlanib.

— Bahorni cho'lda o'tkazamiz, — Tojiboy kastumini ohista yechib, Muhabbatning yelkasiga tashladi. — Bilasizmi, u yerning...

Tojiboy to'g'ridagi budkaga tikilganicha, jim bo'lib qoldi. Muhabbat u qaragan tomonga o'girildi-yu, iljayib kelayotgan Po'latni ko'rib, yuzini teskari burdi.

Poyezd jildi. Po'lat kaftini og'ziga karnay qilib, nimadir dedi. Ammo poyezdning qattiq qichqirig'i uning ovozi ko'mib ketdi.

Qadrdon ko'zlar

U — yag'rini keng, oriq, sarg'ish yuzini sepkil bosgan o'n uch-o'n to'rt yoshlardagi yuvosh bola. Ammo bilmagan odam jussasiga qarab, bog'cha bolasi deydi. Uyqusizlikdanmi yo dardning zo'ridanmi, qisq ko'zlari biroz kirtayib, ich-ichiga botib ketgan. Hech kim bilan ishi yo'q, faqat zerikkanda yostig'ining ostidan allaqanday kitobchani olib, ko'rpaga burkanadi-yu, qiroat bilan o'qishga tushadi. Bemorlarda hurmatdan ko'ra ko'proq qo'rquv tug'diradigan past bo'yli, ko'zlari chaqchaygan, chap yuzini burishtirib yuradigan bosh shifokor Vali Karimovich uning qiliqlariga miyig'ida kulib yuradi.

Bu bola to'g'risida bilganim shu: taxminan sakkiz oy avval og'ir dard bilan Janubiy Qozog'istondan kelgan. Oti Prisvoy. Hamshiralalar o'zlaricha «Petro» deb chaqirishadi. Bu nom o'ziga ham singib ketganga o'xshaydi. Bilishimcha, yolg'iz kasalmand buvisi bor. Haftada bir — shanbada kelib, shomga qolmay qaytadi. O'sha kuni Petro derazadan nari jilmaydi. Buvisi kelib-ketgach tamom o'zgaradi: yuz-ko'zidagi g'am ko'lankasi yo'qoladi. Kasallar bilan hazillashadi, karavot suyanchig'idagi do'mbirasini olib, o'lan aytib beradi. Bu kayfiyat bir-ikki kun, keyin yana avvalgidek o'ychan, ma'yus bo'lib qoladi...

Bu bola buvisi bilan Quدرات akani ko'rgandagina ochiladi. Quدرات aka — palata shifokori. Oltmishlardan oshgan, o'rta bo'yli, dumaloq yuzining ikki-uch yerida chechak o'rni bor, qovoqlari yonoqning po'stidek qavarib chiqqan. ko'rinishi yoqimsiz. Ammo bir-ikki suhbatdayoq kishini o'ziga moyil qila oladigan dilkash odam. Bemorlarning gapiga qaraganda, oilasi yo'q, yolg'iz. Nega? Sababini hech kim aniq bilmaydi. Yolg'izlikdanmi yo qariyb bir yildan beri qo'l ostida davolab, o'rganib qolganidanmi, har kuni odat bo'yicha palatalarni aylanib bo'lib, Petroning oldida uzoq o'tiradi, gaplashadi, hazillashadi, olmami, mandarinmi, ishqilib, biror tansiqroq narsani cho'ntagidan chiqarib, sekin shkafga qo'yib chiqib ketadi.

Kechqurun uyiga qaytayotganda ham birpas Petro bilan hangomalashgani kiradi, bunga bemorlar o'rganib qolishgan...

Mana, odatdagiday, kechga tomon yo'lakda oyoq sharpasi eshitilishi bilan Petro yalt etib eshikka qaradi. Quدرات aka kirdi.

— Xo'sh, do'stim Petro, ahvol-ruhing qalay?

Quدرات aka karavotning chetiga o'tirib, Petroning puchuq burnini chimchilab qo'ydi.

— Jaxsi...

— Seniki jaxsi bo'lsa, demak, meniki ham jaxsi.

— Erta ovuldan acham keladi.

— E... ha, aytmoqchi, ertaga shanba-ya.

— Ancha kitob aytvoruvdim.

— Ko'p o'qib, toliqib qolmagin, o'g'lim. Hozircha qo'ya tur, xo'pmi?

— Nega? — Petroning ko'zlari bilinar-bilinmas yoshlandi, — o'quvdan qolib ketdim. Acham qiynalib katta qilgan meni... keyin...

— Mayli-mayli, bir gap bo'lar, — dedi Quدرات aka Petroni yupatib. Uning yuzidagi o'ychanlikni ko'rib, gapni boshqa yoqqa burdi, — uni-buni qo'y. Katta bo'lib ishlang achangga nima olib berasan?..

— Ko'zoynak, yaxshisidan.

— Menga-chi?

— Sizga qo'ndog'iga ilon boshi solingan hasa.

— Bo'ldi, bo'ldi, kelishdik, o'g'lim, sen olib bermaguningcha hasa tutmay turaman.

U chiqib ketgach, Petro anchagacha xayol surib yotdi. Keyin shirin jilmayib, uyquga ketdi.

Ertalab turganimda u iyagini kaftiga tirab, derazadan tashqariga qarab o'tirardi. Ammo o'sha kuni ham, ertasiga ham buvisidan darak bo'lmadi. Petro kamgap, o'ychan bo'lib qoldi, ko'zlari yana ich-ichiga botib ketdi. Quدرات aka ko'pincha uning oldida bo'lar, ammo har gal ko'nglini ko'taraman deb, allanechuk bo'lib chiqib ketardi.

Bir kun suvsab, yarim kechada uyg'ondim, stakanni olib yo'lakka chiqdim. Bak qulog'ini burashim bilan allakim xo'rsinganday bo'ldi. Sinchiklab qaradim. Quدرات aka. Boshini qo'llarining orasiga olib burchakdagi divanda o'tiribdi. Oldiga bordim.

— O'tiring, — dedi meni ko'rib u, — kecha ovuldan xat keldi. Petroning buvisi qazo qilibdi...

Bu kutilmagan xabardan bo'shshib ketdim.

— Bu ham mayli, — yana xo'rsindi Quدرات aka, — shifokorsiz, aytishim mumkin. Ikki-uch kundan so'ng, taxminimcha, Petroning ko'zi... yonidasiz, xabardor bo'ling... O'tinaman...

U gapira olmadi. O'pkasi to'lib, tashqariga chiqib ketdi.

...Fojsia Quدرات akaning taxminidan ertaroq ro'y berdi. Ertalab Petroni alohida xonaga o'tqazishdi. U ko'r bo'lib qolgan edi.

* * *

Yillar o'tdi.

Yoz kezlari edi. Tibbiyot xodimlarining bir yig'ilishida, ittifoqo, men davolangan kasalxona bosh shifokori Vali Karimovichni uchratib qoldim. Ko'rishdik, hol-ahvol so'rashdik. Quدرات akani so'radim. Quدرات akaning ancha yillar ilgari vafot etganini, chala qolgan doktorlik ishini o'g'li davom ettirayotganini va bugungi yig'inda shu haqda ma'ruza qilishini aytib qoldi.

— O'g'li, dedingizmi? Bilishimcha, oilasi yo'q edi, shekilli.

— Petro-chi? Yodingizdami? Buvisining o'limidan so'ng Quدرات aka tarbiyaladi uni.

— Petro?! Ko'zi nima bo'ldi?

— Besh-olti yil ko'rlar maktabida o'qib yurdi. Baxtiga ko'z nervlari zararlanmagan ekan. Keyin ochdik. Shu orada...

— Bo'yi-chi? Nima bo'ldi, vrachlar o'smaydi, deyishgan edi.

— Quدرات aka tomog'ini operatsiya qildirdi. Bo'yin bezini oldirib, unga qo'yirdi. Hozir Petroni ko'rsangiz tanimaysiz. O'sib ketgan. Bechora Quدرات aka... operatsiyadan keyin o'ziga kelolmadi.

Gap bo'lindi. Minbarga o'rtadan tikroq, keng yelkali, sochini silliq qilib orqaga taragan, to'lagina yigit chiqdi. Hayajonlanib unga termildim. Nahot, shu Petro bo'lsa? Ha, yashashga, hayotga butun vujudi bilan intilgan, kamgap, o'ychan o'sha Petro, o'sha tanish qadrdon ko'zlar edi.

Yillar

G'ulomjon ishdan chiqib yo'l-yo'lakay magazinga o'tdi. Olma olib uyiga jo'nadi. Odatda yurgan yo'li bugun uzayganday, qadamini tezlatrsa ham negadir sekin yurayotganga o'xshardi.

Muyulishga yetishi bilan derazasidagi chiroqqa ko'zi tushdi. Yuragi to'liqlanib ketdi: mana hozir eshikni taqillatadi? Ichkaridan «kim» degan mayin tovush eshitiladi. Shundan so'ng... eshikning bir qanoti «g'irch» etib ochiladi-yu, boshini biroz qiyshaytirib turgan Zaynabning «Muncha kuttirma-sangiz» degandek, erkalanib boquvchi ko'zlariga ko'zi tushadi.

G'ulomjon shirin xayol bilan yetib kelganini ham bilmay qoldi.

Eshik ochiq ekan. Uyga kirdi. Zaynab uni ko'rishi bilan nozlanib o'rnidan turdi. G'ulomjonning qo'lidagi sovg'ani oldi.

— Olmami? Ko'nglimdagini topasiz-a? — Zaynab uzun kipriklari orasidan tim qorako'zlarini suzib, qog'ozni ochdi, yalt etib eriga qaradi. — Esim qursin, G'ulomjon aka, tani-shing, — dedi olmalarni yuvгани chiqib keta turib, deraza oldida boshini egib turgan o'rta bo'yli, soddagina kiyingan qizga ishora qilib.

G'ulomjon «Aytma-san-a» degandek xotinigа bir qarab olgach, salomlashdi. Salomlashdi-yu, qizning ko'zlariga ko'zi tushib, bilinar-bilinmas o'zgardi. Ko'zlari pirpiradi. Tomog'iga allanarsa tiqilgandek, bir-ikki yutinib qo'ydi. Bir nima demoqchi bo'ldi. Biroq negadir gapirolmadi. Qiz ham o'zini yo'qotib qo'yayozdi. Oqarib ketgan yuzlarini, titrayotgan lablarini sekin qo'llari bilan to'sdi.

— Keling, — dedi G'ulomjon nihoyat bo'g'iq tovush bilan. — Ahvollaringiz yaxshimi?

Qiz javob bermoqchi bo'lib og'iz juftlagan edi, ichkariga Zaynab kirib keldi.

— Muncha yaxshi-ya, — Zaynab olmalarni vazaga qo'ydi, — oling, Halimaxon. Mikroblari o'ldi. Qo'rqmang, oling. Tozalab yuvdim.

G'ulomjon qarshisida dasturxonning popugini o'ynab, jimgina o'tirgan qizga tez-tez qarab qo'yardi. Uning qorachadan

kelgan dumaloq yuzi, mehr bilan boquvchi qadrdon ko'zlari, keng, silliq peshanasi, harakatlaridagi samimiyat o'shanda ham G'ulomjonga yoqardi. Biroq... G'ulomjon yengil xo'rsinib qo'ydi. Xayolini chalg'itish uchunmi, shu topda negadir, sababini o'zi ham aniq bilmagan holda, qarshisidagi qizni divanda oyoqlarini chalishtirib o'tirgan xotini bilan xayolan solishtirgisi keldi. Yer ostidan sekin Zaynabga qarab qo'ydi. Xotining go'zalligidan faxrlanib qo'ydi-yu, ammo... u hech mahal mana shu «ammo» haqida o'ylashni xohlamas, to'g'risi, o'ylagani yuragi dov bermas edi.

— G'ulomjon aka, — Zaynab likopchadagi shokoladdan olib tishladi-da, qolganini eriga tutdi. G'ulomjon uning o'ransiz erkalanishidan xijolat tortdi. Qizardi.

— Boyatdan beri Halimaxonni urishib o'tiruvdim.

— Nega? — G'ulomjon o'ng'aysiz ahvoldan qutulganiga xursand bo'ldi. Ataylab ovoziga jiddiy ohang berishga tirishdi.

— Axir o'ylab ko'ring. Shundoq joyni tashlab, qishloqqa ketmoqchilar-a. Tavba. Shaharda ish otiga qirg'in kelganmi! Bormayman deng.

— Har kimning ko'ngli, xohishi, — dedi Halima sekin, — meni hech kim majbur qilayotgani yo'q.

Oraga jimlik cho'kdi. Zaynab burchakdagi toshoynaga qarab, sochlarini to'g'rilay boshladi. G'ulomjon bir nimaga og'iz juftlagan edi, Halima turib qoldi.

— O'tira turing, muncha. Borasiz-da.

— Rahmat. Hali yana ikki-uch kasalni ko'rib ketishim kerak.

— Menga qarang, o'rtoqjon, bitta-yu bitta ishim tushganda to'g'rilab bermadingiz-a. Yaxshiligingizni unutmasdim. Teatrga tushsangiz kantramarka olib berarman.

Halima miyig'ida kuldi-yu, indamadi. G'ulomjon bilan xayrlashdi. Tashqariga chiqdi.

— Tavba! — ingichka barmoqlarini qisirlatib jig'ibiyron holda Zaynab uyga qaytib kirdi, — men iltimos qilibman-u, u kishi noz qilibdilar! Amal o'lsin, shu isqirtga tegmay.

— Nima gap o'zi?

— Nima bo'lardi. Chap sonimga chipqon chiqdi. Doktor chaqirtirsam, boyagi kishi ekanlar. Isitmang yo'q, spravka

berolmayman, deydi, ordona. Mundog' madaniyroq qilib gapirsa ham go'rga! Tavba, tag'in yapaloq tirnog'ini bo'yab, rapidadek yuziga upa-elik surtganiga o'laymi.

— Kasal bo'lmasangiz, qanaqa qilib kasal deb yozib beradi, axir.

— Endi siz bormisiz? E, qanaqa ersiz, ikki enlik spravka to'g'rilatib berolmasangiz.

— Zaynab?!

— Nima Zaynab?

— Bas, bola uyg'onadi, sekinroq.

Zaynab zarda bilan to'g'ridagi xonaga kirib ketdi. G'ulomjon divanga o'tirib, chuqur uh tortdi. Boshini qo'llarining orasiga oldi.

U bunaqa janjalga ko'nikib qolgan. Ayniqsa, so'nggi oyda ko'ngilsiz o'tmagan kunni eslay olmaydi. Tahririyatda biror xodim qattiqroq gapirsa, g'ashi keladi-yu, uyda qanday chidashiga o'zi ham hayron.

Ichkaridan Zaynabning piqillab yig'lagani eshitildi. G'ulomjon boshini ko'tarib, bir dam eshikka qarab qoldi. Keyin qo'lini siltab, xonasiga kirib ketdi. Chiroqni o'chirib, o'zini karavotga tashladi. Yotolmadi. O'rnidan turdi. Chekdi. Karavotning chetiga o'tirdi. Xayolga toldi. Yillar... tog' irmo-g'idek jo'shqin, bahor ko'kidek sof, ammo unutilmas xatolar shohidi bo'lgan bebosh yoshlik. Bu yoshlik G'ulomjonning ko'z oldida bir zum butun go'zalligi, ayni paytda achchiq haqiqati bilan gavdalandi: G'ulomjon uchinchi kursda o'qib yurgan kezlar edi. Bir o'rtog'ining mototsiklini minishga o'rgana turib, nogoh jarga yiqilib tushdi. Kasalxonaga hushsiz olib kelishdi uni. Tezlikda operatsiya qilish lozim bo'lib qoldi. Biroq G'ulomjon qattiq jarohatlanganligi, buning ustiga yarasidan ko'p qon ketganligi sababli, nihoyatda darmonsiz, zo'rg'a nafas olar, hatto ko'zlarini ochishga ham madori yetmasdi. Hamshiralardan biri qon berishga rozi bo'ldi. Operatsiya muvaffaqiyatli o'tdi. Ikki kun deganda G'ulomjon hushiga keldi. Ko'zini ochganda tepasida o'sha qon bergan, oq xalatli, ko'zlari katta-katta, qorachadan kelgan yoshgina hamshira boshini bosib o'tirardi. Shu-shu qiz har kuni

G'ulomjonning oldiga kirib, xabar olib turdi. G'ulomjonni ota-onasiz yolg'iz ekanligini eshitib, har kirganda biror tansiqroq narsa olib kelar, u bilan gaplashib o'tirar, xullas, G'ulomjonning yolg'izligini bildirmaslikka harakat qilardi. Ikki orada samimiy do'stlik iplari ulanabordi. Biroq bu do'stlik qizning yuragida hali o'ziga ham aniq ma'lum bo'lmagan notanish boshqa bir his-tuyg'u bilan almashgan edi. G'ulomjon buni uning mehr to'la ko'zlaridan sezardi. Shunday kezar Zaynabning G'ulomjon yotgandan beri biror marta kelib hol-ahvol so'ramaganligini eslab, yuragining allaqayeriga og'ir tosh botgandek tuyulardi. Biroq ko'r muhabbat G'ulomjonni o'z domiga olgandi. Ana shuning uchunmikin, ba'zi-ba'zida hamshira qiz bilan bo'ladigan samimiy, iliq suhbatlar ham Zaynabga nisbatan bevafoqlik bo'lib tuyulardi unga. Bir kuni bor gapni qizga aytdi. Qiz boshini quyi solgancha jimgina o'tirib tingladi. Keyin g'alati bo'lib chiqib ketdi. Ikki-uch kun ko'rinmay yurdi. Bir kuni ertalab G'ulomjon uyqudan turib, tumbochkasi ustidagi qalam bilan shosha-pisha yozilgan xatga ko'zi tushdi. Olib ko'z yugurtirdi.

«G'ulomjon aka! Xayrlashgani kirgan edim, uxlab yotgan ekansiz. Praktikum tugadi. Ertadan o'qishim boshlanadi. Balki, endi uchrashmasmiz. Qayerda bo'lmay, sizning baxtingiz meni cheksiz quvontiradi. Qayg'ungiz qayg'urtiradi...»

Xat shu yerda uzilgan edi. G'ulomjon juda uzoq hushsiz, shuursiz shi'piga tikilib yotdi. Anchadan keyin o'rnidan turib, derazani ochib tashqariga qaradi. Uzoqda yolg'izoyoq yo'lda tizilishib ketayotgan qizlarga ko'zi tushdi. Eng orqada ketayotgan o'rta bo'yli, sochlarini boshiga chambar qilib xomush borayotgan qiz tez-tez orqasiga qarab qo'yardi. O'sha! G'ulomjon chaqirmoqchi bo'ldi. Biroq... o'zini darmonsiz sezib joyiga kelib yotdi.

Bir oy o'tgach G'ulomjon kasalxonadan chiqdi. Zaynab bilan yana topishib ketdi. Yillar o'tdi. Mana bugun o'sha, qachonlardir G'ulomjonni juda qattiq sevgan hamshira qizni ittifoqo uyida uchratib, avvaliga biroz dovdirab qoldi. Kasalxona... u bilan tanishgan kezar... xayolida bir dam jonlanib o'tdi-yu, yana Zaynab to'g'risidagi xayol fikrini chulg'ab oldi.

Zaynab... nima bo'ldi unga? Ilgari ham shunaqamidi? Qiziq, sevgan kishi uchun qusurlar ham allaqanday fazilat bo'lib ko'rinarkan. Balki shuning uchun ham uni birinchi bor ko'rganda quyoshga tik qaragan kishidek, ko'zlari tingandir. Zaynabdagi butun kamchiliklarni faqat go'zal qizlardagina mavjud bo'ladigan allaqanday sehrli, kishini maftun etuvchi joziba deb tushungandir. Bir voqea hali-hali G'ulomjonning esidan chiqmaydi: Zaynab bilan turmush qilishganiga endigina bir haftacha bo'lgan edi. Xotini xoreografiya maktabini tamomlab, teatrga ishgakirdi, G'ulomjon diplom yozaboshladi. Zaynabning birinchi olgan maoshini G'ulomjonning stipendiyasiga qo'shib, Zaynab tug'ilgan kuniga shiringina o'tirish qilishmoqchi bo'lishdi. Zaynab teatrdan Marat ismli artist, ikki-uch dugonasini taklif qildi. G'ulomjon ham o'rtoqlarini aytadigan bo'ldi. U, qo'lyozmalarni titib o'tirib, Zaynab bilan ilk uchrashgan kezlar yozgan she'rini taqdim etmoqchi bo'ldi. Gazetaga olib bordi. Ming iltimos bilan tepasiga «N. Z ga bag'ishlayman» jumlasini bilan chiqartirdi.

Esida: dam olish kuni kechqurun mehmonlar to'planishdi. O'shanda Zaynabning hazilkash dugonalaridan biri qo'g'irchoq olib kelgan edi. G'ulomjon qo'ynidan gazeta olib tantana bilan uzatdi. Zaynab Maratga tutdi. U qiroat bilan o'qiy boshladi:

*Unutdingmi? Boqmading sira,
Qo'shiqlarim bermadi huzur.
Yoki ko'ngling bo'lganmi xira,
Aytgin, jonim, so'rayman uzr.*

She'r hammaga ma'qul bo'ldi. Qizlardan biri so'nggi to'rtligini yodlab ham oldi. G'ulomjon hayajonlanib, xotiniga termuldi.

— Yoqdimi?

U bo'lsa:

— Qancha to'laydi? — deb so'radi jilmayib.

G'ulomjon titrab ketdi. Birov ustidan muzdek suv quy-gandek bo'ldi. Sevgan xotini qalbini, muhabbatini, she'rini pul bilan baholadi!.. Pul bilan!.. O'sha kun G'ulomjon tuni bo'yi uxlay olmadi. Nihoyat, yo'q-yo'q shubhalarini o'ldirishga

harakat qildi G'ulomjon. Yana avvalgidek totuv yashay boshlashdi. To'g'rirog'i, G'ulomjonning xotini kuni bo'yi, ba'zan yarim kechagacha ishda qolib ketardi. Erining shubhalariga esa:

— Unaqa feodal bo'lmang, Maratjon kuzatib qo'rgan bo'lsa, nima qipti? Qo'ying shuni. Bitta kuling, bitta. Xo'p deng endi, — deb erkaldi. G'ulomjon esa yana to'lib-toshib uni bag'riga bosardi. Tong otguncha tahririyatdagi ishlari, yozajak hikoyalari to'g'risida yosh boladek to'lqinlanib gapirar, o'ziga kelib xotiniga qaraganda, u allaqachon uxlab qolgan bo'lardi.

Bir kuni ishdan qaytib kelsa, xotini boshini changallab divanda yotibdi.

— Zaynab, azizim, nima bo'ldi?

Zaynab o'zini tutolmay ho'ngrab yubordi. Anchadan keyin:

— Bola! — dedi titrab-qaqshab, — G'ulomjon aka, xo'p deng. Hozir bolaning nima keragi bor, oldirib tashlay.

— Zaynab, o'z bolangni o'zing o'ldirmoqchimisan!

Yalinib-yolborishlar, ko'z yoshlardan so'ng xotini tug'ishga rozi bo'ldi.

Hatto xizmat safaridan tasodifan ertaroq qaytib kelganda kasalxonaga yotmoqchi bo'lib turgan ham ekan!

Ana shu tariqa oylar o'tdi. Farzand ham ko'rishdi. Bu — bir-birlarini yana ham mahkamroq bog'lar deb o'ylagan edi G'ulomjon. Yo'q, aksincha bo'lib chiqdi. Keyingi paytda bola Zaynabning esiga kelmas, nuqul boylik haqida gapiradigan bo'lib qoldi. Buni eshitib, G'ulomjon ich-ichidan o'kinardi. Nahot baxt shu bo'lsa, deb azob chekar va uni bu yo'ldan qaytarishga uri rishlari, yalinib-yolvorishlari bugungidek janjal bilan tugardi.

Nima qilishga G'ulomjon hayron. Boshi qotgan edi.

...G'ulomjon ertalab turganda stoldagi xatga ko'zi tushdi. «Gastrolga ketyapman. Ikki kundan keyin qaytaman, Zaynab».

G'ulomjon xatni g'ijimlab, burchakka uloqtirdi.

Kecha kechqurungi elektr choynakdagi suvni isitib, naridan-beri nonushta qildi, o'g'lining sutini ichirib, kiyintirdi.

Eshikni berkitib, yo'l-yo'lakay uni yasliga qo'yib, tahririyatga kirishi bilan bosh muharrir chaqirtirdi.

Bosh muharrir Musaxonov ko'zlari qisiq, to'ladan kelgan, sochlariga bitta-ikkita oq oralagan, ellik-ellik besh yoshiga qaramay, chaqqon kishi. G'ulomjon kirganda u cho'qqi soqol, qorachadan kelgan bir odam bilan gaplashib o'tirardi.

— E, keling, G'ulomjon, mana Soyib akangiz bilan tani-shing.

Cho'qqi soqolli kishi G'ulomjon bilan so'rashib, divanga o'tib o'tirdi.

— G'ulomjon, gap bunday, — Musaxonov stakanning ostidagi suv bilan tomog'ini ho'llagan bo'ldi, — bu kishi olis qishloqdan. Iltimos bilan kelibdilar, kadr so'rab. «Chorvador» degan gazeta tashkil qilinayotgan ekan. Talabaligingizdagi orzu-umidlaringiz yodimga tushib, sizni chaqirtirdim. Nima deysiz? Ha, Zaynabxon to'g'risida ham gaplashdik. Madaniyat uyida raqqosalar to'garagi bor ekan. Rahbarlik qilaveradilar.

Soyib aka ancha dilkash kishi ekan. G'ulomjonga qishloq to'g'risida ko'pgina qiziq narsalarni gapirib berdi. Keta turib shu yaqin orada birrov borib kelishini iltimos qildi.

G'ulomjon bu gapni Zaynabga qanday aytishni o'ylab yurdi.

Uchinchi kuni ishdan barvaqt chiqdi, o'g'lini yasli-dan olib, uyga keldi. Eshik ochiq. Demak, Zaynab kelibdi. Hovliqib ichkariga kirdi. Zaynab divanda nimanidir sanab o'tiribdi. G'ulomjonni sez-madi ham. G'ulomjon To'lg'inni karavotga yotqizib, sekin tepasiga bordi: bir dasta g'ijimlangan ellik-talik, yuztaliklar.

— Zaynab... bu nima?

Zaynab cho'chib boshini ko'tardi, ko'zlarini katta-katta ochib, bir lahza eriga qarab qoldi. Keyin to'satdan sharaqlab kuldi. Qo'lidagi g'ijimlangan pullarni itqitib, sumkasidan papiros olib tutatdi. G'ulomjon uning biroz kayfi borligini sezdi.

— Muncha tikilasiz, — u oyog'ini chalishtirib divanga o'r-nashibroq o'tirdi, — chekkanimga ajablanyapsizmi? Bunaqa qaramang. Ma...da...niyatsizlik bo'ladi.

— Madaniyat chekish yo lab-tirnoqlarni bo'yashmi?

— Ey, qo'ying... bufetda vino turibdi. Oching. Qittay, qittay qilaylik... Voy anavi...

— Yo'qot! — G'ulomjon o'zini tutolmadi. Pullarni olib oyoq ostiga tashladi.

Oraga qattiq bo'ron oldidan bo'ladigan shum jimlikka o'xshagan sukunat cho'kdi. Zaynab o'rnidan turib ichkariga kirib ketdi. Allanima taraqlab polga tushdi. Xiyol o'tmay qo'lida chamadon bilan ko'rindi.

— Kechiring, G'ulomjon aka, biz ortiq birga turolmaymiz, — dedi u titrab.

— Sabab?

— Bilasizmi... Men siz bilan turolmayman.

U G'ulomjonga tik qaradi. Tik, hatto qizarmadi ham.

— To'lqin-chi!.. Nahot bolani tirik yetim qilmoqchisan?

— Bola?! — Zaynab bolasi borligini birinchi marta eshitayotgandek ajablanib, kiftini uchirdi.

Shundan keyin Zaynab qo'l cho'zdi, yo'q, u emas, G'ulomjon qo'l uzatdi, to'xtatmoqchi, allanimalarni tushuntirmoqchi, bola hurmati, yalinib-yolvormoqchi bo'ldi, ammo qo'li havoda muallaq qoldi. Eshikning taraqlab yopilishidan o'ziga keldi. Xo'rlangan muhabbatini ko'zlaridan tirqirab kelgan yosh bilan yuvdi, butunlay yuvdi!

Fojiadan bexabar, miriqib uxlab yotgan To'lqinning tepasiga kelib, uzoq qarab qoldi. «Ona mehriga to'yamaydigan payti», xayolidan o'tkazdi u. Yuragi uvishdi. Ochilib qolgan biqinini avaylab yopib qo'ydi.

Oradan hafta o'tdi.

Bir kuni G'ulomjonni tasodifan yasliga chaqirib qolishdi. Murabbiya To'lqinning kechasi isitmalab chiqqanini, erta bilan kasalxonaga tuman shifokori bilan yasli mudirasi olib ketganligini aytdi.

— Xavotir olmang, shamollagan bo'lsa kerak, — dedi murabbiya G'ulomjonning dokadek oqarib ketgan yuzini ko'rib, — hali borgan edim: doktor ikki-uch kun onasi kelib tursin, degan edi.

G'ulomjon nima qilarini bilmay, to'ppa-to'g'ri teatrda bordi.

— Bo'shatganimizga uch kun bo'ldi, — teatr bosh baletmeysteri G'ulomjonga tushuntira boshladi. — Ayb o'zida. Ko'p ogohlantirdik, bo'lmadi. Yengil hayotga uchdi. Yaqinda spektaklni tashlab, allaqaysi to'yga ketib qolibdi. Uyat!

— Kechirasiz, — G'ulomjon gapini bo'ldi, — qayerdan topsam bo'ladi, aytolmaysizmi? Bolasi kasal, og'ir, juda zarur edi menga.

Baletmeyster ko'zoynagining ustidan G'ulomjonga bir qarab olgach, yelkasini qisdi.

— Bilmadim. Yana otarchilarga qo'shilib, to'y-ma-to'y yurgandir.

G'ulomjonning ko'z oldi qorong'ilashdi. Qulog'i tindi. Uzoq yotib, yurishni yangi o'rganayotgan kishidek gandraklab tashqariga chiqdi.

Shuursiz, ko'ngilsiz bir his bilan katta ko'chaga o'tib, kasalxonaga ketayotgan edi, muyulishda kimdir chaqirdi. G'ulomjon eshitmadi. Boyagi chaqirgan ayol yo'lni kesib, uning oldidan chiqdi.

— G'ulomjon aka!

G'ulomjon to'xtadi. Avvaliga tanimadi. To'g'risi, yoshdan xiralashgan ko'zlarini unga uzoq tikdi-yu, qarshisida qora bir nuqta ko'rdi, xolos. Faqat anchadan keyin zo'rg'a tanidi.

— Yaxshimisiz, Halimaxon. To'lginni birga olib borishgan ekansiz, qalay?

— Durust. O'sha yerdan kelyapman. Bir-ikki hafta onasi borib tursa...

— Ayting-chi, men... tursam bo'lmasmikin?

— Ishingiz-chi?

G'ulomjon indamadi.

— Ko'p emas, bir hafta javob olsalar bo'ladi Zaynabxon. Kechqurun bir aytib ko'ring.

— Men uni ko'rolmasam kerak... — G'ulomjon titroq qo'llari bilan papiros tutatdi.

— Nega?

— Ajrashdik.

Halima ko'zlarini katta-katta ochib, unga qarab qoldi.

— Kechiring, bilmabman. Men... jonim bilan o'zim

turardim-u, — Halima nihoyat o'ziga kelib, oradagi jimlikni buzdi. — Dam olishga yo'llanma olgan edim, qaytgach qishloqqa ishga ketmoqchiman.

— Oq yo'l, singlim.

G'ulomjon to tushgacha kasalxonaga ikki marta borib-keldi.

Tushdan keyin xonasiga kirdi-yu, hatto shlapasini yechmay, ertagi songa ketadigan bir-ikki maqolani ko'rgan bo'ldi. Ko'ngli g'ash, xayoliga ming turli vahimalar keldi, ish tugamasdanoq yana kasalxonaga yugurdi.

Navbatchi ayol ertalabdan beri tinim bilmay uch-to'rt kelib, har gal allanechuk bo'lib ketgan bu yigitga achinib o'tirgan ekanmi, uzoqdan ko'zi tushishi bilan imlab chaqirdi.

— O'g'lingiz ancha yaxshi, xavotir olmasangiz ham bo'ladi. Aytgancha, onasi ham keldi. Shu yerda. Bemalol ketavering siz.

— Onasi?!..

G'ulomjon quvonchdan devorga holsiz suyandi. Hozir u Zaynabning butun gunohlarini kechirishga ham tayyor edi!

— Doktor, bir daqiqaga. Mumkinmi, kirib chiqsam. Faqat eshikdan qarayman, xolos.

Doktor o'ylanib turdi, keyin tashqariga boshlab chiqib, to'g'ridagi derazani ko'rsatdi.

— O'sha yerdan qarang. Lekin gapga tutmang, xo'pmi?

G'ulomjon hayajon bilan derazaning oldiga kelib, oyoq uchida ko'tarilib, arang ichkariga qaradi: oq xalat kiyib, boshini bir parcha doka bilan tang'ib olgan ayol To'lqinni bag'riga mahkam bosgan holda ohista xonaning u boshidan bu boshiga yurib uxlatardi. G'ulomjon ayolni derazaga yaqinroq kelganida tanidi.

— Halima?!

Oradan bir oy o'tgach, To'lqin kasalxonadan chiqdi.

— Mana, ta'tilni ham kasalxonada o'tkazdingiz, — G'ulomjon qishloqqa jo'nayotgan Halimani vokzalga kuzatgani chiqdi. — Rahmat, singlim.

— To'lqinga o'rganib qolgan ekanman... Rasmini yuborsangiz, xo'pmi?

— O'zini olib borsam-chi?

Halima yalt etib unga qaradi.

— Kecha xat oldim. Siz ketayotgan viloyat gazetasiga taklif qilishgan edi. O'zim ham yaqin orada borib qolsam kerak.

— Xo'p. Men chiqay.

Poyezd ketma-ket qattiq qichqirdi-yu, jila boshladi. G'ulomjon qo'l silkitib platformadan ancha yergacha bordi. So'nggi vagon ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan shirin bir narsasini yo'qotgan kishidek xo'rsinib yubordi.

... Oradan uch oy o'tdi.

G'ulomjon To'lqin bilan ko'chib kelgan kuni ertasi Halimani ko'rgan bordi. Yanagi borganda uni uydan topolmadi. Tog'lik chekka bir qishloqqa ketgan ekan. Shu bo'ldi-yu, tahririyatning ishiga sho'ng'ib, qaytib borolmadi. Odatdagidek, bir kuni ishdan chiqib tahririyatda qilingan ishlardan mamnun holda uyga qaytib kelayotgan edi, uzoqdan derazasidagi chiroqqa ko'zi tushib, ajablandi, qadamini tezlatdi. Yetib kelib, sekin oynadan qaradi: Halima! Negadir yuragi gupillab urib ketdi. Entikdi. Bir dam ariq bo'yidagi tolga suyanib turib qoldi. Keyin arang o'ziga keldi-yu, hovliga kirdi. Eshik tutqichini ushlab, yana allamahalgacha turib qoldi. U yoq-bu yog'ini to'g'rilab, eshikni ochdi. To'rdagi karavotda To'lqin pishillab uxlab yotibdi, Halima To'lqinning jingalak sochlarini silab, xayolga tolgan holda o'tirardi. G'ulomjonni sezmad. «Qanday ajoyibsan, mehribonsan», pichirladi G'ulomjon, keyin o'zini tutolmay «Halima!» deb yubordi. Halima cho'chib, To'lqinning boshidan qo'lini tortib oldi, o'rnidan turdi. Bilinar-bilinmas qizardi.

Halima qishloqda qurilayotgan yangi kasalxona to'g'risida, G'ulomjon tahririyat ishlari haqida anchagacha to'lib-toshib gaplashib o'tirishdi. Halima birdan soatiga qarab, shoshib o'rnidan turdi. G'ulomjon To'lqinni uy egasiga topshirib, Halimani kuzatgani chiqdi. Har ikkovi yonma-yon jim, so'zsiz, hali o'zlariga ham ma'lum bo'lmagan allaqanday iliq bir his-hayajon bilan borishardi.

— Tezroq yuraylik, birov eshik oldida kutib turibdi, shekilli, — dedi Halima fon yorug'ida qorayib turgan kishini ko'rsatib.

— Obbo, Halima qizim-ey, seni qishloq-pishloqqa ketganmikin deb yuragim taka-puka bo'lib turgan edi, — boyagi kishi Halimani uzoqdan tanib gapirib kela boshladi, — yur, tezroq yur, qizim.

G'ulomjon uning ovozsiz darrov tanidi.

— Ha, Soyib aka, tinchlikmi?

— E, G'ulomjon, sizmisiz, ha-ha, tinchlik. Shu... yangangiz... haligi, yana bitta o'g'il ko'radigan bo'lib turibmiz.

— Shundoq deng, tabriklaymiz, tabriklaymiz.

— Rahmat, G'ulomjon, rahmat.

— Soyib aka, Xadicha xolani chaqira qolmabsiz-da. Axir u pirga qo'l bergan doya-ku, — Halima kuldi, — biroz turasiz endi. U-buni olib chiqay.

Halima shoshib ichkariga kirib ketdi.

— Shunday, G'ulomjon uka, — dedi chuqur uh tortib Soyib aka, — doya voqeasiga ancha bo'ldi. Ayolimizning ko'zi yoriydigan bo'lib qoldi. Yarim kecha deng. Dard vaqt bilan hisoblashmas ekan. Kampirlarning so'ziga kirib dasturxonchini chaqira qoldim. Tongga yaqin uydan bolaning o'ligini ko'tarib chiqdi. Shu-shu dasturxonchi zotiga nafratim zo'r. Ko'rsam tepa sochim tikka bo'ladi.

Halima sumkasini olib chiqdi. G'ulomjon ular bilan xo'shlashdi. Uyiga kelib anchagacha xayoli qochib o'tirdi, yotib ham hadeganda uyqu kelavermadi. Tongga yaqin ko'zi ilinibdi. Qo'shni hovlidagi bedananing cho'chib sayrashidan uyg'onib ketdi-yu, o'rnidan turib ko'chaga chiqdi. Oqarib qolgan qir etagida allanarsa qorayib ko'rindi. Negadir xayoliga birdan Halima keldi. Yugurdi. Nega? O'zi ham bilmaydi. U yanglishmagan edi. Halima sumkasining tasma-sini yelkasidan o'tkazib olgan, elang-qarang ko'zga ilinib kelayotgan dalalarga biroz entikkan holda tikilib kelardi. G'ulomjon uzoqdan qo'l siltab chaqirdi. Halima to'xtadi. G'ulomjonning yosh boladek halloslab, yugurib kelayotganini ko'rib, juda-juda mamnun jilmayib qo'ydi.

— Xo'sh, qalay? — G'ulomjon uning qo'llarini mahkam ushlab oldi.

— Yaxshi, G'ulomjon aka.

— O'g'ilmi? Qizmi?

Halima xandon tashlab kuldi.

— Qiz...

Ular ancha yergacha jim ketishdi. Halima hamon entikib, hayajonlanib, tong yuziga yuzlarini ishqab, ajib manzara kashf etgan qirlarga tikilar, lazzatli charchoqdan biroz gandarab borardi. Uyqusizlikdan ko'zlari kirtayib, yuzi sarg'aygan. Yumshoq shabada to'zg'igan sochlarini yuz-ko'zlariga tushirardi. Tong bilan barobar tug'ilgan go'dakning taqdiri uchun kurashgan bu qizga nisbatan G'ulomjonning yuragida shirin bir tuyg'u paydo bo'lgan edi. Uning sochlaridan silab, erkalatgisi kelardi...

II

Qora ko'zoynak taqqan, poxol shlapali, bo'yi o'rtadan tikroq yigit ingichka barmoqlari bilan eshikni qiya ochdi-da, yonoqlari bo'rtgan, qonsiz, cho'zinchoq yuzini ichkariga suqib:

— Ijzatmi? — deb so'radi iljayib.

Pochasi tor ko'k shimi bilan shaxmat nusxa jigarrang ko'ylagidan «shaharlik bo'lsa kerak», deb qo'ydi kotiba.

— Hm... menga bosh muharrir kerak edi.

— G'ulomjon aka bandlar. Sahifa o'qiyaptilar.

— Da? — yigit to'g'ridagi eshikka qarab o'ylanib qoldi. Yonidan bloknot chiqardi, bir betini yirtib allanimalarni tez-tez yozdi-da, ikki buklab uzatdi. — Xizmat bo'lmasa, shuni olib kirib bersangiz.

Kotiba stolda qalashib yotgan xatlarni va mashinkadan yangi chiqqan qog'ozlarni yig'ishtirib kirib ketdi. Zum o'tmay qaytib chiqib, yigitni ichkariga taklif qildi.

Stolga ko'krak tirab, sahifa o'qib o'tirgan muharrir yigitning salomiga boshini ko'tarmay alik oldi.

— O'tiring.

Yigit eshik oldidagi stulga omonatgina o'tirib, yer ostidan G'ulomjonga qaradi. Oq oralagan sochlariga, peshanasidagi qavat-qavat ajinlarga razm soldi. «Qarib qolibdi» deya xayolidan o'tkazdi u.

Muharrir sahifaga qo'l qo'yib, stulning suyanchig'iga ohista tashlandi.

— Eshitaman... Xizmat?

— Hm... xizmat emas, bir iltimos bilan, — yigit qiya qolgan eshikni zichlab yopdi-da, joyiga kelib o'rnashibroq o'tirdi. — Ustimdan nohaq shikoyat tushibdi.

Muharrir boya sekretar bergan qog'ozchaga ko'z tashladi: «Marat Nuriy».

Esladi: bundan uch-to'rt hafta burun bir yigit «Tomosha» degan xabar tashlab ketgan edi. Aniqlanishicha, o'tgan yoz sochi yelkasiga tushadigan shaharlik bir yigit sahna uchun asar yozib beraman, deb qalam haqini undirib ketgan-u, qorasini ko'rsatmagan. Nihoyat, tashkilot xodimlarining aralashuvi bilan o'sha yozuvchi shu yerda yashab, raqqosalar hayotidan asar yozib bergan.

— Mulla aka, o'qidik, — dedi kuyinib xabar keltirgan yigit, — tomosha emas, bir baloni yozgan. Tushunib bo'lmaydi. Ag'-bag'ini to'g'rilab, epaqaga keltirib ber, desak, ko'nmadi. «Senlar bunaqa tomoshaga yuz yildan keyin tushunasan», deydi-ya.

G'ulomjon aniqlash uchun gazetaning mas'ul kotibi Soyib akani yubordi. Soyib aka voqeani atroflicha o'rganib, «Tomoshada tomosha» degan felyeton yozib kelgandi.

Yigit yuzini burishtirib, parvosizgina tushuntira boshladi.

— Asarni qayta ishlab keluvdim. Masalangni gazetaga berganmiz, deb qabul qilishmadi.

— Demak, hammasi aniq.

— To'g'ri... lekin boshqa gap bor.

— Ya'ni.

— Hi... Siz meni tanimadingiz chog'i?

— Yo'q, juda yaxshi taniyapman, — dedi G'ulomjon sovuqqina.

Marat labini tishlab, o'ylanib qoldi. G'ulomjon uning yiltiroq, sovuq ko'zlariga tikilib, negadir ko'nglini xira qiladigan gap kutdi.

Nihoyat, Marat istehzoli jilmayib, oldinga xiyol engashdi.

— Bola masalasi. — Marat G'ulomjonga sinovchan nazar tashlab davom etdi, — To'lqin... haqida gapiryapman.

— To'lqin?!

— Ha, biz Zaynabxon bilan...

G'ulomjonning qoshlari chimirildi, yuzi bilinar-bilinmas oqardi, qalin lablari, barmoqlari titrab ketdi-yu, o'zini bosdi. Oldidagi qog'ozni beixtiyor g'ijimlab burchakka uloqtirdi.

— Felyetonga buning nima daxli bor?

— Albatta, hech daxli yo'q... Lekin, — Marat G'ulomjonning avzoyini ko'rib, aytmoqchi bo'lgan gaplarini unuta-yozdi. — Felyeton bosilmasa, bu sizning xohishingizga bog'liq... Mening hech da'voyim yo'q.

— Da'vo?! Tushunolmayapman.

— Xabaringiz bo'lsa, Zaynabxon... menga turmushga chiqqan. Xonim bolani qaytarib olish taraddudida. Har holda ona u. Bilaman, To'lqin siz va rafiqangiz uchun aziz. Menga qolsa sizlarda turgani yaxshi, albatta. Lekin...

G'ulomjonning toqati toq bo'ldi.

— Xo'sh, maqsadingiz?

— Shu, yopig'liq qozon yopig'ligicha qolaversa, Zaynabxonni ko'ndirsam, bola sizda qolsa.

— Kechirasiz, gap tamom! — G'ulomjon gapni cho'rt kesib, o'rnidan turdi. Yigit bir narsa demoqchi bo'lib og'iz ochdi. Biroq G'ulomjonni stoldagi qog'ozlarni jahl bilan yig'ishtirayotganini ko'rib, sekin chiqib ketdi.

...G'ulomjon tashqariga chiqdi. Iliq shabada yuz-ko'ziga urilishi bilan yengillashganday his qildi. Ammo boshi hozir bozordan chiqqan kishinikiday g'uvullab ketdi, ko'z oldi qorong'ilashdi. Mushtlari o'z-o'zidan siqilib, yuragining urishi borgan sari qadami bilan moslashib borardi. «Surbet», dedi tishlarini g'ichirlatib.

Quyosh qir etagiga bota boshlagan payt. Ko'cha kam-qatnov, jim. Podadan qaytayotgan qo'ylarning cho'zib-cho'zib ma'rashi, guzarda radiouzeldan berilayotgan allaqanday hazin kuy, asov anhorning yoqimsiz shovullashi quloqqa chalinadi. Huv, ko'cha boshida ikki-uch bola shoxlari atrofga tarvaqaylagan qari tolni kallaklayapti. Kechki choyxo'rlarni kutish taraddudida yarim chekilgan papirosini qulog'iga qistirib olgan pakana, soqoliga bir-ikki oq oralagan samovarchi pochasinini shimarib, supa atrofiga hafsala bilan suv sepyapti.

G'ulomjon anhor bo'yidagi chorpoyaga o'tirib, choy chaqirdi. Bosib ikki-uch piyola ichdi. Birozdan so'ng pochtaxonaga kirdi. Halimadan xat bor ekan. Ko'chaga chiqib konvertni ochdi.

«Salom, G'ulomjon aka!

Kecha maktubingizni oldim. O'qidim. To'g'risi, biroz ko'nglim buzildi. Qani shu topda qush bo'lib uchsam-u, yoninigzda bo'lsam. To'lqinimni, Jamilamni sog'indim. Juda ham.

Bugun atay hech qayerga bormadim. Palatada qoldim. Sizga aytadigan gapim shu qadar ko'pki, qay birini yozishga hayronman.

Bir haftacha bo'ldi. Kechqurun dengiz bo'yida sayr qilib yurib, Zaynabni uchratib qoldim. Ko'rishdik. Anchagina gaplashdik ham. Gap orasida Marat Nuriy degan allaqanday yozuvchiga (o'lay agar tanisam) tekkanini va yonimdagi sanatoriyda dam olayotganini bildim. To'lqinni so'radi. Bu yil o'qishga borganini aytdim. Sumkadan suratini olib ko'rsatdim. U suratga uzoq tikilib, to'satdan ho'ngrab yig'lab yubordi.

— Bolamni qaytarib olsam, nima deysiz? — dedi u ma'yus. — Axir undan bo'lak hech kimim yo'q meni. Axir... men onaman.

Palataga kelib, o'zimni tappa karavotga tashladim. Yig'ladim. To'yib-to'yib yig'ladim. To'g'ri, ona. Lekin hali yoshiga ham to'lmagan bolani shafqatsizlik bilan tashlab ketgan va shuncha yil esga olmagan odam farzandi borligini endi bilibdimi?! Unda onalik tuyg'usi nima qiladi?!

Siz bu xatni olganingizda men allaqachon yo'lda bo'laman. Zaynab ham men bilan birga ketayotir».

G'ulomjon mashina ovozidan cho'chib boshini ko'tardi. Boyatdan beri ko'chaning o'rtasida turganini endi payqadi. Chetga o'tdi. Xatni cho'ntagiga solib, shuursiz odimladi, vujudini qamrab olgan og'ir, ko'ngilsiz bir his bilan uyga keldi.

Oyoq uchida xonaga kirdi. Qizining qo'ynidan qo'g'ir-chog'ini oldi-da, boshini to'g'rilab qo'ydi. O'g'lining tepasida uzoq turib qoldi.

Otalik mehri jo'shib o'pmoqchi bo'ldi, engashdi, ammo shu top yuragini xanjardek tilib o'tgan allaqanday tovush

quloqlarida jonlangandek bo'ldi. «Zaynabxon bolani qaytarib olish taraddudida». G'ulomjon elektr toki tekkandek sapchib o'rnidan turdi. Sochlarini changallab uyning u boshidan bu boshiga yura boshladi. Nahot... Yo'q-yo'q. Buning hammasini kelajakda To'liqinning o'zi hal qiladi. Ha, o'zi hal qiladi. G'ulomjon sekin o'g'lini ko'tarib olib bag'riga bosdi. Yuz-ko'zlaridan o'pdi.

III

Samo asta bo'zardi. Ko'k betiga sochilgan yulduzlar kul bosgan cho'g'dek ko'z yumdi. Tong yeli qanot yozdi. Devor osha cho'zib, xo'roz qichqirib yubordi. Ko'cha boshida aravaning g'ijirlagani eshitildi.

Pochtalyon shoshib qutiga gazeta tashlab o'tdi.

G'ulomjon qutidan gazetani olib, felyetonga ko'z yugurtirib chiqdi-da, xotirjam bo'ldi. Keyin o'g'lini uyg'otgani asta xonaga kirib ketdi.

G'ulomjon To'liqin bilan vokzalga kirib kelganda poyezd uzoq yo'ldan horigandek qattiq bir qichqirdi-yu, taqqa to'xtadi. Perrondagilar duv etib vagonlarga yopirilishdi. Qiy-chuv, bir-birini qutlagan quvonchli ovozlar... G'ulomjon To'liqinni mahkam ushlab, odamlarni yorib o'ta boshladi.

— To'liqin!

— Oyi!!

G'ulomjon hayajon ichida turib qoldi. Ko'zlari beixtiyor atrofga javdiradi. Yuragining allaqayeriga iliqqina tekkan bu mayin tovushdan vujudi shirin titradi. To'liqin uning qo'lidan chiqib, to'g'rida ularga qarab chopib kelayotgan Halimaga otildi. G'ulomjon unga qarab ikki-uch qadam tashladi-yu, Halimaning orqasidagi Zaynabni ko'rib to'xtadi. Uni arang tanidi: ozib ketibdi, qalin surtilgan upa-elik ham yuzidagi qavat-qavat ajinlarni yashira olmapti. Faqat ko'zlari o'zgar-mabdi, xolos. Ilgarigidek yaltiroq, qarashlari sovuq. Zaynab esa Halima bilan To'liqindan ko'z uzmasdi.

To'liqin Halimaning quchog'idan bo'shishi bilan Zaynab titroq qo'llarini unga cho'zdi.

— To'liqin, o'g'lim!

To'liqin ko'zlarini javdiratib, bir G'ulomjonga, bir Halimaga qarab jilmaydi-da, Zaynabga yaqinlashdi.

— Nima deysiz, xola?

— «Xola?!» — pichirladi Zaynab, qo'llari holsiz yoniga tushdi. Rangi quv o'chdi, go'yo ko'zlarining nuri ham so'n-ganday, turib qoldi.

To'liqin bir qo'li bilan Halimani, bir qo'li bilan G'ulom-jonni mahkam ushlab olgan edi. U nimalarnidir to'lib-toshib, erkalanib gapirib borar, yo'l-yo'lakay otasini qo'yib yuborib, Halimani mahkam quchoqlab olardi. U cheksiz baxtiyor edi. Buni Zaynab tushundi. Befoyda, beqaror o'tgan yoshligiga achindi. «Qani endi shularning hammasi tushim bo'lsa», deya ko'zlarini yumdi. Biroq haqiqat ekanligiga ishongan sari o'pkasi to'lib borardi. Perrondagilar siyraklashdi. Ular odamlar orasiga sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'lguncha, Zaynab hushsiz qarab qoldi.

Ota

G'ani Sultonov qurilishdan endi kelib, xonaga kirgandi, eshik «g'iyq» etib ochildi.

— Mumkinmi?

— Marhamat. E, Samsiq ota, keling, sizni ham ko'rar kun bor ekan-a, — Sultonov xursand bo'ldi, tutatmoqchi bo'lib turgan papirosini ham qoldirib o'midan turdi, xonaning o'rtasiga borib chol bilan ko'rishdi. Yetaklab surp qoplangan divanga o'tkazdi-da, joyiga o'tdi.

— Sochingga oq tushmay stolga yopishib qolding, o'zim sudralib ko'rib ketmasam... — Samsiq ota soqolini tutamlab, qattiq botmadimikin, deb yer ostidan razm soldi. Sultonov qip-qizarib, qansharini uqalar, yerdan ko'z uzolmay o'tirardi. — Mayli, omon bo'l. Bilaman, ishing ko'p, ginaga o'rin yo'q. Bolam, oldingga arz bilan keluvdim.

— Qulog'im sizda, otaxon, — Sultonov ko'kragini stolga tirab enkaydi.

— Shu... pensada yurish menga to'g'ri kelmadi, ishlasam.

Sultonov tushunmadi: «Bechora qiynalib qolibdi-da. Hech banda qariganda shu ahvolga tushmasin». Xayoliga kelgan

dastlabki fikr shu bo'ldi. Yuzi jiddiylashdi, cholga achindi. Yuragi uvishdi. Ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lib, og'iz juftladi, biroq iliqroq so'z topolmadi. Beixtiyor ichdan kelgan xo'rsiniqni sezdirmaslik uchun barmog'i bilan stolni ohista chertib qo'ydi. Samsoq ota uning xayolidan kechgan o'yni sezdi, ichida picha og'rindi-yu, sirtiga chiqarmadi.

— Baliq suv-u, odam mehnat bilan ekan. Men senga aytсам, bekorchilikdan bod-bod kasalga chalinib qolyapman. Belimda kuch-quvvatim bo'la turib, yonboshlab yotishim insofdan emas. Biror yumush bersang. Arzim shu.

— Obbo, otam tushmagur-ey, ha, bundoq deng, — Sultonov yengil tortdi. Xayoliga kutilmagan fikr keldi, shu fikr o'ziga juda ma'qul tushib, yuzi yorishdi. — Bo'ldi, sizbop ish bor. Bugundan e'tiboran nazoratchisiz. Har bitgan uyni avval siz ko'rasiz, tekshirasiz. Ma'qul topsangiz, keyin komissiya chaqiramiz. Xullas, trestimizning ko'z-qulog'isiz. — Samsoq otaning o'ylanib qolganini ko'rib, shashti qaytdi. — Xo'sh, yoqmadimi?

— Dabdurustdan shundoq katta yumushni ishonyapsan. Uddalay olmay, yuzingni shuvit qilib qo'ymay. Nazoratchilikni xat-savodli kishiga topshirsang-u, meni Abdumannopning brigadasiga tirkab qo'ya qolsang. Ota kasb — shuvoqchilгим ma'qul.

— Mayli, ota, xohishingiz, men rozi, — dedi Sultonov cholning ra'yini qaytarolmay va oldidagi tugmachani bosdi. Xiyol o'tmay eshik ochildi. Hali yuz-ko'zidan qizlik latofati ketmagan yoshgina ayol kirdi.

— Nodiraxon, Samsoq otamni ishga qaytarib olish haqida buyruq tayyorlasangiz.

Ayol Sultonovga xo'p, dedi-yu, Samsoq otaning ko'ziga ko'zi tushib bilinar-bilinmas qizardi. Yer tagidan cholga o'pkalanib qarab qo'ydi. G'alati bo'lib, sekin chiqib ketdi. Sultonov otaga savol nazari bilan qaradi.

— Kelinim bo'ladi...

— Shundaymi?

— Ha... shu vafot etgan o'g'limning ayoli. Hozir akasi-nikida. Hali kelganimda yo'q ekansan, picha gaplashib o'tirdik.

Niyatimni bilgach: «Otam deganman, besh kuningiz bormi-yo'qmi, ishlamang», deb ko'z yoshi qildi. Muhtojlikdan ishga qaytmoqchi emasligimni tushuntiraman, qani tushunsa. O'zi ham bu yerda vaqtincha chog'i?

— Ha, kotiba kasal, ikki-uch kun ishlab turibdi. Ertadan qurilishga chiqsa kerak.

— Umridan baraka topsin.

Sultonov bir narsaga og'iz juftladi-yu, oqibatini o'ylab qoldi: «Samsoq ota xabardormikin? Xabardor bo'lmasa, qanday bo'larkin. Ko'ngli yarimta odam... Har qancha og'ir, o'ng'aysiz bo'lsa ham hozir aytganim ma'qul».

— Eshitishimga qaraganda, Nodiraxon unashig'liq ekan?

— Xabarim bor, — dedi Samsoq ota xo'rsinib, — bolam-day bo'lib qolgan emasmi, maslahat soldi, kishi qo'yan ham rahmatlining yaqin o'rtog'i, shu o'zimizning Abduman-nop ekan. Uvali-juvali bo'lishsin.

Samsoq ota o'rnidan turdi.

— Men boray, seni ham ishdan qo'ydim.

Sultonov otani eshikkacha kuzatib qo'ydi.

Samsoq ota qabulxonaga chiqqanda Nodira allanechuk bo'lib o'tirardi. Qaragani yuragi dov bermadi, to'liqib kelgan o'pkasini arang bosib «xayr, bo'tam», dedi eshitilar-eshitilmas. Ko'cha tomon ildam yo'nalgan edi, Nodira to'xtatdi. Qog'ozga o'rog'liq allanarsani uzata turib: «Kechqurun birrov oldingizga kirib chiqadigan yumushim bor», — deb tashqarigacha kuzatib qo'ydi.

Samsoq ota ko'chaga chiqdi. O'zini xiyla yengil his qildi. Bitta-bitta odimlab, anhor yoqasiga qarab ketdi. Yaqinlashgan sari qadami o'z-o'zidan sekinlashib borar, ko'ngil ufqini qoplagan bulut jalaga aylangandek, og'ir hislar tug'yoni vujudini shu qadar ezardiki, siniq, titroq tovush bilan beixtiyor «o'g'lim» deb yubordi. O'zini darmonsiz sezib, ko'prikdan beridagi qo'shqayrag'och tagiga cho'kkaladi. O'g'li shu anhorga cho'kayotgan bir qizni qutqarib, nobud bo'lganiga besh yilcha bo'lib qoldi. Anhor o'shanda qanday pishqirib shovullagan bo'lsa, hozir ham shunday, farzand dog'i kabi pasaymaydi, kamaymaydi.

O'sha kuni ota shahar chetidagi qurilishlardan birida edi. Choshgoh payt. Binoning so'nggi qavatini pardozlash qolgan edi. Nodira to'satdan dod solib keldi. Ota hushini yo'qotib qo'ydi, qo'lidan gazcho'p tushib, gandrakladi. Ikki-uch metr narida andava tortayotgan Abdumannop ushlab qolaman deb o'zini otdi. Samsaq ota uning zarbi bilan devorga suyanib omon qoldi. Abdumannop pastga uchib ketdi.

Abdumannop yetti oycha kasalxonada yotdi.

Nodira erining vafotidan uch yil keyin otaning roziligi bilan akasinikiga ko'chib ketdi. Samsaq otaning yolg'iz qolganini ko'rgan Abdumannop qo'yarda-qo'ymay otani uyiga ko'chirib keldi.

Nodira qurilishda g'isht teruvchi bo'lib ishlay boshladi. Ish ko'pligiga qaramay, boyaqish kun ora otaning kir-chiridan xabar olib turdi. Ota ham qattiq o'rganib qolgan ekanmi, kun ohsa ko'zi to'rt bo'lib eshikka qarardi. Bir kuni qurilish oldidan o'ta turib, Nodira bilan Abdumannopning gaplashib turganini ko'rib qolib ham quvondi, ham qattiq botdi. Keyin yuzini sidirib tashlab bo'lsa ham o'zi Abdumannopga og'iz ochdi. Abdumannop qizarib, yer chizdi. «O'zingiz bilasiz, ota» dedi sekin. Ko'ngliga yaqin bo'lgan bu ikki yoshning boshini qovushtirish ezgu bir niyatga aylandi-yu, yuragidagi dog'ini ham yengganday bo'ldi. Biroq bugungi ahvol... Ota bo'sh ko'ngilliligidan o'zini koyidi. Dardini yengillashtirish uchun begunoh Nodirani oqlardi: «Shu sho'ring qurg'ur ham, erim o'lsin, o'rtog'iga chiqay degan umidda kelin bo'lgani yo'q-ku, axir». Otaning: «Yoshsan, uy-joy qil, yarimta ko'ngil bilan yashab bo'lmaydi», deb qilgan pand-nasihati bilan shu ish bo'ldi. O'shanda Nodira: «Otam deganman, biz bilan tursangiz roziman» dedi. Samsaq ota mehri jo'shib, Nodirani bag'riga bosdi, duv oqqan ko'z yoshlaridan istihola qilmay: «Bolam o'rniga bolamsan, Abdumannop ham o'g'lim qatori», dedi.

Samsaq ota keliniga uy-joy qil, deb nasihat qilganda ham, hatto o'rtada turib non ushatganda ham Nodira bilan Abdumannopni birga ko'rgandek og'ir, juda og'ir botishini his qilmagan edi. Hozir shu topda har ikkovini bir dam ko'z oldiga keltirdi-yu, vujudi zirqiradi.

— Birovning ko'nglidagi quvonchni ko'z yoshi bilan azaga aylantiraverish insof-diyonatdan emas, — dedi yana o'zini koyib. — Yosh savil ham duv etib kelaverar ekan, qarilik deb shuni aytadilar-da.

Dard asov daryoga o'xshaydi, yengsa quritadi, yengilsa beozor, yuvosh jilg'aga aylanadi. Hozir Samsiq otaning qalbidagi og'ir iztirob to'lqinlari mushohada va irodasi oldida tobora yengilib borar, hali o'ziga ma'lum bo'lmagan hayajonlar, o'zganing baxtidan kishida sodir bo'ladigan mamnunlik histug'usi bilan ko'ngli to'lib, ildam o'rnidan turdi. Nodirani «oldingizga kiraman» deganini eslab, yo'lga tushdi-yu, qadam olishi ham yengillashganday bo'ldi. Boyagi ko'z yoshlari o'ziga juda erish tuyuldi. Beixtiyor cho'ntagiga qo'l soldi. Boya Nodira bergan narsani olib ochdi. Do'ppi. Xuddi shunaqa do'ppini kechamikin, Abdumannopning boshida ko'ruvdi. Ikki nusxa ekan-da... Otaning ko'ngli bo'shashdi. Namiqqan ko'zlarini artdi.

— Ota!

Samsiq ota beixtiyor to'xtab qoldi. Yuragi hapqirdi. Gandirakladi. O'g'li armiyadan qaytganda uzoqdan ovozini eshitib, shu ahvolga tushgandi. O'zini bosib, orqasiga qaradi: ko'cha boshida tez-tez odim otib, unga qarab kelayotgan Nodira bilan Abdumannopga ko'zi tushdi. Shu payt yonidan mashinada Sul-tonov o'tdi, otani ko'rib mashinani sekinlatdi-yu, biroq to'xtatishni ep ko'rmadi. Mashina orqasidan quvgan chang cholning yon-verida yelib, buralab tarqaldi.

Uchrashuv

Kun peshindan oqqan, issiq, dim. Qilt etgan shabada yo'q. Avtobusning ochiq oynasidan chang aralash iliq havo urilib, ko'ngilni behuzur qiladi. Ufqqa tutash dalalar, yo'l yoqalaridagi novcha teraklar saraton nafasiga tob berolmay shalpaygan, so'lg'in. Shahardan chiqibmiz, ro'parada o'tirgan Shoqosim ota tashqaridan ko'z olmaydi; jim, qovjiragan paykallar uchrasa, bosh chayqab achinadi: «Attang, suvdan qopti...» Qolgan yo'lovchilar ham shu tarz o'z o'yi, o'z xayoli bilan band. Faqat shoferning orqasida boshini eski

qiyiq bilan tang'igan chol bamaylixotir pinakka ketdi. Xayolim yonimda xomush borayotgan ayolda. Uniki ham menda. Aminman. Xayol... xazon bo'lgan yoshligim, aldangan ilk tuyg'ularimni eslatdi... Ilk tuyg'ular... Kimga tanish emas, qaysi qalbg'a mo'ralamagan. Qaysi ko'ngilni jilg'adek to'lqinlatmagan. Hamma yoshligida shoir bo'lgan, deyishadi. Bo'lsa bo'lgandir. Shirin xayollar og'ushida tongotar ishqiy g'azallar bitmagan kim bor. Yillar yuzga ajin, sochga oq tashlaganda ham bahor ko'kidek toza, buloqdek jo'shqin, quyosh nuridek iliq — dastlabki sof tuyg'ularni eslab ko'ngil yorishadi, qalb shirin talpinadi. Ko'z ravshanlashadi. Bolaligi tutadi kishining. Ammo...

— Ha, nima bo'ldi?

— A... shunday o'zim.

Og'ir xo'rsinibman shekilli. Shoqosim ota ajablanib, menga qarab oldi. Ayol qo'llari bilan sekin ko'zlarini yashirdi. Mayli, yashirsin. Bu ko'zlar... Naqadar aziz edi. O'rta maktabni tamomlagandan keyin onasining ra'yiga qarab uyda qoldi u. Men shoferlik kursiga kirdim. Totli hislar bilan o'tgan beozor, xushnud kunlar... Shu yashirib borayotgan ko'zlaridan birinchi bor o'pganim... esimda. O'shanda boshini ko'ksimga qo'yib, «Rustamjon» deb pichirlagani hali-hali qulog'imdan ketmaydi.

Hayajon bilan tutila-tutila «Yulduz... Yulduzim» deya, sochlaridan silab, erkalaganim va o'sha kuni quvonchdan uyda o'tirolmay, tun bo'yi shahar kezmanim... bari-bari yodimda. O'qishni bitirdim.

Yulduz qo'yarda-qo'ymay Mirvali ismli bir yigit bilan tanishtirdi. Bilsam, qarindoshi ekan, taqachilik artelining raisi ekan. Ularga uncha-muncha qarashib ham turarkan.

Ko'zlari chaqchaygan, qanshari past, dimog'dor, pakana, xomsemiz bu yigit bir ko'rishdayoq menga yoqmad. Yulduz xafa bo'lmasin, deb indamadim. Hujjatlarimni rasmiylashtirdim. Artelda ishlay boshladim.

Yulduz onasi bilan artelga tez-tez kelib turardi. Keyinroq yolg'iz keladigan bo'ldi. Kelganda ham negadir Mirvalining oldida o'tirar, ko'zimni shamg'alat qilib chiqib ketardi. Dastlab bunga ahamiyat bermay yurdim. Ba'zan muomalalari samimiy-

masdek, qarashlari sovuq tuyulardi. Shunday kezlar ko'nglim g'ashlanar, ammo bu yerga meni deb keladi-ku, deya o'zimni yupatardim, ko'nglim biroz taskin topardi... Shu orada bir hafta kelmay ketdi u.

Bir kuni chidolmay uyiga bordim. Baxtinga o'zi eshik ochdi. Meni ko'rib, g'alati bo'lib ketdi.

— Rustamjon... o'tinaman... endi kelmang, — dedi u yerga qarab, — oyingizni ham yuborib, ovora bo'lmang... meni... unashtirishdi...

— A?!

— Kechiring... Oyim og'ir yotganlariga ra'yларini qaytara olmadim...

Yugurib kirib ketdi u.

— Yulduz?! — eshikka hushsiz suyanib qoldim.

...To'y bo'ldi. O'sha kuni ichib keldim uyga. Umrimde birinchi bor ichishim. Onam bechora ham meni shu alfozda birinchi bor ko'rishi edi. Besh-olti kun ishga bormay, sang'ib yurdim. Artelni ko'rgani ko'zim yo'q edi. Ko'nglim egasiz hovlidek g'arib, shu qadar huvullab qolgan ediki, onamning nolayi zori ham ta'sir qilmasdi. Yulduz bilan Mirvalini ko'chako'yda birga ko'rib qolguday bo'lsam, yana ichardim. Ichkilik yo'ldoshim bo'lib qoldi. O'zimga o'xshash bir-ikki bekorchi tanish-bilish orttirdim; besh-o'n so'm qarzdor ham bo'lib qoldim. Buning evaziga ular bilan ikki-uch kun kino bileti olib-sotishdim, bir to'p chit berishdi, qishloqqa borib pullab keldim.

Shundan keyin kechqurunlari tez-tez «ovga» olib chiqadigan bo'lishdi. Bir kuni jimjit tor ko'chadan xayol surib kelayotgan yoshgina bir qizning yo'lini to'sdim. Soatini yechdim. Qiz dod soldi. Qo'limdagi pichoqning uchini mahkam ushlab oldi. Pichoqni burab yuborgan edim, kafti qop-qora qon bo'ldi. Allakim «ushla» deb qichqirdi. «Churr» etgan hushtak ovozi eshitildi. Sheriklarim qochdi. Ko'chaning ikki boshini odam o'radi. Qo'lga tushdim.

...Jazolandim.

Yillar o'tdi.

Chiqsam, bechora onam mening g'amim bilan dunyodan

o'tibdi. Chiday olmay, o'sha kuni tuni bilan onamning mozorini quchoqlab yig'ladim, o'zimni la'natladim, tong bo'zarganda xiyla o'zimga kelib, gandraklab o'mimdan turdim. Soch-soqol oldirgani bozorga qarab ketdim. Bozor og'zida no'xatsho'rak sotib o'tirgan kishining basharasi tanishdek tuyuldi. Sinchiklab qaradim. Mirvali!.. Sal narida orqasi o'girig'liq, cho'qqayib taqsimcha yuvayotgan ayolni ko'rdim-u, yuragim orqamga tortib ketdi.

Yulduz!

U bexosdan orqasiga o'girildi, ko'zlarini katta ochib, bir lahza menga qarab qoldi, keyin yuzini sekin chetga burdi. Nahot... hali ham sevsam?.. Yo'q-yo'q. Xazon bo'lgan yoshligim, aldangan muhabbatim... Tomog'imga bir nima tiqildi. Burilib keta boshladim. Orqamdan: «Chiqibdi-da, hm... — deb Mirvali xotiniga ping'illadi. — Qamalganini bilsa, kim ishga oladi!»

Qay idora eshigini ushlaymay, Mirvalining so'zi esimga tushib, ichkari kirgani yuragim betlamay qaytardim.

Bir kuni tavakkal qilib allaqaysi bir idoraga kirganimda kadrlar bo'limi boshlig'i hujjatimga qarab, o'ylanib qolganini ko'rdim-u, Mirvalining gapi yana esimga tushdi, xo'rligim kelib, yugura chiqib ketdim. Ayol orqamdan chiqdi, chaqirdi. Qaramadim.

... Ishonch!.. Ishonchsiz kishi tirik murda! Ha. Endi his qilyapman buni. Shu topda bir daqiqali ishonchga sazovor bo'lish uchun umrimni, jonimni, jahonimni berishga tayyor edim!

Ko'zim tinib, uchib ketayotgan tramvayga chiqdim. Pattachi olayib qo'ydi. Qattiq ochiqqan ekanman, lohas tortib eshikka suyandim. Yonimda bir mo'ysafid cho'ntagidan pul chiqardi, orasidan olib pattachiga uzatdi, qolganini ehtiyotlik bilan yana yoniga soldi. G'ayritabiyy bir kuch bilan cholning cho'ntagiga qo'l soldim. Pulni changallashim bilan kimdir bilagimdan ushladi. Qotib qoldim. Cholning g'azab va nafrat to'la ko'zlariga tob berolmay yerga qaradim. Tramvay to'xtashi bilan u meni siltab, pastga olib tushdi. Negadir, hozir militsiya chaqiradi, degan xayol miyamdan nari ketmadi. Yo'q, qo'limni qo'yib yubordi.

Boshdan oyoq razm solib, ishxonamni so'radi, ish qidirib bekor yurganimni eshitib, qoshlarini chimirdi, ajablandi. Sababini aytdim.

— Bu o'ying chakki. Diling pok bo'lsa bas, o'g'lim... — dedi u yumshab, so'ng allanimani mulohaza qilib, yonidan bir parcha qog'oz oldi-da, nimadir yozdi, ozroq pul bilan qo'linga tutdi. Bergan manzilga erta bilan yo'liqishimni tayinlab, katta ko'chadan burilib ketdi. Ketdi... Yaxshilik, odamgar-chilik o'rniga bir tarsaki tortsa, balki yengil tortarmidim!

... Ertasiga tong otishi bilan o'sha manzilni topib bordim. Eshikdan kirishim bilan chol o'rnidan turib qarshiladi, chorpoyaga boshladi. Gaplashib o'tirdik. Gap yana aylanib kechagi voqeaga taqaladimi deb o'ylab, yuragim g'ashlanardi. Yo'q, bir og'iz so'ramadi. Gapidan bildimki, ora-chora shahardagi qarindoshlarinikiga kelib turarkan, qizi bilan kuyovi yo'l qurilishida ishlarkan. Hozir qizining oldiga jo'nash taraddudida ekan.

— Bo'tam, naq joylarki, bahri diling ochiladi. Ha. Baraka topkur quruvchilarning bari o'z shogirdim, hurmat qiladi, gapimni yerga tashlamaydi. Aka-ukaday bo'lib ishlab ketasan, imonim komil, ha. — Chorpoyaga suyog'liq velosipedga ko'zi tushib, soqolini tutamlab jilmaydi, — nevaram xo'p suyunadigan bo'ldi-da, mulla Rustam, qani, turaylik. Yo'l xiyla olis, borib, ag'-bag'ni ko'r, picha dam ol.

Velosipedni ko'tarib oldim. Avtobusga chiqdik. Mana, yo'lovchilar orasida ittifoqo Yulduzni ko'rib, o'tmishning achchiq xotiralari qota boshlagan yaramni shilib o'tdi.

Avtobus hamon o'nqir-cho'nqir yerda silkinib boryapti. Yulduz ohista boshini ko'tardi.

— Ishga joylashdingizmi... Rustamjon?

Qayoqqa ketayotganimni aytdim.

— Baxtlisiz, — dedi sekin ro'molining uchini o'ynab.

— Sen... Siz ham. — Bu gapni nega aytdim, o'zim ham bilmayman, ehtimol shunchaki bir nima deyish uchun bo'lsa kerak.

— Yo'q... Men o'ylagan baxt... badbaxtlik bo'lib chiqdi. Baxtini har kim o'z qo'li bilan yaratishi kerak ekan.

— Yulduz...

— Rustamjon. Meniki sizning qilmishingizdan og‘irroq. Nomiga no‘xatsho‘rag-u, aslida odamlarni aldab, pulini olish... O‘tinaman, Rustamjon, o‘sha beozor yoshlikdagi do‘stligimiz hurmati, joylashsangiz, xabar qiling, balki men ham o‘sha yerlarda baxtimni toparman.

Nima deyishimni bilmay qoldim. Nirna ham deyay? Oraga jimlik cho‘kdi. Ota ko‘zlarini tashqaridan uzib, g‘amgin chehramga razm soldi.

— Toliqdingmi? Yetib qoldik, bolam.

Hademay mashinadan tushdik. O‘zimni xiyla yengil his qildim; go‘yo butun azoblar avtobus bilan o‘tib ketgandek. Yo‘l yoqasidagi choyxonada nonushta qilib chiqqanimizda kun tikkaga kelgandi. Tuya o‘rkachidek past-balandlikdan o‘tib, kapalar tikilgan sayxonga chiqdik. Yiroqdan kishilarning shov-shuvi, traktorning uzluksiz tirillashi quloqqa chalindi. Shu yaqin ora qattiq portladi.

— Tog‘ga yetishibdi azamatlar, — chol soqolini tutamlab mamnun iljaydi, o‘siq qoshlari ostidagi ko‘zlari chaqnab ketdi. Hoyajonini bosolmay, tirsagimdan tutib tushuntira boshladi:

— Tog‘ orasidan sal kam besh chaqirimli yo‘l tushyapti. Buni qara, ajriq, yantoq bosgan shu joydan kattakon yo‘l o‘tadi. Hademay ikki betida sadaqayrag‘ochlar shovullab turadi. Yo‘l solish azaldan ezgu, savob ish, chirog‘im. Qani, pastga tushaylik-chi.

Uch-to‘rt tepalikni aylanib, pastga — yangi yo‘lga tushdik. Tog‘ga tutashgan keng maydon. Bir necha ekskavator haybatli xartumini cho‘zib, qo‘qonaravadek kovshi bilan shag‘al aralash tuproqni ikki yonga to‘kib boryapti. Olisda, tog‘ etagida samosvallar chumolidek o‘rmaydi. Cho‘qqida kimdir bayroq silkitdi. Tog‘ga yaqin yer portladi. Katta xarsang siljib, shoxobcha yo‘ldan kelayotgan mashinalarni to‘sib qoldi, buldozerlardan biri dadil chetga surib tashladi. Boshini qiyiq bilan bog‘lab olgan pakana, chuvak yuzli, o‘rta yashar kishi shoshib yonimizga keldi. Zang urdi. G‘ala-g‘ovur, motor ovozlari birin-ketin tinib, ishchilar sayxonga o‘ta boshlashdi. Tepalik orqasidan chiqib kelgan yuk mashinasi ro‘paramizda to‘xtadi. Kabinadan kombinezonli, boshini qizil durra bilan tang‘igan,

o'rta bo'yli, nozik ayol bilan oq jujun kitelli, poxol shlapali, dumaloq yigit chiqdi. Ayol hamrohiga kapa tomonni ko'rsatib, bir nima dedi, qo'lidagi papkani berdi — yigit o'tib ketdi. O'zi Shoqosim otaning oldiga yugurib keldi. Ko'rishdi. Ko'zi velosipedga tushib, kulib yubordi:

— Bolaning gapiga kirib shundan shunga... qiziqsiz-a, dada. Men aytay, mashinada uyga tashlab kelisha qolsin.

Shoqosim ota ayolni «qizim, oti Saida, shu yerda bo'lim boshlig'i» deb tanitdi. Uchovimiz sayxonga o'tdik. Kapalardan biriga kirib ovqatlandik. Ovqatdan keyin Shoqosim ota «Nevaramning oldida bir kecha yotib, ertamatdan qishloqqa jo'nayman, — dedi va meni, — biror ishga joylashtirib qo'y», — deb qiziga tayinladi. Bo'sh-bo'shingda qishloqqa borib tur, bo'tam, deb xo'shlashdi.

Saida otasini kuzatgani chiqib, jingalak soch, ko'zlari katta-katta, uzun bo'yli yigit bilan boshlashib kirdi. Yigit o'zini «Asqarjon» deb tanitdi, yer ostidan sekin Saidaga qarab qo'ydi. Qiz bilinar-bilinmas jilmaygan edi, Asqar uzun, beo'xshov qo'llarini qayerga yashirishni bilmay, yosh boladay quloqlarigacha qizarib ketdi. Saida jiddiy, bosiq tovush bilan, «Asqarjon yaxshi buldozerchi, besh-o'n kun birga ishlab turing», deb chiqib ketdi.

Karavotning chetiga omonatgina o'tirdim. Asqar ancha dilkash yigit ekan. Talay narsalarni gapirib berdi.

Saida bilan turmush qurishganiga qariyb yetti yil bo'libdi. Uy biroz olislik qilganiga, bir haftadan beri shu yerda, palatada turgan ekan.

Qarasam, ko'zi yumilib ketyapti. Xoli qo'yib, tashqari chiqdim.

Kun qaytgan. Tepaliklar orqasidan shovqin-suron, motor ovozlari, ahyon-ahyonda dahshatli gumburlash eshitiladi. Bir chetga borib o'tirdim. Ruhim tetik. Yuragim allaqanday iliq hislarga to'la. Qanday yaxshi! O'ylagan sarim hayajonlanaman. Xursandligimdan shu topda negadir ovozimni barala qo'yib, qo'shiq aytgim keldi.

Ko'p o'tmay buldozerni mustaqil boshqardim. O'sha kuni quvonchimni yashirolmay, Shoqosim otaning oldiga bordim.

Bitmas-tuganmas minnatdorchilik izhor qilmoqchi bo'lib, yo'l-yo'lakay iliq, issiq so'zlar qidirdim, biroq sofdil, nuroniy, mehribon cholni ko'rganimda o'zimni tutolmay, quchoqlab oldim. Baribir hech bir so'z, hech bir shirin gap shu topda yuragimdagi his-tuyg'uni, minnatdorchiligimni to'la-to'kis ifodalay olmasdi. Farzand qalbini otadan yaxshiroq kim tushunadi! Mo'ysafid tomirlari bo'rtgan qadoq qo'llari bilan boshimdan silab, peshanamdan o'pdi. Ota-bola o'rtasida bo'ladigan totuvlik, iliqlik bilan gaplashib o'tirib, tongotar qildik.

Oradan bir oy o'tdi. Choshgoh payt edi. Kapaga kirib ketayotsam orqadan ot dupuri eshitildi. Xiyol o'tmay tepalikda Saida ko'rindi. Sochlari to'zg'igan, rangi o'chgan, ko'zlari atrofga vahimali boqadi. Otdan tusha tepalikka yugurdi. Qoqilib, yana chopdi. Ajablanib, to'g'rirog'i, yuragim g'ashlanib ketidan bordim. Saida hadeganda tili gapga kelmay, qo'li bilan oq kitelli kishiga tog' etagini ko'rsatdi.

— Odam!

— A? — oq kitelli kishi shoshib soatiga qaradi, — yana... Birozdan... keyin... To'xtat!!!

Birpasda shov-shuv ko'tarildi. Hamma qo'rquv, vahima bilan tog' etagiga tikildi. Uch-to'rt shofer mashinani to'xtatib, tog'ga yugurdi. Sinchiklab qaradim. Juda uzoqda allanarsa qorayib ko'rinardi. G'ayritabiiy kuch va chaqqonlik bilan tepadan oshib, Saidaning otiga mindim. Qamchi bosdim. Tog'ga yaqinlashganimda boyagi qora narsa aniqroq ko'rindi. Yoshgina bola, velosiped minib kelyapti. Kuchimni yig'ib, «Orqangga qayt» deb baqirmoqchi edim, hayajondanmi, qo'rquvdanmi, bilmadim, ovozim chiqmadi. Faqat otda uchib kela turib, unga tashlandim, bola tagimda qoldi. Qattiq zilzila, portlash, allanarsa boshimga urildi...

O'zingma kelsam kasalxonada yotibman. Chap qo'lim go'yo uzib tashlanganday jonsiz, qimirlatolmayman. Boshimni ko'tarishga urindim, bo'lmadi, birov ataylab gardanimga og'ir tosh osib qo'yganga o'xshaydi.

...Shoqosim ota boshimni bosib o'tiribdi. Ko'zim tindi.

— Xayriyat, holam, o'zingga keldingmi? Hammamizning o'takamizni yorib yubording.

Otaning ovozini eshitib, g'alati bo'lib ketdim. Qo'llarini olib, sekin ko'ksimga bosdim: aziz qo'llar... mehribon onamni eslatdi. Shu topda o'pkam to'ldi. Ota sezdimi, orom olsin, degan bahona bilan palatadagilarni olib chiqib ketdi.

Keyin bilsam, men qutqarib qolgan bola Shoqosim otaning nabirasi ekan.

Asqar bilan Saida ertasiga ko'rgani kelishdi, anchagacha gaplashib o'tirishdi.

O'sha kuni Saida uyiga kelsa, o'g'li velosiped minib, dadasining oldiga ketgan ekan. Xavotir olib qurilishga chopibdi. Kelsa yo'q... Bola-da. Ming aytgan bilan bo'lmas ekan. To'g'ri yo'l qolib, tog' etagidagi so'qmoqdan aylanib o'tmoqchi bo'libdi...

Tog' ortidan to'lin oy ko'tarildi. Allakim derazaning tagidan xirgoyi qilib o'tdi.

Saida karavotning chetiga o'tirib, peshanamga kaftini qo'ydi, — issig'ingiz bor-a, Rustamjon?

To'lqinlanib ketdim. Ko'zimga yosh keldi: qanday mehribon kishilar! To'lib turgan o'pkamni bosish uchun gapni boshqa yoqqa burdim:

— Qo'lingizga nima qilgan?

Saida tushunmadi. Keyin g'adir-budur chandiq kaftiga qarab, yengil xo'rsindi.

— Bir bezori o'qishdan kelayotganimda soatimni yechib olayotib, kaftimda pichog'ini burab yuborgan...

— A, nima? Qachon? Qancha... bo'lgan shunga?

— Yetti yil... o'shanda...

Nafasim tiqildi. O'rnimdan turib ketdim: «Gapirmang, bas!» Telbalarcha qichqirib yubordim. Asqar bilan Saida menga hushsiz qarab qolishdi. Ko'z oldim qorong'ilashdi. Gandirakladim. Bor bo'yim bilan gursillab yiqildim. Labimga sho'rtang bir narsa tomdi. Ko'zimni ochdim: Saida yonimda o'tiribdi. Asqar derazaga xomush suyangan. O'zimni tutolmadim. O'kirib yubordim:

— Singlim... kechir, men.

— Qo'ying, — Saida kafti bilan ko'zini artди, — Rustamjon, aytganday, sizga shogird beradigan bo'ldik. O'zingiz ham

tanirkansiz. Shaharlik ayol. Ikki-uch sizni so‘rab keluvdi. Ismi... Yulduz shekilli. Shu yerda ishlash niyati bor ekan, nima deysiz?

Shu kuni nima bo‘ldi, nima qo‘ydi, bilmayman, alahladim ham shekilli, tongga yaqin ko‘z ochganimda yonimda Asqar o‘tirardi, aftidan kechasi qaytib kelganga o‘xshaydi.

Asqar oynani ochib yubordi. Xo‘roz qichqirdi. Shu yaqinda traktor tirillab o‘chdi. Tong bo‘zarib, atrof g‘ira-shira yorishdi. Yo‘lakdan allakimning vazmin qadam bosishi eshitildi. Tanidim: Shoqosim ota...

Qo‘shnilar

Sotiboldi gazeta o‘qib yotib, pinakka ketdi. Yonidan sharpa o‘tganday bo‘ldi, keyin allanarsa tiqillay boshladi. Ko‘zlarini ishqab ochdi. Ovoz barala eshitildi: oshxonada.

Sotiboldi o‘rnidan turdi. Derazaga nimadir ustma-ust chirsillab urildi. Tashqarida yomg‘ir aralash shamol. Ro‘paradagi uyda chiroq yondi. Darparda ortida tebrangan ko‘lanka to‘xtadi. Ona engashib, belanchakdan bolani oldi.

Sotiboldi shippagini sudrab oshxonaga kirdi. Xotini xamir qorayotgan ekan.

— Nima qilyapsan?!

— Voy-ey, tuf, tuf, tuf. Vahimangiz bor bo‘lsin, yo‘tal-sangiz bo‘lmaydimi, na turdiz!?

— Kechasi bu nimasi?

Xotini kuldi.

— Chuchvara yegim keldi.

— Hazilingni qo‘y, ertaga kun yo‘qmi!

Erining avzoyidan xotini gapning rostiga ko‘cha qoldi.

— Qobil buvaga.

— A?!

— Qobil buva chuchvarani yaxshi ko‘radi. Hali o‘qlog‘i so‘rab chiquvdi. Ovqatdan bir kosa bera qolay degan edim, o‘ylab qoldim. Qari odam, chuchvara yegisi keldimi. Boyadan beri chirog‘i yoniq, tiq-tiq qiladi. Achinib ketdim boyaqishga...

Sotiboldi qoshlarini chimirib, yuzini burishtirdi.

— Qobil buva ikki tug‘ib bir qolganingmi? Qara, Adhamning usti ochilib qopti!

— Muncha dag`dag`a, to`rtta chuchvara odamdan aziz bo`lmay o`lsin! Uning yoshida...

Sotiboldi oynasidan tushgan shu`la yo`lakni xiragina yoritib turgan uyga loqayd qarab qo`ydi. Yuragi g`ashlandi.

Yaqin bir oy bo`ldi, Sotiboldining yonidagi bir xona uyga Qobil buva degan mo`ysafid ko`chib keldi. Bolalar deraza oldida shovqin solib o`ynaydimi, bitta-yarimta yosh daraxtga tegadimi, hassa bilan quvadi, qo`lga tushsa, qulog`idan cho`zadi. Hovli yuzida nima ko`rinsa, erinmay bittalab teradi. Sotiboldiga cholning tundligi yoqmasdi. Bola bo`lgandan keyin baqiradi-chaqiradi, to`polon qiladi. Ammo pokizaligi ko`ngliga birmuncha xush kelardi.

Kun ilib, tafti yerga o`tishi bilan Qobil buva erta-yu kech hovlida qolib ketadi: qo`lidan tesha, ketmon tushmaydi, daraxtlarning tagini yumshatadi, ariq ochadi. Sotiboldi balkonning oldini tekislab, o`g`liga arg`imchoq solib bergan edi. Ishdan kelsa, chol shu joyni chopib, marza olib qo`yibdi. Sotiboldining ensasi qotdi: birovning joyi bilan nima ishi bor, gulxona qilib ber deb so`radimi! Qiziq, o`g`li ayyuhannos solish o`rniga, cholning yonida, marzaning kesagini maydalab o`tiribdi. U cholni koyimoqchi bo`ldi-yu, bu totuvlikni ko`rib indamadi.

Chol ertasiga allaqayerdan har xil gul ko`chat keltirib ekdi. Kechqurun «bot-bot suv quyib turing, kelin» deb, Sotiboldining xotiniga tayinladi. Sotiboldi ikkita gap bilan cholni uzib olmoqchi edi, xotini oraga tushdi, shashti qaytdi.

Qobil buva kamgap keksalar toifasidan edi. Uning yakka-yolg`iz o`g`li urushda halok bo`lgan, kampiri qazo qilib, beva edi. Bularni Sotiboldiga xotini aytdi. Shundan keyin Sotiboldining ko`ngli yumshaganday bo`ldi. Hozir xotini «uning yoshida...» deganda Sotiboldining xayoliga shu keldi. Indamay borib, ko`rpachaga cho`zildi.

Hayal o`tmay xotini chelak ko`tarib yo`lakdan o`tdi.

— Ha?

— Suv qumtosh bo`pti. Ko`chadan yarim chelakkina olib kela qolay.

Sotiboldi «Menga desa, Hirotdan olib kelmaysanmi!» demoqchi edi, biroq oy-kuni yaqin xotiniga suv ko'tartirgani andisha qildi, oriyati qo'ymadi. Chelakni olib, ko'chaga chiqdi. Birpasdan keyin chuchvara tugayotgan xotinining oldiga paqirni taq etib qo'yib, kirib ketdi. Xotini orqasidan o'pkalandi.

— Bechoraning oldiga chiqib, gaplashib o'tirsangiz nima qipti? Hademay ovqat pishadi. Boyatdan beri tiqir-tiqir qiladi. Hech bandani qariganda juftidan qo'ymasinakan.

Sotiboldi yotishini ham, yotmasligini ham bilolmay, uy o'rtasida uzoq turib qoldi. Nimadir polga tushib, taraqlab ketdi. Sotiboldi beixtiyor quloq soldi. Chol bo'g'ilib yo'taldi. Xayo'liga «yog' yonib ketdi» degan noxush o'y keldi, hatto dimog'iga kuyindi hidi urilganday ham bo'ldi. Yo'lakka ikki-uch chiqib keldi. Oshxonaga o'tdi. Zarda bilan qozonga suv quyib, o't yoqdi. Xotini yer tagidan eriga jilmayib qo'ydi. Unga juda xush keladigan biron gap aytgisi keldi.

Er-xotin bir lagan chuchvara ko'tarib, oldinma-ketin kirib kelishganda Qobil buva orqa o'girib, kursida nimanidir tikib o'tirgan edi. Chol piyolaning tagida qolgan choyni ho'plab, choynak ustidan sochiqni oldi. Endi piyolaga choy quyimoqchi edi, Sotiboldiga ko'zi tushib o'rnidan turdi.

— Mulla Sotiboldi?! E, keling, keling.

Er-xotin cholning allanarsa yamab o'tirgani ustiga kirib kelishganidan noqulay ahvolda qolishgan edi. Qobil buva buni sezdimi, soqolini tutamlab jilmaydi.

— Bola-da, Adhamboy hali mulla Sotiboldining soyabonini ochaman deb yirtib qo'ygan ekan. Havo aynib turibdi. Ertalab ishga borsalar, ivib ketmasinlar, deb tikib o'tirgan edim. Qarichilik, hadeganda uyqu kelavermaydi.

Qobil buva soyabonni chekkaga qo'yib, ko'rpacha soldi. Quloqlarigacha qizarib, Sotiboldi xotiniga qaradi, xotini sezdi, ammo o'zini sezmaganga olib, laganni eriga tutqazdi-da, dasturxon yozdi.

Ovqatdan keyin Qobil buva damlab kelgan choy ustida suhbat boshlandi. Aftidan, qo'shnilar hali-beri turadiganga o'xshamasdi.

Vafo

Kun tikkada. Havo jimirlaydi: ko'z tinadi. Cho'lga kamar bo'lib yotgan katta yo'l yoqalab bir qiz shoshib kelardi. Qiz tuflisini yechib, qo'ltig'iga qistirib olgan, damba-dam boshidagi poxol shlapasi bilan ko'ksini yelpiydi va javdirab orqasiga qaraydi: yo'l bo'sh, hech narsa ko'rinmaydi. Qiz qadamini tezlatadi, jadallaydi, ammo... qadami orqaga qarab ketayotganga o'xshaydi. Shoxobcha yo'ldan eshak mingan yo'lovchi chiqib keldi. Yo'l yoqasida picha to'xtab, cho'l shamolidek yelib borayotgan qizning ketidan qarab qoldi. Bu qiz kim, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan pallada qayoqqa shoshyapti? Yo'lovchi ajablanib, ag'darma etigining nag'ali bilan eshakni niqtay-niqtay yo'l kesib pastga tushib ketdi.

Bu qiz, yaqinda bir yil bo'ldi, keksa onasi bilan cho'lga ko'chib kelgan. Kasbi doktorlik. Qiz shaharda o'qib yurgan kezlar bir yigitga ko'ngil qo'ygan, yigit ham qizga ishq-muhabbat izhor qilgan bo'lib, har ikkovi anchadan beri ko'rishmagan edi: qiz cho'lda, yigit olis bir tog'da geologlar bilan qidiruv ishi olib borardi. Kuni kecha qiz to'satdan undan telegramma oldi: yigit zarur bir ish bilan shaharga borayotganini, poyezd cho'lda yarim soat to'xtashini aytib, qizdan stansiyaga chiqib turishni so'ragandi. Qiz barvaqt yo'lga chiqdi. Aksiga mashina uchratolmay, mana endi saratonning olov selida stansiyaga yayov ketyapti. Yo'l yarimlab qolgan. Qiz boyagidek olazarak bo'lib orqaga qarayvermas, manzilga vaqtida yetib borishga ishonardi. U shirin xayollarga berilib, ko'ngliga juda xush kelgan totli tuyg'udan entikkancha yurib emas, uchib borardi.

Olisda chang ko'tarildi. Guvullagan tovush eshitildi. Ko'p o'tmay past-balandliklarda qalqib mashina ko'rindi. Qiz stansiya tomonga burilarmikan, degan umidda yo'l yoqasida kutdi. Mashina yo'lga chiqqanda shitob bilan qayrildi-yu, yuz-yuz ellik qadam yurib to'xtadi. Kabinadan boshini qiyiq bilan tang'igan, oq yaktakli, uvoqqina chol tushdi va hassasini do'qillatib qizga qarab kela boshladi.

— Salima, qizim, senmisan? Anovi shopir bola «do'xtir emas», deb yengadi, moshinni to'xtat, deb qo'liga yopish-

ganimdan keyin to'xtatasa-ya. Qodirqul moshin olib keladi, deb aytmadimi? Na kutmay chiqding? Qani, yur, moshinga chiqa qol, issiqda esing ketdi.

— Qayoqqa? Nima gap, ota?

— E, so'rama, bolam, tinib-tinchimagan bir nevaram bor. Uyqusida ham tek yotmaydi. Shunaqa sho'x, olov. Qara, terlab... kanalda cho'milibdi! Kelsam, isitmalab yotibdi, o'takam yorildi. Oyisi kamandiroq ketgan. Dadasi shaharda-da. Ishxonangga olib bora qolay desam, urinib qoladigan. Yo'lda moshin ushlab oldingga kelyapman.

Qiz sarosimada qoldi.

— Toleyimga yo'l ustida uchraganingni qara-ya.

— Ota... Zarur ish bilan stansiyaga tushib ketayotgan edim-u.

Chol bo'shshib so'radi:

— Hozir borolmaysanmi, qizim?

Salima javob o'rniga yerga qaradi.

— Hay, mayli, yo'lingdan qolma, bolam, — dedi chol, kalovlab orqaga qaytdi.

Salimaning ko'z oldi qorong'ilashib, boshi g'uvullab ketdi. Arang hushini yig'ib, yig'lamsiragan tovush bilan cholning ketidan qichqirdi:

— Ota, qaytishda, albatta, kiraman, xotirjam bo'ling!

Chol eshitmadimi, eshitsu ham ko'ngli qattiq ranjidimi, qayrilmadi. Qiz surat oldirayotgan odamday yo'l o'rtasida qaqqayib turib qoldi. Xiyla vaqtdan so'ng chetga o'tib, yo'lda davom etdi. U odimlar, biroq tashlagan qadami yangi kasaldan turgan odamnikiga o'xshab, mo'ljalga tushmasdi. Qiz ko'nglining allaqayeriga soya tashlab, g'ash qilayotgan o'y-fikrlarni quvishga harakat qilar va «hademay qaytaman-ku», deya o'z-o'ziga tasalli berardi. Ammo ko'nglini tinchitgani sari bo'shshib, allanechuk bo'lib borardi. Qizga cho'l yo'lga intizorlik bilan boqqan yigit, uning javdiragan ko'zlari ko'rinib ketdi. Qiz tetiklandi. Yana jadalladi, qadamini tezlatdi. Ko'ngli yorishganday bo'ldi... Yuragi hovliqdi. Biroq... Tiq etsa najot bilan eshikka termilib yotgan bola va munkillab ketayotgan chol... birdan qizning vujudi muzlab, to'xtadi. Orqasiga qaradi. Shofer yigit mashinaga suyangancha dam hassani arang sudrab

kelayotgan cholga, dam qizga g'alati qarab turardi. Qizning yuragi uyushdi, qadam bosgani madori qolmadi: jiqqa yosh ko'zlari bilan stansiya tomon bir qaradi-yu, orqaga burildi. Chol mashinaga yaqinlashib qolgan, shofer bola kabinada o'tirardi. Chol qizni ko'rib, ko'ngli jo'shib ketdi, namiqqan ko'zlarini yashirish uchun yo'talgan bo'lib chetga qaradi. Shofer bola jilmaydi. Cholning hay-haylashiga qaramay qiz kuzovga chiqdi, chol kabinaga o'tirdi. Mashina o'sha kelgan shoxobcha yo'lga qayrilib, o'rkach-o'rkach tepaliklar orqasiga yashirindi...

... Shofer bola cholnikidan chiqqandan beri churq etmay kelayotgan hamrohining xomush yuziga qarab-qarab qo'yar va zo'r berib mashinani tezlatardi. Salima jim, xayolga tolgan. Nega ketyapti. Baribir kechikdi-ku! Biroq ko'ngil... ko'ngil hech bo'lmasa uning qadami tekkan yerlarda bir daqiqa turishni, u nafas olgan havoda to'yib-to'yib nafas olishni istardi!

Stansiyaga kelishganda kun qayta boshlagan, hamma yoqqa quyuq soya tashlagan azamat chinor shoxlaridagi qushlar olamni boshiga ko'tarmoqda edi. Mashina to'xtashi hamon qiz kabinadan otilib chiqdi-yu, temiryo'l yoqasiga yetganda bo'shahib turib qoldi. Poyezd allaqachon o'tib ketgan. Stansiya bo'sh, hech kim yo'q. Qorovul chol yashik ustida choy ichib o'tiribdi. Qiz temiryo'lning ufqqa tutash yerlariga hayajon bilan tikilar, ko'z oldidan mana shu yerda turib, bir daqiqa visol uchun jonini, jahonini berishga rozi bo'lgan va poyezd jilganda ham umid uzolmay, vagon derazasidan qayta-qayta cho'lning ilonizi yo'liga termilgan yigitning entikkan qiyofasi nari ketmas edi. Shofer bola chinor ostida turib, mashinani temiryo'ldan haydab, poyezdga yetib olishga ham tayyor bir vajohatda qizdan ko'z uzmay o'ylandi: «E, notanish do'stim, sen bevafoqlikda ayblayotgan bir pallada bu qiz insonga vafosini ko'rsatdi. Uni pok bir muhabbat bilan sev, u shunga loyiq qiz...»

Chinor

Avtobus qoq cho'lga tashlab, o'tib ketdi. Qayoqqa yurishni bilmay, bir lahza turib qoldim. Yo'l yoqasida tomi bordon bilan yopilgan omonat choyxona, beriroqda yakka

tup chinordan bo'lak yaqin o'rtada na bir uy, na bir tikkeygan daraxt ko'rinadi. Taqir cho'l. Qizg'ish shafaq shoxlari yon-atrofga tarvaqaylagan chinor uchlarida yilt etib o'chdi. Viqor bilan ko'kka bo'y cho'zgan azim chinorning cho'l shamolida chayqalib shovullashiga mahliyo bo'lib turganimda, beixtiyor ostidagi qabrga ko'zim tushib, junjib ketdim. Yaqiniga bordim. Chinorning yerdan turtib chiqqan ildiziga o'tirib, ayovsiz sel, dovullarda yemirilaverib xiralashgan toshdagi yozuvni harchand o'qishga tutinmay, o'qiy olmadim. Nomi toshdan o'chib, nurab qolgan bu qabr kimniki, uni olov seldan, dahshatli bo'ronlardan asrab turgan bu chinorni kim ekan, kim uni cho'lda avaylab o'stirgan? Xayolim qochdi. To'ntariqliq qozonday cho'lni o'rab turgan ufq gardishi qoraydi. Olisdabir qatim ipdek cho'zilgan kanalni ko'z ilg'amay qoldi.

Choyxonadan uvoqqina chol chiqdi. Timirskilab belbog'ining qatidan gugurt oldi, kaftlarining orasida avaylab chaqdi. Eshik tepasidagi fonusni yoqib, kirib ketdi. Junjigan cho'l, yakka tup chinor tagidagi noma'lum qabr, yuragim uvishdi. O'mimdan turdim. Choyxonaga burildim. Chamadonni ostonada qoldirib, ichkari kirsam, chol chelakka suv to'ldirayotgan ekan. Qo'lini belbog'ining uchiga artib ko'rishdi.

— Keling, mehmon, qani, so'riga, — oldimga patnisdan to'rt chaqmoq qand bilan bir choynak choy qo'ydi. So'ri chetida qarilarga xos sarishtalik bilan yig'ilgan ko'rpa orasidan bitta suvi qochgan non olib ushatdi. Chol chelak ko'tarib chiqib ketdi. Qiya ochiq eshikdan g'uvullab shamol kirdi. Bir ko'ziga qog'oz yopishtirilgan deraza tokchasiidagi lampani bir lopillatib o'chirdi. Tepamda bedana o'zini to'rga urib tipirchiladi. Yonimdan gugurt olib, lampani yoqayotgan edim, bir qo'lida chelak, bir qo'lida chamadon, chol kirib qoldi.

— Bay, bay, pirqirak qilib uchiraman deydi-ya. Buni qarang, batareya tugab qolib, kunim qora chiroqqa qolsa, — dedi u, chamadonni so'rining tagiga qo'yib, eshikni zichlab keldi-da, poygakka cho'kkaladi, — qani, inim, nonga qarang, choyga qand soling.

Chol piyolamga ikki chaqmoq qand tashladi. Patnis chetiga tushib qolgan uvoqni og'ziga solarkan:

— So‘raganning aybi yo‘q, inim... — dedi ikkilanib.

— So‘rang, ota.

— Shahardan chiqqaningiz ko‘rinib turibdi. Yo‘lingiz qayoqqa? Bu tomonlarga qaysi shamol uchirdi?

— Shahar torlik qilib, bag‘ri keng deb cho‘lga keldim, otaxon. Avtobusdan tushdim-u, qayoqqa yurishimni bilolmay, boshim qotib, yo‘l so‘ragani oldingizga kirdim.

— Barakalla, otangizga rahmat,— chol mamnuniyat bilan o‘ng tizzasiga yengilgina urib qo‘ydi, — hali zamon markazga mashina o‘tadi. O‘zim tushirib yuboraman. Otamlashib, mashinani kutamiz. Qani, piyolani menga bering. Aslini so‘rasangiz, men ham shaharlikman, inim. Qoratosh mahallasidan, eshitgandirsiz, ha, balli. Yilda bir qizimni, nevaralarimni, yorbirodarlarimni ziyorat qilgani shaharga tushaman. Biror oyni mo‘ljallab tushgan odam uch-to‘rt kun o‘tar-o‘tmay cho‘lni, cho‘l shamollarini qo‘msab qolaman-u, saharlab yana yo‘lga chiqaman. Kishi bu joyning havosini olmasin ekan.

Chol qo‘lidagi piyolani uzatib, xayolga toldi. Oppoq qoshlari o‘rtasiga tugunchak tushdi. Bilintirmay xo‘rsinib oldi.

— Cho‘l bilan olishib kelgan odam, shu yerga kelganda kuch-quvvatdan qolib o‘tirsam. Yoshlik cho‘l shamoliday o‘tdi-ketdi. Ammo o‘tgan yoshligimga achinmayman, yo‘q, sira achinmayman. Yoshlik bamisoli daryo ekan. Ko‘pirarkan, tosharkan. Jilovini to‘g‘ri olsang, oqqan yerni bo‘ston qilarkan. Yo‘qsa, o‘zini ming yoqqa urgan bebosh jilg‘aday nomnishonsiz o‘tib ketarkan. Yoshlik bebaho narsa. Bu yerlarni ilgari ko‘rmagansiz-a?

— Bolaligimda otam bilan bir kelganim bor. Yanglish-masam, choyxona ham yo‘q edi. O‘shanda chinorga ko‘zim tushmagan ekan.

— Hozir o‘sha siz ko‘rgan taqir cho‘l o‘rni markaz. Taniyolmaysiz. Obod bo‘lib ketgan. O‘tgan yoz novvoyxona bilan bitta quling o‘rgilsin tomoshaxona tushdi. Choyxona ham yaqinda qurilgan. O‘n-o‘n besh kunda shiyponni ham do‘ndirib berishmoqchi. Men sizga aytсам, inim, asli choyxona ham, shiypon ham xayolda yo‘q narsa edi. Bu yerlar endi obod bo‘layotgan joylar emasmi, keluvchilar ko‘p. Markaz ichka-

rida, olis. Yangi kelgan odam qayerga borishini bilmay, dov-dirab qoladi. So'ray desa, so'raydigan odam yo'q. Qolaversa, katta yo'lning ikki betidagi yaxlit qo'riq ham shu yil ochila boshladi-yu, bir narsa xayolimga keldi: ishchilarning bari markazdan kelsa, vaqt-bevaqt issiq-sovuqqa nima qiladi? Yo'l bo'yiga bitta choyxona bilan shiypon qursak, o'zimizning ishchilar ham, yo'lovchilar ham naf ko'rarmikin, degan edim, kattalarga ma'qul tushdi. O'zimning ham ko'pdan beri ko'nglim shu edi. Qolaversa, yakka tup chinor o'ziga tortaverdi. O'zi shunaqa bo'larkan. Yoshlikni eslatuvchi har narsa qariganda og'ir yo'l mashaqqatini birga tortgan hamrohday bo'lib qolarkan.

Chol bilinar-bilinmas entikdi. Yarim yumuq ko'zlarini qo'lidagi piyolaning gullariga tikkancha ancha vaqt jim o'tirdi. Men ham dashtning azob-uqubatlariga bardosh bergan jafokash cholning gaplari ta'sirida uzoq vaqt jim qoldim. Nazarimda cholning serajin chuvak yuzi, tomirlari o'ynab ketgan chayir qo'llari qorayib, vujudi cho'kkanday bo'ldi. Nihoyat, oradagi jimlikni buzib, chinor ostidagi qabr to'g'risida gap ochgan edim, chol menga bir qarab qo'ydi-yu, indamadi. Aftidan bu to'g'rida gapirish og'ir botdimi, har qalay, menga shunday tuyuldi-yu, qaytib so'ramadim. Olisda guvullagan tovush eshitildi. Cho'l shamolimi yo motor ovozi ajratolmay turgan edim, chol tashqariga chiqib keldi.

— Ana, aytmadimmi, mashina o'tadi deb, — turmoqchi bo'lganimni ko'rib, qo'l siltab qo'ydi, — e, hali bahuzur o'tira bering, to'xtamay o'tib ketmaydi. Choyga qalaysiz? Yo'q demang, yana bitta damlay, kelguncha maydalab o'tiramiz.

Turgan joyimda qaytib o'tirdim. Samovarning olovi o'chib qolgan ekan, chol tarasha tashlab yubordi. Qiya ochiq eshikdan yana shitob bilan shamol kirdi. Oy chiqdi, eshik oldida yarim bo'yra joy oqardi. Motor ovozi endi aniq eshitila boshladi. Chol shaqillagan samovarning jo'mragidan suvini oqizib tashlab, choy damlab keldi.

— Ovora bo'ldingiz, otaxon.

— Be, ovarasi bormi, inim, hali zamon Shofer bola ham ichadi.

Endi bir piyola choy ichib turgan edik mashina kelib

to'xtadi. Oldinma-ketin tashqariga chiqdik. Shamol to'xtagan. Oy yonboshdan ko'tarilib kelar, chinor esa katta yo'lga bargsimon soya tashlab turardi. Shofer pastga tushmoqchi bo'lib turgan ekan, cholni ko'rib joyida qola berdi. Menga bosh igr'ab qo'ydi.

— Keldingmi, bolam?

— Ha, ota. Qani, ketmaymizmi?

— Yo'q-yo'q, bolam, hali uch-to'rtta odam daladan qaytgani yo'q, shularni kutaman.

— Shunaqami? — yigit kaftlarining orasida papiros tutatdi, biroz sukutdan so'ng xijolatomuz dedi, — Mirhaydar ota, aytganingizga kirolmadim-ku.

— Mayli, bolam. Yana bir yo'ling tushganda tashlab o'tarsan. Qani, pastga tush, choy tayyor.

— Ota, ishim tig'izroq...

— Bo'lmasa inimni ola ket.

— Qani mehmon, bo'la qoling.

Men cholga minnatdorchilik bildirib, mashinaga o'tirdim. Mashina chinor soyasidan chiqib, biroz yurdi-da, cho'l biqiniga turtib kirgan shoxobcha yo'lga burildi. Kabinadan boshimni chiqarib orqamga qaradim. Mirhaydar ota qo'lini peshanasiga tutib, anchagacha qarab turdi. Nihoyat, bitta-bitta yurib, kirib ketdi. Oy havolandi. Fonus shu'lasi o'chib, kulrang pardaga tekkan qizg'imtir dog'day arang ko'rindi, so'ng ko'z ilg'amadi. Har chayqalganda dam qorayib, dam kumushlanayotgan azim tup chinor mudragan cho'lda sho'ppayib qoldi. Yuragim uvishdi. Odamoxun qariya bilan shoshqaloqlikda durustroq xayrlasha olmaganimni o'ylab, ko'nglim xijil bo'ldi. Birpas turgani sabri chidamagan shoferdan o'pkalanib, ko'z qirimni tashladim. U labining bir chekkasidagi papirosini chunonam so'rardiki, papirosning cho'g'i yuz-ko'zini barala yoritib turardi. U bexosdan so'kindi va xijolatomuz menga qarab oldi:

— Uzr, birodar, odam bo'lib og'zimdanda chakki gap chiqqani shu. Hali shoshirganimga picha xafa bo'ldingizmi, mehmon?

Shoferning gapidan tutaqish sababi ma'lum bo'lib qoldi: Mirhaydar ota choyxonaning atrofiga ekaman, deb gulchi oshnasiga o'n tup atirgul oldirib qo'ygan ekan. Shaharga mashina tushishini eshitib, shofer bolaga oshnasining uyini tayinlab, qaytishingda ola kel, degan ekan. Biroq mashina yarim yo'lda tutun chiqarib, taqqa to'xtab qolibdi. Shofer kechgacha ovora bo'lib, mashinani arang tuzatibdi-yu, orqaga qaytibdi. Shu arzimagan narsaga kuyib-pishib ich-etini yeb horayotgan soddadil yigitga achinib ketdim. Ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldim.

— Nima, shaharga boshqa tushmaysizmi?

— Tushamanku-ya...

— Bo'pti-da!

— Gap unda emas, mehmon, men sizga aytsam, Mirhaydar ota cho'lga birinchi bo'lib kapa tikkan odam. Bu yerlarning har qarichida otaning manglay teri bor. Cho'ldan chiqaverishda yo'l yoqasidagi bog'larni ko'rgandirsiz? Barini otaning mirishkor qo'llari voyaga yetkazgan. Shunaqa, ota tabarruk odam. Shu odamning ozib-yozib qilgan iltimosini uddalab kelolmaganim... alam qilyapti. Har o'tgan-ketganda hol-ahvol so'rashib o'tadigan odam, gapning ochig'i hali tushib, bir piyola choy ichgani yuzim chidamadi.

Yigit suyanchiqqa tashlanib, qoshlarigacha bostirib olgan shapkasini orqasiga surib qo'ydi. Xo'rsindi. Yo'ldan ko'z uzmay, yana papiros tutatdi.

— O'zi ko'chat vaqti o'tdi chog'i, ekan bilan tutarmikin? Shofer yigit menga g'alati qarab qo'ydi:

— Qiziqmisiz, qaqragan cho'lga chinor ekib ko'kartirgan odam o'n tup ko'chatni eplolmaydimi?

Azamat chinor, chinor ostidagi qabr ko'zimga ko'rinib ketdi, shoshib so'radim:

— Chinorni ota ekanmi? Qachon? Ostidagi qabr kimniki?

Birvarakay bergan savollarimga yigit hadeganda javob beravermadi. Uning o'ylanib, jim borishi toqatimni toq qilib yubordi-yu, sabrsizlik bilan og'ziga tikildim.

— Ota ekan. Ammo bu to'g'rida o'zidan so'rasangiz, churq etmaydi. Ehtimol, eslash og'irdir. Eshitishimcha, ota

yigitlik chog'ining besh-olti yilini Yomda o'tkazgan. Poda boqqan. Ota yoshligida o'zi kabi sofdil, jafokash bir cho'ponning qiziga uylanadi. Bir qiz, bir o'g'il ko'radi. Qizi hozir shahardagi allaqaysi kasalxonada doktor bo'lib ishlaydi. O'g'li bosh mexanik. Nima deyayotgan edim, ha, gap chinor to'g'risida edi. Shu deng, erta ko'klam podalar taralgan kezlar cho'l nihoyatda gashtli bo'ladi. Bir kuni Yomning ikki boyvachchasi jo'ralari bilan qimixo'rlikka chiqadilar-da, nima ham bo'lib, Mirhaydar otaning ayoliga ko'zlari tushadi. Shu yerda tunab qolishga ahd qiladilar. Ota bularning shum niyatidan xabarsiz tashqariga joy solib beradi. Yarim kecha. Shirakayf boyvachchalar otaning qo'ylardan xabar olgani ketganidan foydalanib, o'tovga kiradilar. Juvonga yopishadilar. Juvon dod soladi. Ularning changalidan chiqib qochadi. Dod ovozi eshitgan Mirhaydar ota yordamga yuguradi va hirsday ikki yirtqichning yo'lini to'sadi. Mast boyvachchalardan biri jonjahdda qo'njidan pichoq oladi, otaga tashlanadi, juvon erini to'sib qoladi-yu, pichoq ko'ksiga sanchiladi...

Shofer og'ir tin oldi. Men ham ko'kdagi son-sanoqsiz yulduzlarga shuursiz tikilganча, hadeganda hushimni yig'olmay borayotgan edim, yulduzlardan bittasi oppoq iz qoldirib uchdi. Ko'zim qamashib, pichoq yarqirab ketganday bo'ldi-yu, etim jimirlab, shofyorga qaradim.

— Qotillar-chi?

— Ertasiga... ayol yiqilgan yeriga dafn qilinadi. Kun isib, podalar Jizzax tog'lariga yo'l oladi. Ota qabr yo'qolib ketmasin deb, qishloqdan bir tup chinor olib keladi va bir yil meshda suv tashib, chinorni ko'kartiradi. Mana shu ko'rganingiz o'sha chinor, mehmon. Inson ulug', mehnati undan ham ulug' ekan! Vaqti kelib bu yerlarda gurkiragan shaharlar bunyod bo'lar, shunda odamlar azim tup chinor soyasida o'tirib, dashtga jon bergan, cho'lda yuzlab chinorlarni voyaga yetkazgan mard, tanti odamlarni eslashar-a, mehmon?

Mashinaning g'uvullashiga quloq solib, anchagacha jim ketdik. Men mard ayolning jasorati va yigitlik muhabbatiga sodiq otaning o'zi ekib, voyaga yetkazgan mana shu azamat chinordek baquvvat irodasi haqida o'ylab borarkanman, olisda chiroqlar miltiray boshladi.

Ona

Hamro xola bir piyola achchiq choy ichib, bahri dilimni yozay deb qo'shnisinikiga chiqqan edi. Qo'shnisi ikki xurma qatiq olib qurilishga bormoqchi bo'lib turgan ekan. Xolani ko'rib, yo'ldan qaytdi. Qo'yarda-qo'ymay chorpoynaga o'tkazib, oldiga bir kosa qatiq qo'ydi.

— Oling, ovsin, nasibangiz. Olaniki, o'z qo'lim bilan ivitganman.

— Yo'ldan qo'ydimmi, aylanay, — Hamro xola qatiqdan totingan bo'ldi, — men tura qolay, hali chiqarman, bozoringiz o'tib ketmasin.

— Bo, o'tib qayoqqa borardi. Mijoz qilib olganman. Uch-to'rt kundan beri to'g'ri qurilishga boraman. Birpasda talab ketishadi. O'zim ham bir xillarga o'xshab yog'ini olmaymanga, ovsin. Bahrinisangiz ham mendan oladi. Hay, Bahrinisa deganda esimga tushibdi. Jo'ravoyingiz Bahrinisaga uylanarmish, shu rostmi, ovsin?

— Voy, o'lmasam, kim aytdi, kimdan eshitdingiz? —

Hamro xola yoqasini ushladi, — odamlar ham bichib-to'qiyverarkan-da. Tavba, yetti uxlab tushga kirmagan gaplar-a! Kelin qilaman desam ne-ne joylar sepini sandiqqa solib, eshikka qarab o'tiribdi.

— Men ham aytdim, Jo'ravoyning tengi topilmaptimi deb.

Hamro xola, shuni ayting deganday, bosh qimirlatib qo'ydi. Xola qo'shnisining gapini sirdan elamagan bo'lsa ham, ammo ichidan zil ketdi. Bunaqa gaplar orqavorotdan qulog'iga chalinib yursa ham «mayli, o'g'lim hali yosh, yosh yoshligini qiladi-da, es-hushini yig'ib olar», deb o'zini yupatar edi. Ammo qo'shnisining og'zidan eshitganlari uni hozir o'ylantirib qo'ydi: o'g'li o'shani deb oyog'ini bir etikka tiqib olsa, qo'lidan nima keladi?!

Kampir shu xayolda qaytib chiqdi. O'zini chalg'itish uchun u-buga urinib ko'rdi. Bo'lmadi. Nazarida o'g'li «o'sha»ni yetaklab eshikdan kirib kelayotganday bo'laverdi.

U o'g'lining ovqatini qozondan olib ravonga kirdi. Bir kosa qatiqni xontaxtaga qo'ydi. Ustiga dasturxonning uchini

qayirib, qo'lini iyagiga tiragancha haq deb eshikka termilib o'tirdi.

Allavaqtda eshik taqilladi.

Hamro xola uyushib qolgan tizzalarini uqalab eshikni ochdi.

— Hoy, bolam, seni ko'chada tug'ganmanmi?

— Oyi, ishim chiqib qoldi.

«O'shani oldiga borgan», xayolidan o'tkazdi u, bir ko'yi so'ramoqchi bo'ldi-yu, o'zi yorilar deb indamadi.

Jo'ravoy yechinib chiqib, ovqatga o'tirdi. Hamro xola o'g'liga zimdan razm soldi. Jo'ravoy qatiqni bir chakkaga surib qo'yib, ovqatga qo'l cho'zgan edi, Hamro xolaning esiga qo'shnisining gapi tushdi: «Bahrinisa ham qatiqni mendan oladi». Hamro xola bir xil bo'lib ketdi. Jo'ravoy bolalikdan qatiqqa o'ch, ovqatdan avval qatiq topib qo'yadi. Kecha ham oldiga bir kosa yog'liq qatiq qo'yganda, qayrilib ham qaramagan edi. Shunda Hamro xolaning yuragi allanechuk bo'lib ketgan edi-ya! O'shanikiga borgan. Aniq. Ovqatga ham burungiday ishtahasi yo'q. Bo'lmasa, Bahrinisa kunda qatiqni nima qiladi, bosh yuvadimi?!

— Bolam, kimsan falonchining o'g'lisan, — Hamro xola yer tagidan o'g'liga qarab oldi, — shu ishni o'ylab qilyapsanmi?

— Nimani, oyi?

— El-yurt nima derkin?

Jo'ravoy og'zidagi bir luqma oshni yutishini ham, yutmasligini ham bilolmay, oyisiga qaradi. Qaradi-yu, gapning tagini payqab, qizarib ketdi.

— Agar siz rozi bo'lsangiz... — dedi birozdan so'ng yerga qarab. Hamro xola xuddi shuni kutib turganday birdan tilga kirdi:

— Ikki dunyoda rozi emasman bu ishga, bolam, shundan bo'lak qurib qoldimi?

— Unga nima qilibdi, oyi?

— Uyal-e, bo'ydoq degan noming bor-a! Mahalla-ko'y, qavm-u qarindosh...

— Oyi, — Jo'ravoy boshini ko'tardi, — kim nima desa der. Har kimning xohishi, ko'ngil ishi bu.

Hamro xola bir umr gap qaytarmagan o'g'lining cho'rt-kesarligini ko'rib, tili kalimaga kelmay qoldi. Bu gaplarni o'sha

yashamagur o'rgatgan. Ha, ertagayoq uning oldiga boradi. Yuragidagi bor gapni to'kib soladi. Sizni bolam-bo'tam deb, ko'rgan oqibatim shumi, deydi. Ko'ra-bila turib, yuziga oyoq tiragandan keyin nega endi shartta-shartta uzib olmas ekan!

Hamro xola ertasiga kechga tomon Bahrinisanikiga yo'l oldi.

— Voy, nechuk, xolajon, — Bahrinisa uni ko'rib quvonib ketdi. — O'zim ham ertalab birrov xabar olay deb turgan edim.

Hamro xola Bahrinisaning yelkasiga qo'lini tekkizgan bo'lib, «bardammisiz», deb qo'ya qoldi. Har doim bolam-bo'tam deb, yarim soat hol-ahvol so'raydigan xolaning avzoyidan yo'lda toliqqan bo'lsa kerak, degan gumon bilan Bahrinisa ko'rpacha tashlab, dasturxon yozgani ichkariga kirib ketdi. Hamro xola uning ketidan bo'zrayib qoldi: «Qizarmadiya! Tavba! Ustomonligini qarang, kishini olasi ichida bo'larkan». Kelganda mo'min-qobil, uch marta gap so'rasa, bir marta yerga qarab zo'rg'a javob beradigan Bahrinisani xola hozir taniy olmadi.

To'g'risi, Hamro xolada ham ayb bor. Bundan uch oy avval Jo'ravoyning allaqanday shaharlik bir maktabdoshi qishloqqa kelganini, kichkina bolasi bilan mehmonxonada turganini eshitib, ko'ngli buzildi. «Uyal-ey, uyim tor bo'lsa ham ko'nglim keng, bor, olib kel. Qurilish yotoq berguncha, shu yerda tura tursin», deb qo'yarda-qo'ymay o'g'lini mehmonxonaga jo'natdi. Bahrinisaning soddagina kiyinishi, bir-biriga tutash qoshlari ostidagi yirik-yirik ko'zlari, gapirganda qizarib-bo'zarib yerga qarab turishlari xolaga yoqdi. Bir xil shaharlik juvonlarga o'xshamas ekan. Muncha odmi? Muncha istarasi issiq, o'ziyam popukdakkina ekan, deb qo'ydi u. Bolasini aytmay-sizmi!.. Biram shirin, biram yoqimtoyki, xola uning atrofida girdikapalak bo'ldi-qoldi. Hatto Bahrinisaning qo'ying, deyishiga qaramay, bog'chaga o'zi oborib, o'zi olib keladigan bo'ldi.

Qurilish yotoq bergach, Bahrinisa ko'chadigan bo'ldi. «O'rganib qolgan ekanman», deb xola jinday ko'z yoshi ham qilib oldi. Keyin esa uning oldiga tez-tez borib turar, bolasi tushmagurni haftada ko'rmasa, shirin narsasini yo'qotgan kishiday g'alati bo'lib yurardi. Bahrinisani-yu, soyasiga ko'rpacha solardi. Mana oqibat...

Bahrinisa choy olib kirdi. Patnida hovuri chiqib turgan nonni ushatib tashladi. Karavotdan par yostiq olib, xolaning orqasiga qo'ydi.

— Xolajon, yozilib o'tiring. Hozir Ahmadjon ham bog'chadan kelib qoladi. Naq kechadan beri buvimni sog'indim, deb esi ketayotgan edi.

Hamro xola jahl bilan patnis chetiga tushib qolgan ushoqni og'ziga soldi.

— Men sizni ne-ne umidlar bilan bolam devdim, Bahrinisa. Bahrinisa yalt etib xolaga qaradi.

— Men ham sizni onamdek ko'raman.

— Qo'ying-e, tilyog'lamalik ham evi bilan-da. Oydek juvonsiz. Tengingiz topilmadimi?

— Xola, nima deypsiz?!

— Qo'ying, bilib, bilmaslikka olasiz-a!

Bahrinisa qo'lidagi piyolani tushirib yubordi. Xola cho'chib, unga qaradi. Nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftlagan edi, uning avzoyi o'zgarib ketganini ko'rib o'zini tiydi. Bahrinisaning rangi oppoq oqargan, lablari xuddi sovuqda qolgan bolanikiday titrar, ko'zlari esa jiqqa yoshga to'lgan edi.

Tashqarida oyoq sharpasi eshitalishi bilan Bahrinisa o'rnidan turib, ichkari xonaga kirib ketdi. Ko'p o'tmay ko'cha eshik ochilib, ko'zlarini mushti bilan ishqalagancha Ahmadjon kirib keldi. Avzoyidan hozir yig'lab yuboradiganday edi. Biroq xolaga ko'zi tushdi-yu, iljaydi.

— Buvi! Qachon keldiz?

Ahadjon yugurib kelib Hamro xolaning bo'ynidan quchoqlab oldi. Xolaning yuragi allanechuk bo'lib ketdi. «Bolada nima gunoh?», dedi o'ziga o'zi xola va beixtiyor bag'riga bosdi.

— Endi ketib qolmaysizmi, buvi?

— To'xta, to'xta, nega ko'zing qizargan?

— Nega o'zi doim shunaqa deydi?

— Kim?

— Soli.

— Nima deydi?

Ahadjon Bahrinisa kirib ketgan xonaga bir qarab oldida, xolaning tizzasiga kelib o'tirdi.

— Oyimga aytmaysizmi?

- Yo'g'-a!
 - Meni-chi, dadam yo'q...
 - A! Bu nima deganing, kim aytdi!
 - Soli aytdi, — dedi Ahmadjon xo'rsinib, — uning dadasi bor. Kuniga bog'chadan-chi, yelkasiga mindirib ketadi. Seni dadang yo'q, seni... hech kim yelkasiga mindirmaydi, deydi.
- ...Bahrinisa xonaga qaytib kirganda hech kim yo'q edi. U derazadan ko'chaga qaragan edi, Ahmadjonni bag'riga mahkam bosib, katta yo'lda ketayotgan Hamro xolaga ko'zi tushdi...

Qizginam...

Sanobar yuragi betlamaygina sinfga kirdi. Bolalarning salomiga bosh silkib, darsni odatdagidek yo'qlamadan emas, mavzuni yozishdan boshlay qoldi. Olataroq taxtada bo'rni sekin qitirlatgan sari, voajab, qo'li tez harakatlanayotganga o'xshayverdi: mavzu atamasi muncha qisqa?! Qani, sira orqaga qaramay yozaversa! Nega kirgan zahoti ko'z qirini tashlamadi? Qayerda o'tiribdi, orqadami, o'rtaroqdami yo oldingi qatordami? Dadasi bilan buvisining oralarida o'tgan gap-so'zdan xabardormi, xabardor bo'lsa, nima derkin?!

Ostonaga qadam qo'ymagan kampir ikki hafta avval xuftonga yaqin to'satdan o'zi kirib keldi. Shuncha yuqoriga qistasha ham eshikka yaqin kursiga omonatgina o'tirdi-da, hassani devorga suyab, tomirlari bo'rtgan qoq suyak kaftlari bilan yuzini silab qo'ydi. Hadeganda hech kimdan sado chiqmadi. Kampir kuyovini begona ayol bilan ko'rganda yuragi alamli og'riqqa kirishini bilmagan ekan. Ko'zlarida beixtiyor yosh aylandi. Entikib, sekin xo'rsindi. O'lim qursin! Yolg'izidan ayrilmasa, qariganda shu kunlar bormidi? O'shanda alam ustida ona mehriga qonmagan bolani otanikidan ham benasib qilganiga keyin ko'p afsuslandi. Hassaga tayanib qolgan odam hademay nuridiydasing yoniga borganda nima deydi? Ko'zi yumilsa... bo'yi archadekkina cho'zilgan qizaloqning holi ne kechadi?!

— Mayli, Hamidulla, — dedi hazin tovushda kampir, — mayli, Zulayhoni olib kelaman desangiz bir nima demay..., bolaning ko'ngli but bo'lgani yaxshi.

Boshini xam qilgancha, dasturxon popugini jimgina himarib o'tirgan Hamidulla allanechuk bo'lib kampirga yuzlandi.

— Zulayhoni... o'zingiz bilan ko'chirib kelay, xo'p deng, oyi, uying to'ri sizniki, hayhotdek joyda yolg'iz nima qilasiz?!

Kampirning nursiz, toliqqan ko'zlari javdirab ketdi:

— Yo'g'-e, qo'ying, yo'q, nima deyapsiz?!

Kampir bezovtalanib qo'zg'aldi, kalovlab eshikka yurdi. Zinada hassaning do'qillagan ovozi anchagacha eshitildi... Allamahalgacha er-xotin xomushlanib o'tirishdi-da, nihoyat, Hamidulla «Mayli, ko'chirib kela qolay», deb qo'ydi. Sanobar yalt etib eriga qaradi.

— Ko'nmay, yo'q desa-chi?!

— Qiziqsiz-a, xarxashasi bormi?! Ko'nadi, bunaqada qattiqqo'l bo'lmasa...

Sanobarning vujudi seskandi:

— Qo'ying... qattiqqo'llik ko'ngilni tosh qilmaydimi?

Xotini birdan o'zgarganidan Hamidulla bo'shshdi:

— Nima qil deysiz?

— Yetimxonada o'sganman, bilasiz, — ma'yuslandi Sanobar, — keling, bolaning o'ksik ko'nglini vayron qilmay, avval uni maktabimga o'tkazaylik, o'rgansin... Zora o'zi ko'nasa, zora buvisi birga bo'la qolay desa, yolg'iz ovunchog'idan ham ayrilsa..., bechora mushti parga achinaman.

... Mana endi, Sanobar ilk bor Zulayho bilan baqamti keldi: O'zing qo'lla! Sanobar bo'shashibgina orqaga o'girilganda kimdir gap qotdi:

— Yangi qiz keldi.

— Peshanasi kokillik, — qo'shib qo'ydi boshqasi.

Sanobar bir lahza dovdiradi, nima deyishni bilmay qoldi. O'rtaroqda, derazaga yaqin joyda kichkina mushtlarini lunjiga bosib, o'ychan o'tirgan Zulayhoga «Xush kelibsan, qizim», deb qo'ya qoldi. Qizcha hurpayib oldi, xo'mrayib, yuzlarini ters burdi. Sanobar qizchanning peshanasidagi bir tutam qing'ir-qiyshiq sochlariga, chala-chulpa dazmol urilgan oq yoqasiga qarab ko'ngli buzildi. O'zi ham bir mahallar maktabga shu alfozda kelmasmidi?! Qo'ng'iroqdan so'ng... negadir sinfda

hayallab qolgan Zulayho eshik tutqichini ushlagan joyda to'xtab, o'girildi. Sanobar ajablanib, yo'qlamadan bosh ko'tardi, qizchanning ko'zlari g'alati chaqnadi!

— Meni... boshqa unaqa demang, baribir yomon ko'raman!

Sanobar bir lahza qotib qoldi. Eshik qarsillab yopildi. Sanobar cho'chib, hiyla o'ziga keldi; tavba, bir og'iz «qizim» deganiga alamlarini to'kib soldimi?! Ertami-kech oralaridan bir sovuq sharpa o'tishini bilardi, ammo bu tarzda bo'ladi, deb o'ylamasdi. Hissiz, shuursiz yarim ochiq derazadan hovliga qaradi. Zulayho jildini silkitganча darvozada ko'ringan dadasiga qarab yugura ketdi va kela solib bo'yniga osildi... Sanobarning o'pkasi to'ldi. Yetimxonada uyqusiz kechalar o'zi xayolida yaratgan dadasini u ham shunaqa quchoqlab, bo'yniga osilishini qanchalar orzu qilgan! Hamidulla qizini darvozaning oldida qoldirib, shoshganча Sanobar o'tirgan sinfga yo'naldi. Eshikdan kirgani sabri chidamay, derazadan bosh suqib so'radi:

— Xo'sh, diplomatik aloqalar qalay?!

— A'lo darajada, — dedi Sanobar hazil tarzda va chekklaridan sizib tushgan yoshlarni bildirmay, kafti bilan sekin artib oldi.

— Xayriyat-e, ketdik, sizni uyga, Zulayhoni buvisinikiga tashlab, ishga o'tay.

Sanobar ma'noli bosh chayqadi.

— E, ha, aytmoqchi, bichiqchiga borasiz, — esladi Hamidulla, — sobiq sinfdoshlarning o'n yillik yig'iniga maxsus tikilayotgan ko'ylak hammani oyoqdan chalmasa, deb qo'rqaman!

— Ehtiyot bo'ling!

Sanobar kula-kula jurnal qo'ltiqlab idoraga, Hamidulla darvozaga qarab yurdi.

...Nihoyat, Hamidulla bilan buvisi Zulayhoni bir muddat otasinikida turishga arang ko'ndirishdi. O'sha kuni er-xotin darrov xona ajratishdi — qizchanning buyumlarini buvisinikida qanday turgan bo'lsa, shunday joylashtirishdi, faqat, har ehtimol kampirga ham bitta karavot kiritib qo'yishdi. Hamidulla xotiniga ayolmagan bir narsadan xijolatda edi. Oliygo'zni

bitirish arafasida tushgan bir rasmini Sanobar hech qayerga ishonmasdi; hali dasta-dasta kitoblarga suyah qo‘yar, hali javonning romiga qistirar, xullas, shu rasm bir kuni yo‘qoldi. Sanobar qidira-qidira javonning orqasidan topdi. Deraza ochilganda shamol uchirgan bo‘lsa kerak. Shunda Hamidulla qizini ham o‘ylab bir yo‘la ikkita ramka sotib oldi-yu, bittasini yo‘l-yo‘lakay Zulayhoga tashlab kelmaganiga achindi. Uyga kelganda ikkovini xotining qo‘lida ko‘rib, noqulay ahvolda qoldi. Sanobar quvonib, darrov rasmni ramkaga soldi. Bosh-qasini... Hamidulla ertasi ishga ketayotganda cho‘ntagidan topdi. Qizchanning stolidagi shu ramkada oyisining rasmi turardi — kampir bermadi! Kelgan-kelganda ko‘rasan, bolam, deb darrov rasmni o‘rab-chirmab, sandiqqa soldi. Hamidullaga esa «kelinning ko‘ngliga toshday botmasin» deb qo‘ydi xo‘rsinib, balki...

Sanobar Zulayhoning xonasini sinchiklab ko‘zdan kechirdi-da, dab-durustdan so‘rab qoldi:

— Oyisining rasmi qani?

Hamidulla mujmal javob qildi:

— Buvisi... qandoq bo‘larkin, deganiga bir nima deyolmadim.

— Nima? Nimalar deyapsiz? — dedi hayratlanib Sanobar, — nahot onasini xotirasidan mahrum qilsam?

Sanobar shoshgancha kiyim-boshini almashtirib chiqdi. Qayerga degani Hamidulla ulgurmadi. Qizini boshlab kelgani maktabga jo‘nadi... Ota-bola uyga peshinda kirib kelishdi, qizi xarxasha qilgan bo‘lsa, birpas aylantirganmi, Sanobar «yaxshi keldingmi» dedi-yu, «qizim» degani botinmadi. Qizcha, onasinikiga o‘xshash qalin qoshlari ostidan bir yov qarash qildi-yu, dadasining pinjiga suqildi. Dadasi engashib qulog‘iga bir nimadedi, qizchayerga qaragancha shi pillab xonaga kirib ketdi va ko‘p o‘tmay to‘satdan shaytonlab qichqirib yubordi.

— Oyi,.. oyijon!

Sanobarning etlari jimirlab, kursiga behol suyandi. Xotining qayerga borib kelganini Hamidulla payqadi. Ko‘ngli uyushdi. Divanga o‘tirdi-da, boshini changalladi. Oraga og‘ir jimlik cho‘kdi, anchadan keyin qizchanning entikkan achchiq-

achchiq yig'isi eshitildi... Zulayho ovqatga chiqmadi, dadasi-ning qistovida quruqqina bir piyola choy ichib, yotib oldi.

...Sanobar nonushta tayyorlab, uydan barvaqt chiqayotganda, eri ajablandi:

— Ha, so'fi azon aytmay turibsiz?!

— Ko'ylakka... shunaqasi ishga! — Sanobar hazilomuz qo'shib qo'ydi, — bugun hamma oyog'idan chalinadigan kun!

— E, ha, — dedi eri kulib. Tavba, ayol zoti g'alati, sochini boshqacharoq turmaklaydimi yo bitta yangi ro'molcha tutadimi, quvonchdan entikib yuradi. Darhaqiqat, yangi ko'ylakda Sanobar dunyoga sig'may, oxirgi soat Zulayholarning sinfiga kirganda — sababini hamma payqadi, faqat Zulayhogina qovoqlarini uyib, teskari o'girilib oldi. Zulayho navbatchi edi. Olataroq taxta toza artilgan, hatto o'qituvchining kursisiga ham chekkalari ikki enlik buklangan qalin oq qog'oz qo'yilgan edi. Sanobarning mehri tovlanib, Zulayhoga qaradi. Qizcha bejo ko'zlarini olib qochdi. Sanobar dars davomida qordek oppoq ko'ylakni ayab, kursiga yaqinlashmadi, faqat qo'ng'iroqdan keyin hamma qiy-chuv bilan chiqib ketgach, yo'qlama to'ldirgani joyiga omonatgina o'tirdi va muzdek tekkan narsadan ko'ngli yomon shuvullab ketdi! Bu mehribonchilik zamiridagi shum niyatni payqab, qo'llari mushtga aylandi, dodlab yuborishdan arang o'zini tiydi, alamidan stolni qarsillatib urganda stoldagi ruchka yumalab pastga tushdi. Sanobarning vujudini sovuq titroq bosdi: hoziroq otasiga qizingning qiliqlaridan to'ydim, deb orani ochiq qiladi!

Sanobar eshikni zichlab yopdi, egnini apil-tapil almash-tirdi; essiz, qancha orzu bilan tikilgan yangi ko'ylakning tovoqning og'zidek joyi qop-qora moy edi! Sanobar jahl bilan eshik bandiga yopishgan joyda bo'shahib turib qoldi. Kap-katta ayol nima qilyapti?! Sho'ring qurg'ur, beshafqat taqdir alamlarini murg'ak ko'ngilga sig'dira olmasa,... nima gunoh?! O'zi bir mahallar shu ko'ylarga tushmaganmi, haligacha ko'ngli kemtik emasmi?! Sanobar eshikka behol suyandi. Hovlidan g'ala-g'ovur ovozlari, qiyqiriq, kulgi keldi. Allakimning deraza oldidan olib o'tgan bir quchoq oq atirgulinining isi «gup» etib urildi.

Sanobar qosh qorayganda keldi. Hamidulla mehmonxonada divanga yonboshlab televizor ko'rayotgan edi, xotining erta qaytganiga emas, eski ko'ylakda kelganiga ajablandi. Sanobar zo'rma- zo'rakai xandon tashlab kuldi, ammo bu kulgining zamirida qanchalar alam-o'ksik borligini eri payqamadi.

— Qarasam, hamma tappa-tappa yiqilyapti...

— Behazil?

— E, ko'nglimdagidek chiqmabdi, bichiqchida qoldi, — Sanobar gapni boshqa yoqqa burdi. — Nega yolg'izsiz, Zulayho qani? Ovqatlandimi?

Shu payt mehmonxonaning chap tomonidagi eshik biroz ochildi. Sanobar sezsa ham, payqamaganga oldi.

Hamidulla qiziqdi:

— Xo'sh, yig'indan gapiring, qalay o'tdi?

— A'lo darajada, — dedi Sanobar o'zini yaxshi kayfiyatda ko'rsatishga urinib, ammo maqsadga o'ta qoldi, — qarang o'n yil lahzadek o'tib ketibdi!

— Umr shu... — deb qo'ydi Hamidulla ta'sirlanib.

Ertasiga Sanobar barvaqt ishga ketdi. Zulayholarning sinfida darsi yo'q edi, qizcha olisda ko'rindi-yu, keyin chap berib yurdi. Sanobar maktabdan qaytganda Zulayho yo xonasida dars qilar, yo barvaqt yotib qolgan bo'lardi. Ovqatga dadasi borida chiqardi. Shu zayl hafta o'tdi. Sanobar qizchanning xonasiga huda-behuda, zaruriyatsiz kiravermas edi. Ammo bugun yo'g'ida yig'ishtira qolay deb xonasiga kirdi-yu, kiprik qoqmay ostonada turib qoldi, allanechuk bo'lib erini chaqirdi. Hamidulla ajablanib, xonaga kirganda Sanobarning tili zo'rg'a kalimaga keldi:

— Anavini... siz qo'ydingizmi?!

Hamidulla xotini ishora qilgan tomonga qaradi. Qaradi-yu Zulayhoning dars tayyorlaydigan stolida onasi bilan Sanobarning ham rasmi yonma-yon turganini ko'rib:

— Yo'g'-e..., — dedi xushi uchib, — Yo'q!

— Nima? — Sanobar quloqlariga ishonmadi, — nima dedingiz, yana bitta qaytaring!

Hamidulla hayratda bosh chayqadi. Sanobarning ko'zlari birdan yoshlanib, qo'llari bilan yuzini to'sib oldi.

— Zulayho..., qizim!

Hamidulla og'ir xo'rsindi:

— Kechiring, Sanobar, bilmay... hali jaholatda Zulayhoni ranjitdim shekilli, ertalab javonning ustidagi rasmingizni olib qarayotgan ekan... Tushlikka kelsam, rasm joyida yo'q, Sizni zimdan xushlamaydi, bilaman, rasmni bir balo qilganmi deb jahl ustida quloqlarini burabman.

Sanobar dahshatda qichqirib yubordi:

— Nima qildingiz, nimalar qilib qo'ydingiz?! Shu kunlarga yetay deb nimalarga dosh bermadim?!

Sanobar shaytonlab tashqariga otildi...

Zulayho dadasining qo'lidan chiqib, orqa ko'chadagi chinorning eski to'nkasida uzoq o'tirdi. Shunda ko'zlari mehr bilan javdirab, ustida ming aylanib, ming o'rgiladigan buvisini, buvijonini eslab, vujudiga tarqalgan sovuq titroq to'xtagandek bo'ldi. Ko'ngli yorishdi. Qizaloq katta dunyoning katta tashvishlarini kichikkina vujudiga sig'dirolmay borarkan, xayolan buvisi bilan so'zlashardi: «Oyoqlarimning darmoni qolmagan, burungidek yurolmayman, deb... meni yana berib yubormang, buvijon, mana ko'rasiz, katta bo'lsam sizni opichib yuraman».

Sanobarni ko'rib... Zulayho qaytarmikan?

Koshki edi!

«Devona»

Jumagul — qiz o'rtog'im, sirdoshim, toleyimdan o'rgilay, sen borsan dunyoda, bo'lmasa, kimga ko'ngil yozardim?! Diydoringga to'yib-to'yib, xumorlarimdan tarqab kelay desam, oyoq qurg'urdan uzoqqa borolmayman. Ammo senga atab ikki enlik xat bitaman — shu bahona gaplashgandek, dardlashgandek yengil tortaman, ovunaman! Ajab emas, xatim bir kun qo'lingga tegsa. Kula-kula o'qirsan. Etaklari soyga tutash bog' hovlimiz esingdami? Ko'chaning qoq yarmiga egilgan katta tutimiz bo'lardi, tagidan odam arimasdi. Orqamizdan soyadek sudralib yuradigan shalpanquloq qo'shni bolaga silkittirib, tovoq-tovoq tut yerdik. Buvim haftalab pishirgan shinnini mahallaning boshidan piyola-piyola ulashib, tinkamiz

qurirdi. Shu hovli buzildi, o'rtiqjon, ahli mahalla tarqadi. Shaharning osmono'par binosidan bizga joy berishdi. «Kambag'al bo'lsang, ko'chib ko'ra», ekan. Qaqir-ququr narsalarning yarmini odamlarga ulashib, arang qutuldik. Buvimning buvilaridan qolgan o'g'irni eslaysanmi, oqshoq tolqon tuyardik, shuni ko'zlari qiyom piyoladek qora oynak taqqan, poxol qalpoqli odam muzeyga so'rab keldi. Ko'pchilikning nazari tushsa, ularga savobi tegadi, deb berib yubordik. Xullas, uch xonaga yetarli yuk bilan ko'chdik. Kuyovning yaxshisi chorak o'g'ilning o'rnini bosarkan, aylanay, keksayganda bola-chaqaning bag'-bug'i yoqmaydi, deb, yelib-yugurib, yonginasidan alohida bir xonali uy olib berdi! Avvaliga o'raga tushgan odamdek, yurak bag'rim qon bo'ldi, tars yorilay deganimni aytmay, o'rtiqjon, ko'nikarkansan! «Dom»da yegan-ichgandan tortib, sir-asroringgacha odamlarning ko'z o'ngida ekan! Bog' qo'shnimiz — Nusratullo shofirni bilasan. Ichib kelsa «ovqatning tuzi past, damlagan choyingdan jo'xorining hidi keladi» deb xotini sho'rlikni ko'chaga sudrab, kaltak bilan quvardi. Bu yerda ham ora-chora shunaqa to's-to'polonlar bo'lib turadi, ammo har joyning tosh-u tarozisi bor, degandek, avval radioni yetti mahallaga eshittirib qo'yib, keyin imi-jimida janjal qilishadi. Ming shukrki, bunaqalar kam, yaxshi qo'shnilar ko'p. Yonginamda turadigan er-u xotin haftalab to'yima-to'y yuradi, uyda qolgan kezlari eri rubob chalib, katta ashula boshlaydi, xotini qiyqirib sho'x-sho'x raqsga tushadi. Shularning jonli konsertini eshita qolay deb televizorga haftalab dam beraman. Qo'zimatillo degan yana bir qo'shnim, ishi shunaqa joydami, xudoning bergan kuni bir bo'xcha kitob orqalab keladi. Ertasi xotini dastalab «Chorsu» bozoridagi kitobfurushlarga topshiradi. Ayvonimning oldidan o'ta turib, boyaqish, rasmini ko'rib ovunasiz deb, ikki-uchtasini tashlab o'tadi. Men darrov pastdagi qurutchidan «Orbit» degan saqichga almashib chiqaman. Bir nevaram bor, onasi saqichga boshi qorong'i bo'lib tug'ganmi, uyquda ham kavsh qaytarib yotadi. Saqichni olganda nevaramning mehribonchiligi tutib... «Yuqoriga olib chiqay, buvi» deb qoladi. Shunda etagidan uch-to'rt tegirmon

suv oqqan bog' hovlini, mahallaning boshidan ko'ringan azim tup tutni, katta shoxida mudom oyoqlarini osiltirib o'tiradigan shalpanquloq qo'shni bolani eslayman. Eslayman-u, ko'nglim allanechuk shirin orziqib ketadi. Nabiram yordamida to'qqizinchi qavatga chiqaman. Olislarga alanglayman. Ammo hech balo ilg'amayman, nahot bir mahallani to'ydirgan shundoq tut kesilgan bo'lsa?! Xomushlanib pastga tushaman, avzoyimni ko'rib nabiraginam atrofimda girdikapalak bo'ladi, qayoqdagi gaplar bilan ko'nglimni ko'tarish payida:

— Eshitdingizmi, buvi, — deydi, — devona paydo bo'lganmish. Hammanikida butilka tiqilib yotibdi, devona yarim qop bo'sh shisha orqalab, ko'chama-ko'cha sotib yurganmish!

— Tirikchilik, bolam, — deyman gaplarini iylamay. Yuragim battar siqiladi. O'zimni qo'yarga joy topolmay qolganimda birdan beozor bolaligim yodimga tushadi: ko'nglim yorishadi, taskin topaman. Oh, mening qaytib kelmas shirin-shirin bolaligim, bolaligim... Bo'sh qoldik, soya-salqin tutning tagiga eski sholcha tashlab dumalardik. Moviy ko'kka termulib yotib, osmon-u falaklarda qush bo'lib uchgim kelardi. Bir kuni tutning qalin shoxlari orasidan mo'ralagan notanish bolani ko'rib, cho'chib ketdim... «Qo'rqma, yangi qo'shni, ko'chaning boshidagi hovliga ko'chib kelishgan, — deding pichirlab, — o'zi mo'mintoy bola... ammo suvdan o'lguday qo'rqarmish». Bola kaftida tutgan do'ppining gardishidan avaylab ushladida, mo'ljallab pastga tashladi:

— Ol, tergan tut asal bo'ladi.

Men sakrab, arang do'ppini ushlab oldim... «Asal» tutga o'rganib, dumalab yotganlarimizda, bir kuni meni bexos cho'chitib yubording!

— Hoy, ko'rmisan?

— Ha?!

— Bechora shalpanquloq, qara, seni deb daraxtda maymun bo'lib o'tiribdi!

Shunda allaqanday notanish his-hayajondan ichimda titroqqa o'xshash g'alati narsa paydo bo'ldi-yu, cho'chib uyga qochdim! Keyin... sira tutga yolg'iz yaqinlashmadim. Ammo baribir derazadan mo'ralab-mo'ralab qo'yardim. Bir kuni,

yo tavba, shalpanquloq katta shoxda oyoqlari bilan chirmashib, boshini osiltirib yotganini ko'rdim-u, o'takam yorildi.

— Bas qil, jinni maymun, boshing bilan tushsang...

— Mayli...

Yig'lagudek yalindim, yolvordim... tutning tagiga kelganimdan keyin shoxga rosmana o'tirib oldi, voy tentak-ey, eslasam, hali-hali vahima bosadi.

...Ko'chadan hovliqib kelgan nabiram chalg'itdi.

— Hey, buvi, devona chol keldi!

Derazadan alangladim, qopchiq orqalagan uvoqqina chol ko'cha boshidan bitta-bitta qadam tashlab o'tib ketdi: bechora, issiqda tentiramay shu savilni bozorda sota qolmaydimi?!

Nabiram «Orbit»ni olib, g'oyib bo'ldi. Gapni, o'rtoqjon, chalg'igan joydan boshlay: shundan so'ng shalpanquloq «maymun» kuniga tutda-yu, men pastda o'tiraverib, zerikdimki...

— Kel, o'ynaymiz, — dedim. Shalpanquloq darrov ko'chadan aylanib kelib, qo'rqa-pisa ro'paramda paydo bo'ldi.

— Qo'g'irchoq o'ynaymizmi?

Shalpanquloq ko'zlarini yerdan olmay «qiz bolamanmi» deb qo'ydi.

— Ho... — birdan shaytonligim tutdi, uning bir adabini bergim, kalaka qilgim keldi, — unda... kelin-kuyovmi?!

— Mayli.

— ...Sen kuyovto'ra bo'laqol, bor ko'chaga chiqib ishdan kel!

Shalpanquloq ko'chada ancha hayallab, qog'ozi kir bosgan bir dona konfet ko'tarib keldi.

— Voy, atigi shumi?!

— Ha?

— Hoy, muncha qurumsoq kuyovsan-a, yoniga upa-elik qo'shib kelmadingmi?

Shalpanquloq g'izillagancha ko'chadan bir hovuch otyo'lkaning tuprog'ini qog'ozga o'rab keldi.

— Voy, muncha! — mayin «upa»dan yuzlarimga surtgan bo'ldim, — hoy, necha pul ekan?

— Tekin...

— Qanaqa betamiz kuyovsan, — «upa-elik»ni aftiga uloqtirdim, — sen uchun falon pulga oldim deb ko'pirtirsang o'lasanmi?

Shu payt qo'shnimiz Nusratullo shofir ichib keldi, shekilli, hovlisida shunaqa shovqin-suron ko'tarildiki...

— Kuyovto'ralikni eplay olmading! — dedim, — bor, hech bo'lmasa anavi piyanista Nusrat shofir bo'lib kel!

Shalpangquloqqayana jon kirdi, shipillab ko'chaga chiqib ketdi. Xayriyat-ey, qutuldim, deb sholchaga dumalashimni bilaman, to'satdan eshik qarsillab ochildi, ostonada uzun tayoq bilan ko'zlari olaygan shalpangquloq paydo bo'ldi:

— Ha, nega yalpayib yotibsan?

Men hayratda bosh ko'tardim, tizzalarimni quchoqlab o'tirib oldim, u qo'lidagi tayoqni o'ynatganicha tepamga bostirib kela boshladi:

— Damlaganing choymi yo jo'xorining popugimi?!

— E, yo'qol-e!

O'z qilmishimga o'laymi-kulaymi, deb turganimda tayoq qurg'urni qulog'imning tagida bexos silkitsa, g'uvullagan xunuk tovushdan cho'chib, «Bas qil!» deb qichqirdim. Qani tentak ko'nsa! Battar avjiga chiqdi, jazavasi tutdi. Sholchanning chakkasiga jon-jahdda ursa... tayoq qarsillab bo'linib ketdi!

— Hoy, jinnivoy, esingni yedingmi? — uning avzoyidan shippakni tashlab soyga qochdim. Bahonada bir sho'ng'ib olaman, qolaversa, piyanista Nusrat shofir qiyofasidagi anavi tentak cho'milish u yoqda tursin, soyga yaqin ham borolmaydi! O'zimni soyga tashladim. Suzib, narigi qirg'oqda yarim ildizi suv betida sochdek taralib yotgan tolning panasiga o'tib oldim. Shalpangquloq soyga yetar-yetmas, ko'krigidan birov itargandek to'xtab qoldi. Ko'zlari alang-jalang, kaftlarini og'ziga karnay qilib qichqirdi, ovozi soyning shovqinida yo'qolib ketdi... Keyin oyog'i kuygan tovuqdek qirg'oqning u boshidan bu boshiga shaytonlab yugura boshladi. Meni suv oqizdi, deb o'yladimi, yerga dumalab chunonan boshlarini mushtlasa... «Battar bo'l, — dedim yal-yal yonib, katta ildizga osilganicha huzur qilib, oyoqlarimni suvda shaloplatdim —

birovlarning o'takasini yorish shunaqa bo'ladi, o'yin nimaligini bilmagan, jinni!»

Ammo kutilmaganda... shalpanquloq sakrab turdi, soyga qo'rqa-pisa yana alangladi, boshini quyi solgancha uch-to'rt qadam yurdi-da, to'satdan orqaga burildi, yugurgancha kelib, o'zini hayqirib oqayotgan soyga tashlasa... Dodlab yubordim. Qo'rqqanimdan ovozim bo'g'zimda qoldi. U suv betiga bir qalqib, ko'rinmay ketdi! Men dahshatda suvga sho'ng'idim... Qayerda, qay ahvolda — qo'lidanmi, oyog'idanmi sudrab qirg'oqqa arang olib chiqqanimni bilaman! Boshini pastga nishab qilib yotqizdim. Og'iz-burnidan g'araq-g'araq suv keldi. Allamahalda ko'z ochib, yana behol yumdi, og'ir entikib, xo'rsindi.

— Cho'kding deb...

Ko'zlarimga tirqirab yosh keldi, uni bag'rimga bosib, sepkil yuz-ko'zlaridan, shalpanquloqlaridan o'pa boshladim!.. Keyin... yana daraxtda paydo bo'lganda, voajab, o'zimning ham endi tutning tagidan ketkim kelmay qoldi! Shalpanquloq odatdagidek har kuni erinmay tut yig'adi. Mening sho'xliklarim ichimga sig'maydi. Sholchaga chalqancha dumalayman. Ko'zlarimni chirt yumib, og'zimni katta ochaman. Shalpanquloq hovuchidagi tutni bitalab pastga tashlashdan erinmaydi. Qilmishimizdan shunaqa zavqlanardikki... Bir kuni tutning tagida uzoq qolib ketdik... Kentik oy qalqidi, atrofida birin-ketin yulduz miltiradi. Hademay tut ham tugaydi, deb xomush o'tirganimda qorong'u shox-shabba qa'ridan shalpanquloqning hazin ovozi eshitildi.

— Eh, ketib qolsam... kim terib beradi?

— Qayoqqa, nega?!

— Dadamning ishi tog'ma-tog' yurish... Hoy, osmonga qara, yulduzlar ko'pki, g'uj-g'uj, qayerda bo'lsam shularga qarab... Sen ham qarab-qarab qo'y... Voy-ey, teppamda bir dona katta tut bor ekan!

Shalpanquloq shoxni silkitib, o'rnidan qo'zg'aldi. Ko'nglim g'ashlanib, «qo'y» dedim. Ko'nimadi, yuqoriga qo'l cho'zganda to'satdan qalqib ketib, o'zini o'nglay olmay, yonimga gursillab tushdi! Oyoq-qo'lini taxtakachlab olib ketishdi. Ortiq ko'rmadim, o'rtoqjon, ko'ra olmadim...

... Nabiram hovliqib kirdi.

— Hoy buvi, butilkachi chol devona emas ekan, bolalarga saqich olib berganmish!

— Ajab, — deb qo'ya qoldim, ammo boshqa safar nabiram iljayganча bamaylixotir kelib, menga uzoq razm soldi.

— Ko'chaga bitta qarang, buvi!..

Deraza peshtaxtasiga tirsagimni qo'yib alangladim: chamasi o'n-o'n besh quloch naridagi majnuntolga suyanib, cho'q-qaygan notanish odam menga ko'zi tushar-tushmas qopchig'ini qoldirdi-da, ro'paramga kelib, uzoq tikildi.

— Bormisan, omonmisan, Qurbongul, — desa, hoy o'r-toqjon, yurakkinam qindan chiqayozdi! Pastda, menga javdirab turgan qosh-ko'zlari, soqol-mo'ylovlari oppoq odam bir mahallar do'ppi-do'ppi tut terib bergan, meni deb soyga cho'kayozgan o'sha sepkil yuzli shalpangquloq edi, azbaroyi xudo, hazin tovushidan tanidim! Hovliqib, shoshib, kap-katta odamni «o'zing omonmisan, shalpangquloq» deyishimga oz qolsa!

Uyga taklif qildim.

Beozor bolaligimiz yodimizga tushib, uzoq jim qoldik. U og'ir xo'rsinib, ma'yus jilmaydi.

— Shu zayl so'roqlab, seni izlamasam boshqa iloj topolmadim, — deb qo'ydi xijolat chekkanday, — ismingni... nabiramga qo'yganman, Qurbongul... seni topdim, shukr, ko'rdim, armonim qolmadi.

Ertasi yana keldi, tolning tagida yana uzoq cho'qqayib o'tirdi, taklif qilgani qizim, kuyovimdan iymandim, patnis bilan bir choynak choy chiqardim...

... Boshqa ko'rinmadi, haftalab ilhaq bo'ldim, kelmadi. Majnuntol ham allanechuk sho'ppayib qolganday, g'arib ko'rindi ko'zimga!..

Nevaramning yangi gapi esa ko'nglimni vayron qildi.

— Anovi, dovdிரagan chol-chi, men bilan o'qiydigan Qurbongulning qishloqdagi buvasi ekan!

Nabiram qotib-qotib kuldi:

— Qarang, «shaharda yulduzlar xira ko'rinarkan, qishlog'imda charaqlab turadi», deb darrov qishloqqa ketib qopti!

Ketib qopti! Bo'g'zimga bir narsa tiqilib keldi, arang ushladim o'zimni. Bechora shalpanquloq, soch-soqoli oqarsa ham yulduzlarga boqishni unutmabdi!

— Baribir devona ekan, — deb nevaram o'zicha xulosa yasagan bo'ldi. Shundayin devonalar bo'lmasa, vojab, bevafo, o'tkinchi dunyo shunchalar shirin bo'larmi, deyman. Mudragan ko'nglimga quyilib kelgan ajib his-hayajondan vujudim yayrab ketadi; odam kuch-quvvatdan qolib, beli bukchayganda uning qaddini tutadigan kuch beozor bolalikning musaffo xotiralari ekan!

...Oy qalqiydi, osmon-u falak yana g'uj-g'uj miltiroq yulduzlarga to'lib-toshadi, qayta-qayta qarayman, javdirayman, talpinaman: shularni ko'rish baxtidan benasib etma!



Asqad akaning anjiri

Kuz oxirlab qolgan edi: biz tomonlarda allaqachon yog'ingarchilik mavsumi boshlanib, bir-ikki qor o'tgan. Kavkaz tizma tog'lari etaklariga joylashgan Kislovodskda hamon iliq-issiq kunlar davom etardi, bu yerning muloyim ob-havosi ko'ngillarga xush yoqib, tabiati ayni yozni eslatardi: sharqirab oqqan ariq bo'ylaridagi o't-o'lanlar, tog' yonbag'ridagi archa, sadalar, qadamingizda uchraydigan eman daraxtlari hali ko'm-ko'k. Shahar bilan tog' oralig'i bir necha chaqirim bog' ko'cha: ikki betida chaman bo'lib yotgan anvoyi gullar oftobda ming bir xil tovlanadi. Etaklari xiyobonga tutashgan «O'zbekiston» sanatoriyasi bir haftaki, serfayz va gavjum. Paxta yig'im-terimidan qutulgan ba'zi viloyat kazo-kazolari xotin-bolalari bilan birga, «baquvvat» bir-ikki rais oshna-og'aynilarini ham olib kelishgan. Xullas, maishat joyida, o'yin-kulgi avjida. Gurunglarda aksari suhbat mazmuni «to'rt kishi oltmishta bedana-kabobni paqqos tushiribmiz. Hash-pash deguncha to'rtta «oq», ikkita «armancha»ni quritibmiz»dan nari o'tmaydi. Sandiqdek-sandiqdek chamadonlar bilan tashrif buyurishgan yangalar ham vaqtlarini zoye ketkazmay, basma-basga bir necha bor tovusdek tovlanib chiqishadi. Ba'zi erlar xotinlaridan o'zadi, o'ttiz besh yoshlardagi xomsemiz, dimog'dor mansabdor xudoning bergan kuni ikki marotaba kastum o'zgartiradi: bir hovuch kishilar bu yoqlarga dardiga davo izlab emas, kiyimboshini ko'z-ko'z qilish, maishatda xarala-tarala vaqt o'tkazishga kelishganga o'xshardi. Ko'nglimga yaqin hamroh topolmay, diqqinapas bo'lib yurganimda, to'satdan oshxonada paydo bo'lgan Asqad akani ko'rib quvonganimni qo'yavering. Egnida ko'p marotaba yuvilib, havorang tusini birmuncha yo'qotgan nimdosh sport kastumi — ko'pincha bahor-kuz oylari dala hovlida shu korjomada ko'rganman. Ostonada turib,

aftidan, biron tanish-bilish, bo'sh joy qidirardi. Salom-alikdan so'ng chekkaroqdan xoliroq joy tanladik... U kishini tanirdim, ammo yaqindan bilmasdim. Odamning avra-astari yo'l mashaqqatini birga chekkanda yo yonma-yon yashaganda ayon bo'ladi.

Asqad aka sabr-hardoshli, bosiq, yurish-turishi, muomalasi soxta va bachkanalikdan xoli, tabiati birmuncha yol-g'izlikka moyil, aql-zakovatda xudo yorlaqagan inson edi. Haqiqatni yoqtirardi. Samimiylikni juda qadrlardi. Shu kimsaning ham yomon ko'rganlari bo'lganmikin? Bo'lgandir, deyman. Ammo shuncha birga bo'ldik, biron odamni orqavorotdan chalpigani, yomon otliqqa chiqarganini eslamayman. Benazir qalam sohibi kamtarin va soddadilligi, hayot tarzining oddiyligi bilan ham ibratli edi.

...Stolimizda yana bir yoshi noaniq, ikki chekkadagi siyrak sochlarini qoraytirib yuradigan, past bo'yli, miqti gavdali odam o'tirardi, hali Jeleznovodskka, hali Pyatigorskka qatnab, bitta yangi galstuk taqib kelmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi — shu galstuk «jinnisi» dab-durustdan so'rab qoldi:

— Sira galstukda ko'rmayman...

Asqad aka kuldi:

— Ha, endi, shu mushkul vazifadan ham picha dam ola qolaylik deb... uyga yechib kelgandik...

— Did bilan galstuk taqqanda gap ko'p, hozir odam shunisiga qaraydi, — dedi hamstol nasihatimiz, — katta-katta dargohlarda ko'p ishlaganman, gapning po'stkallasi, o'zim ham qabulimdagilarning shunisiga ko'proq e'tibor berib, muomala qilganman.

— Dono rahbarlardan ekansiz, — deb qo'ya qoldi Asqad aka.

Asqad Muxtorning yaxshi fazilati — nasihatgo'ylikni, birovlariga aql-farosat o'rgatishni yoqtirmasdi. O'zini hamisha odmi tutib, boriga qanoat qilib yashardi... Ba'zan tushlik oxirlashga yaqin, xomsemiz mansabdor odamlarning ko'ziga ham bir ko'rinay deb, maishatdan qayta turib, birrov oshxonaga kirib o'tardi. Stoldagi ovqatni vilka bilan tovuqqa o'xshab titkilab o'tirishi... Asqad akaning g'ashiga tegardi. Hamstolimizning qiliqlari hammadan oshib tushdi. Ertalab burda-

langan yumshoq nonni suvi qochgan deb tushlikda stoldan oldirib tashladi.

— Galstukda kuyib-pishib ovqatlanish qanchalik foydaziyon bilmadim, — dedi Asqad aka toqati toq bo'lib, — ammo suvi qochinqiragan nonni salomatlikka ko'p foydali deyishadi!

Oshxonadan chiqqanda:

— Hah, bebiliska pul qursin, — deb qo'ydi Asqad aka achinish bilan, — tuppa-tuzuk odamlarni qay ko'yga solmaydi.

Shu-shu galstukparast bo'lar-bo'lmas janjalni bas qildi, oshxona xodimlari ham xarxashadan qutulishdi.

Ertasi nonushtaga Asqad aka chiqmadi, xonaga kirsam ikki qavat adyolga o'ralib yonboshlab yotibdi. Adyolning chekkasidan mo'ralab boshini ochdi: afti-angori hammomning issiq xonasidan chiqqan odamnikiga o'xshardi.

— Vannada shamolladimmi... kechasi qattiq isitmaladim, shekilli... doktor ikki-uch kirdi.

— Nega chaqirmadingiz?

— Bezovta qilmay deb...

Asqad akaning biroz tortinchoq, sag'al narsaga iymadigan odati bor edi. Shu tobda yonboshlab nimanidir qoralayotgan ekan! Qilmishidan biroz o'ng'aysizlanib:

— Ermakka... tarjima qilayotgan edim, — deb qo'ydi.

— Shu ahvolda?!

— Jurnaldagilarga bitkazib kelaman deganman... Vaqt o'tib qoldi... ish o'lda-jo'lda.

Men uning isitma aralash muk tushib ishlayotganiga ajablanmadim. Asqad aka va'daga vafo qiladigan inson edi, har qanday vaziyatda ham so'zining ustidan chiqqan. Uning bunday fazilatini radio dargohida chorak asr ishlash mobaynida ko'p marotaba shohidi bo'lganman. Qolaversa, vaqt deb atalmish noyob ne'matni juda qadrlaydigan ijodkor edi u.

Qarang, xastalikda tatarchadan katta bir asarni o'zbekchaga o'girdi, Toshkentda boshlagan dostonni, chamamda, ikki haftada tugatdi. Qator she'rlar yozdi — men bilganlarim! Bu odamga mehnatning chegarasi bo'lmagan. Bularni aytishimning boisi — hali qog'oz betiga tushmagan qancha niyatlari, ushalmagan orzu-armonlari, yurak bag'rini o'rtagan dard-u

alamlari bo'lgandir uning — ko'nglining yarmini ham bo'shata olmadi chog'imda. Insonga berilgan vaqt munchalar qisqa!

Bir kuni qiziq bo'ldi. Nonushtadan so'ng «Shamollab kelsakmikin», dedi Asqad aka tog' saylini qo'msab. Narsalarni olgani xonalariga o'tib, u kishi hayallab qoldi, men hovlida — butlarning orasidagi joyda kutib o'tirdim. Oshxonadan chiqqan bir gala kishilar gulzordagi skameykalarga yig'ilishdi. Oralarida dimog'dor mansabdor ham bor edi. Hazil-huzul, askiya tugab... mansabdor so'rab qoldi:

— Hoy, anavi uzun-qisqa yurgan bechorahol odamlar kim ekan?!

— Nega so'radingiz?

Mansabdor qiqirlab kuldi.

— Sho'ring qurg'urlarning chumoliga o'xshab tog'ga o'rmalab chiqqanini ko'rsam... e, dunyoga o'nta kelasanmi, uch-to'rt so'mni bahridan o't, ko'cha to'la mashina, birpasda boradigan joyingga tashlab keladi... degim keladi!

— Naynovini bilmadim, — dedi sherigi, — past bo'yligi Asqad Muxtor degan yozuvchimis.

— Be, nima deyapsiz, — gapini bo'ldi mansabdor har kuni yozuvchi bilan ulfatchilik qilib yuradigan odamdek, — uning katta bir kitobini bosh hisobchining stolida ko'rganman, shu jussasi kichkina odam yostiqdek kitob yozgan ekanmi?! Asqad Muxtor deganlari boshqa bo'lsa kerak!

Oqizmay-tomizmay yuqoridagi voqeani yo'lda Asqad akaga aytdim, toza kuldik.

— Kitobimni o'qimasa ham ko'rgan ekan-ku, shunisiga ham shukr, — dedi u.

Sayildan qaytsak, hamma yoq saranjom-sarishta, darvoza oldilari, echkning shoxidek ikki tomonga ayrilgan so'qmoq yo'llar supurilib, suv sepilgan. Oshxonaga chiqadigan zinaning ikki tomonida quchoqqa sig'maydigan sopol tuvaklardagi xitoy gullarining shapaloqdek-shapaloqdek barglari yuvilib, hatto artilganini ham aytishdi! Bilsak, Jeleznovodskda dam olayotgan Sharof Rashidov sanatoriyada qurilayotgan yangi inshootni ko'rish niyatida ekan. Oshxonadagi eski-tuski paloslar olinib, yangi guldor qizil gilamlar solingan, stollarda ohori

to'kilmagan qordek oppoq dasturxonlar, labi uchgan idish-tovoqlar o'rnida Toshkentning paxta gulli chinnilari, qayerga qarasangiz, dasta-dasta anvoyi gullar, hatto deraza peshtax-talariga ham qo'yilgan. Asqad Muxtorning zavqi kelib ketdi.

— Sharof aka kunda kelsinlar-e.

Peshindagi maishat vaqtincha to'xtatilgan shekilli, mansabdor jo'ralarini ergashtirib tushlik qildi. Hamstolimiz hammadan keyin oyog'ini arang sudrab keldi. «Minvoda»dan (elektr poyezdda yuz chaqirim masofa!) «antiqasini» topibdi.

— Kelganlarida taqaman! — deb qo'ydi.

Aytilgan vaqt-soatda ikkinchi korpus oldidagi maydonchaga yig'ilishib, Sharof Rashidovni qarshiladik. U kishi oddiy kiyimda, galstuksiz, kastumini bilagiga tashlab olgan, hamma bilan salomlashgancha pastroqdagi so'qmoqdan o'tib borarkan, odamlar orasida turgan Asqad Muxtorga ko'zi tushib, qadami sekinlashdi, shu tobda rahbarlikdan ko'ra yozuvchiligi ustun kelib, ko'ngli hamkasb odamga bir talpindimi, hamrohlarini hayratda qoldirib, to'satdan burilganda... Asqad aka peshvoz chiqib ko'rishdi...

Shundan keyin Asqad Muxtorning obro'-e'tibori birpasda dimog'dor mansabdornikidan yuz marotaba, yo'g'-e ming marotaba oshib ketsa! Kechagina bir hovuch kazo-kazolar nazariga tushmagan bu past bo'yli, ko'zoynak taqqan, odmigina kiyim-boshda, parishonhol yurgan kimsani hamma «tanisa» qo'ysa! Hammadan mansabdor dog'da qoldi. Kechki ovqatdan chiqsak, shu atrofda aylanib yurgan shekilli, uzoqdan Asqad akaga qo'llarini cho'zib keldi:

— Birinchi bo'lib ko'rishgan muborak qo'llaringizni bir olay, akaxon!

Kazo-kazolar orasida «domlajonning shirin suhbatlariga mushtoq»lar ko'payib qolishdi!

Hah, xom sut emgan bandalar!

Soxta, bachkana xushomadgo'ylikni nozikta'b Asqad akaning mijozlari sira hazm qilolmasdi. Ertasigayoq «keling, keling, shulardan nariroq yuraylik» deyishga tushdi, endi bo'sh vaqtimizni ko'proq tog'da o'tkaza boshladik. «Mehmondorchilik navbati meniki, — deb qoldi Asqad aka

bir gal,— doim chaqqonlik qilib, meni dog'da qoldirasiz, cho'ntaklarni bo'shatib chiqing». U kishi aytganlaridan ziyoda qilib hamyonni quritib, adyolni qo'ltiq lab chiqdim...

Kislovodsk shifo suvi, toza, mo'tadil ob-havosi, betakror «terenkuri», ya'ni har ikki-uch metr masofada bir-bir yarim qarich yuqoriga ko'tariladigan maxsus aylanma yo'llari bilan mashhur. Bu joyga odamlar shuncha pul sarflab, mansabdor demoqchi tog'ga mashinada chiqish uchun emas, aksincha, maxsus so'qmoqlarda yurib, yurak mushaklarini chiniqtirish uchun kelishadi.

Har kungi manzilimiz — cho'qqining yarmi, yuqoriga chiqib-tushgan odamlarning birpas hordiq oladigan joyi edi. Bu yerda pishiriladigan kavkaz kabobiga ta'rif yo'q. Kichkina do'konchada muzqaymoqdan tortib, Kavkazning barcha noz-ne'matlari muhayyo. Ishqibozligimiz — tog' biqinidagi sathi ikki bo'ya yassi tosh. Undan shaharning yarmi kaftdek ko'rinadi, uch-to'rt terak pastda kumush tasmadek cho'zilgan soy, undan narida gugurt qutidek ko'ringan mashinalar har tomonga o'rmaydi. Muhimi — qarshingizda oppoq cho'qqilari havoga xanjardek sanchilgan buyuk Elbrus tog'i bor salobati va jozibasi bilan namoyon bo'ladiki, odamni hayrat va hayajonga solmay qo'ymaydi. Adyollarni yassi toshga solamiz. Asqad aka oyoqlarini quchoqlab, oppoq cho'qqilardan ko'z uzmay o'tiradi. Men yonboshlayman. Quyosh tik kelib qolgan, qizdirmaydi, yo'q, ilitadi. Tog' shabadasi bir esib, bir to'xtab... allalaydi, onasining qo'ynida yotgan chaqaloqqa o'xshab, meni shirin mudroq bosadi.

— Ming yillar avval Elbrusni kimlardir shu joydan tomosha qilgan, — deydi Asqad aka o'ychan, — bugun biz o'tiribmiz... Qiziq, yana shunchadan keyin kimlar bu joylardan mangu qor cho'qqilarini tomosha qilarkin?!

Uning xayollari ming yillar og'ushida charx urardi. Said Ahmad akaning «Asqadning sochidan tirnog'igacha falsafa» degan gaplarini beixtiyor eslayman. Xayol ummoniga g'arq bo'lgan Asqad aka mehmondorchilikni butkul unutmikan, deyman, yo'q, Asqad aka ziyrak odam, darhol qo'zg'aladi. U kishi muzqaymoqqa, meva-chevaga o'ch edi; o'ylaga-

nimdek, mehmondorchilik ikkitadan non, stakanli muzqaymoqdan boshlanib, yarim soatlar o'tib, o'rtaga qo'yilgan bir yarim kilo mandarinning hash-pash deguncha po'chog'i qoldi, muzqaymoq baribir chanqovni bosa olmadi.

— Endi, — dedi Asqad aka, — bir shisha-bir shisha «narzan» ichaylik...

Asqad aka suvga borib, anchadan keyin bo'shashib keldi, jimgina joyiga o'tirib, oyoqlarini quchoqladi, bir narsa qattiq ta'sir qilib kuldi.

— Aytmasam bo'lmas... Hay, mayli... faqat Asqad Muxtor g'alatiroq odam ekan, deb Toshkentda hammaga gapirib, kulmasangiz bo'lgani!

— Yo'g'-e?

Asqad aka tushmagur boya bir yarim kilo mandarin xarid qilganlarida roppa-rosa o'n besh kilo mandarinning pulini tashlab chiqqan ekanlar. Sotuvchi quvlik qilganmi — yaratganga ayon. Binoyidek boshlangan mehmondorchilik shu nuqtada to'xtatildi va ko'p xijolat tortib, Asqad aka «ertaga shu joyidan davom ettirsak» deb taklif qildilar. Nachora, o'tirishni sovitmay desam, yonimda hech vaqo yo'q. Yodimga bir voqea tushib ketdi. 50- yillar o'rtalari bo'lsa kerak, men ishlagan tahririyat bilan yonma-yon xonaga joylashgan «Qishloq xo'jaligi» bo'limiga ajoyib jurnalist Hakim To'rayev (urush ko'rgan, oq ko'ngil, bag'ri keng inson edi) boshchilik qilardi. Bir kuni tushlikka chiqqanimizda gap aylanib, shu odam Asqad Muxtor haqida minnatdorchilik bilan gapirib qoldi. Urushdan keyingi og'ir qiyinchilik... Asqad Muxtor radiodagi kamxarj oshna-og'aynilarini ko'p yillar moddiy qo'llab yurgan. Qalam haqini tilxat bilan ularga berib qo'ygan. Oshna-og'aynilar bu pullarni haftada bir-ikki tuzukkina ovqatlanishga, radiojurnalist Abdurahim Alimovning ta'biricha «shohona tushlik»ka ishlatishar ekan.

— Keyinchalik, biroz qaddimiz tiklanib, — dedi Hakim aka, — Asqadning ham oilaviy bo'lganini o'ylab, minnatdorchilik bilan tilxatni qaytarib berdik.

Voajab, shularni eslab, qolaversa, bu kimsaning mohirona qalam tutishga o'rgangan qo'llari pul sanashga qovushmasligini

ko'p marotaba shohidi bo'lib, uning ma'sum tabiatidan zavqlandim — qaniydi, bu shafqatsiz dunyoda shundayin insonlar ko'proq bo'lsa!

...Muddatim tugab, uyga jo'nash oldidan so'radim:

— Biror xizmat bormi?

— Malol kelmasa, — dedi Asqad aka o'ylanqirab, — Roza opangizga telefonda «Yaxshi yuribdi» deb qo'ysangiz, ha, mabodo «ishlayaptimi» deb qolsa, «uyqudan bosh ko'tarmaydi» deng.

Hazil-huzul gapmi desam, yo'q, telefon qilishim bilan Roza opa tashvishlanib, aynan shuni so'radi va men Asqad aka o'rgatgan gapni aytdim. «Mayli, dam olsin, — Roza opaning ko'ngli taskin topdi, — charchagan, to'yib-to'yib uxlasin».

Bir kuzak yozuvchilar bog'iga chiqsam Asqad aka hafসা bilan dala hovlida anjir ko'mayotgan ekan, anjirning tarvaqaylagan shoxlari yig'ishtirilib yopilgan, ildiz yon-atroflari qolgan edi. Besh-olti kurak tuproq tashlashdim. Yon-atrofini shibbaladik. Roza opa choy damladi. Hovlida choy ichdik.

— Qay bir yili Ibrohim Rahim bir dasta qalamcha ulashganda men ham ekan edim, — dedi Asqad aka, — bo'lganini qarang!

Anjirning qalamchadan o'sishini bilmasdim. Ertaroq kelsam ildizga yaqinroq joydan ikkita kaltak olarkanman, kelasi yil olaman endi, deb achindim:

— Anjirxo'rlikka bir yil kechikdim!

Xonamda bir uxlab tursam, allakim eshikni qiya ochib, «pastga tusharkansiz», deb o'tib ketdi. Tushsam... Asqad aka, qo'lida gazetaga o'ralgan bir dasta novda. Bularni, boya aytishim bilan olib berarkan-u, ammo meni ishlatib qo'yishdan iymanib, ketishim bilan anjirni qayta ochgan!

— Mana, — dedi Asqad aka, — bir yil kechikmay anjirxo'rlik qiladigan bo'ldingiz!

Behad hayajonlanib ketdim, gap ikkita kaltakda emas, odamning ko'nglida!

— Hosili — tengsherik!

— Hozircha o'zimiznikini eplab turaylik, — deb kuldi Asqad aka.

... Oylar, yillar lochin qanotining bir silkinishidek o'tdiketdi. O'ttiz-o'ttiz besh yillar burun ekilgan novdalar katta daraxt bo'ldi. Uzun narvon bilan ham tepasiga yetolmayman. Har yili ikki bor hosil uzaman va har gal bir armon ko'nglimni, o'rtaydi: attang, to'rttagina anjirni bargiga solib, Asqad akaga olib borolmadim...

...Bag'rikeng inson edi

Shu joydan o'tsam hashamatli radiokonsert zali o'rnida bir mahallar hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan bir qavatli eski, ko'rimsiz bino ko'z o'ngimga keladi. «Xorazm ko'cha, 49- uy, radio» atalmish ushbu dargohning eshigini kimlar ochmadi va ezgu niyatda ostonasidan hatlamadi?! Biz ham O'lmas Umarbekov ikkovimiz 50- yillar o'rtalarida shu joyda panoh topdik.

Radioga G'ayniddin Najimov rahbarlik qilardi. U maydachuyda gaplarni sira yoqtirmasdi, xodimlarni ishiga qarab qadrlaydigan, bir so'zli, qattiqqo'l, ammo mehr-oqibatli, halol inson edi. Shu rahbar bolalar uchun eshittirish tahririyatini ikkovimizga ishonib topshirdi, ishga sho'ng'ib ketdik. Jamoa asosida tayyorlanadigan maxsus katta radio dasturlarga ham ora-chora qatnashib turardik; chunonchi, paxta yig'im-terimi boshlangan kezlari taniqli olim, shoir va yozuvchilarning chiqishlarini uyushtirishga ko'maklashardik. Bir gal shunday dasturga G'afur G'ulomning tabrik so'zlarini yozish zaruriyati tug'ildi. U kishining to'satdan radioga tashrifi esa mushkulimizni osonlashtirdi. G'afur akadan terimda peshqadam viloyatni ikki og'iz tabriklashni so'radik, u kishi «uyushma yig'iniga kechikmasmikanman» deb o'ylanib qolganda, O'lmas eslatdi: «O'tgan yili terimda oqsagan shu viloyatni o'zingiz qattiq tanqid qilib, kelgusida ishlaring rivoj topsa, ajab emas o'zim tabriklasam, degansiz». «Ha-ya, — xotirladi G'afur aka, — «O'zbeksan, demakki, belingda belbog'ing bor, shunga munosib ish tut» deb qattiq-qurum gapirganman, ke, shularning ko'nglini tog'dek bir ko'tarib qo'yay», — dedi tantiligi tutib. O'n besh daqiqada uch nusxa

tabrik tasmaga tushirildi, so'nggi nusxa G'afur akaga ma'qul bo'lib, mayli, biroz epaqaga keltirib (montaj qilib demoqchi), shunisini eshittirsa bo'lar, dedi...

Ertalab soat 11 da ilg'or viloyatga bag'ishlangan maxsus dastur boshlandi. Biz ham xonamizda, uch tabaqali katta deraza ostiga qo'yilgan eski divanda, g'ishtdek qora qutichani o'rtaga qo'yib eshitdik. Sho'x kuy-qo'shiqlar yangradi, paxtakor el-yurt sha'niga she'rlar o'qildi, peshqadam viloyat ahliga iliq gaplar aytili. Mashhur suxandonlar Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva va Qodir Mahsumovlar (ikkovi benazir san'-atkor edi) yuqori martabali mahkama tabrigini baland ruhda o'qidilar. Va nihoyat, Tuyg'unoy opa shoir G'afur G'ulomga so'z berganda G'afur aka kuni kecha tasmaga tushirilgan tantanali so'zlar o'rniga... yo alhazar, o'tgan yili shu viloyat sha'niga aytgan achchiq-achchiq ta'nalarni qaytara boshlasa! O'lmas ko'zlarini dahshatdan ochganicha qotib qoldi. Men es-hushimni yo'qotayozdim. Nima gap, nima bo'ldi?! «Fonotekada» ikkala tasma yonma-yon turgan-u almashib ketdimi?! Shunaqaga o'xshardi! Qaysi mard-u maydon tasmani to'xtata olardi, ammo buning iloji bormidi?! Uch daqiqali vaqt yil azobidan battar bo'ldi. Ko'p o'tmay kuylar yana qo'shiqqa ulandi. Sodir bo'lgan voqeani birov payqadimi-yo'qmi — xudo biladi. Ammo boshimizga og'ir to'qmoq tushgandek, hadeganda hushimizni yig'olmadik. Bu gaplar, balki bugun arzimasek tuyular, ammo davrning etni jun-jituvchi achchiq shamollari o'tgan esa-da, hali noxush shabadalari o'qtin-o'qtin o'zini eslatib turgan bir paytda bunaqa narsalar bilan hazillashib bo'lmasdi! Ammo hozir bu narsa bizni tashvishga solmasdi, G'afur akaga nima deymiz, shar-manda qildik-ku, yuziga qanday qaraymiz — shunisi ezardi!

— Eski tasmani o'chirib tashlasak bo'larkan, — dedim afsuslanib.

— Ha-ya, mening ham xayolimga shu narsa keldi, — dedi O'lmas, — ammo, azizim, o'ylab ko'r — G'afur G'ulom-ku! Uning hamma so'zi saqlanishi kerak, shuning uchun «saqlansin» deb yozdirib qo'ygan edim.

Aslida u haq edi, bunday bo'lishi kimning yetti uxlab tushiga kiribdi! Biror joyingiz tilinsa, og'riq-alamlari keyinroq

bilinadi. O'ylagan sari ichimizni sovuq titroq bosardi. Xayolimda hozir eshik qarsillab ochiladi, yo telefon dahshat bilan jiringlaydiganga o'xshardi. Derazani ochdim. Bir hafta avval qo'sh-qavat rom orasidagi qiyshiq sim panjarani almashtirish uchun pastga — hovliga tushirib qo'yishgan edi. Kuzning muzdek havosi xonaga yopirilib kirdi. Misdek qizigan boshimizni sovitib, hushimizni biroz joyiga keltirdi. Shu zayil qancha o'tirdik bilmadim, to'satdan G'afur akaning ovozi kelganga o'xshadi. Sapchib turdim. Eshikni qiya ochib... Qay ko'z bilan ko'rayki, G'afur aka «Qishloq xo'jaligi» bo'lim boshlig'i Hakim To'rayev bilan yo'lakda gaplashib turardi! Orqaga o'g'rilsam... O'lmas yo'q! Men ham jon-jahdda eski divandan o'tib, deraza peshtaxtasiga chiqqanimda eshik «qars»illab ochildi. Ostonada G'afur G'ulom paydo bo'ldi:

— Ha, yo'l bo'lsin?!

— O'zim, — dedim dovdirab, — o'zim, shundoq...

— Ho, — dedi G'afur aka, — eshikdan yursang, eshik orqadan tanbalangan ekanmi?

G'afur aka qo'lidagi qora charm papkani «taq» etib stolga tashladi va divanga og'ir cho'kdi.

— Xo'sh, o'zing bilan gaplashaymi yo sheriging bilan qo'shib gaplashaymi?

— Xohishingiz...

— Unda yerning tagidan bo'lsa ham topib kel, — dedi G'afur aka, eshikning bandini ushlashim bilan to'xtatdi, — avval bitta ko'k choy damla-chi!

Xitoyning toza 95 choyi faqat Xadicha degan uyg'ur mashinistka ayolda bo'lardi. Shundan bir qaynatim deb, choy qutisidan 3—4 qaynatimni choynakka soldim, yo'lakda vaqillab qaynab turgan bakdan suv quydim, choynak- piyolani G'afur akaning oldiga qo'yib, xonadan chiqayotganimda tayinladi.

— Ayt..., kutgani G'afur G'ulomning vaqti yo'q ekan, degin!

Qidirib ketdim. Radio uyining hamma yog'ini qaradim, topolmadim. Mudom oyoq ostida ivirsib yuradigan ko'zi shilpiq bir xodim bo'lardi, gapi bo'lsa odamning betiga qarab aytmasdi, orqa yo yon tomonidan kelib qulog'iga pichirlardi.

Shu shilpiq ko'z «Sherigingiz shamoldek sho'ng'ib, chiqib ketdi», dedi. Hovlida alanglab tursam, etakdagi chinorning panasidan O'lmas bir qarab qo'ydi. Borsam, oyoqlarini ariqqa tashlab, chinorning yerdan turtib chiqqan ildizida o'tiribdi. Menga xavotirlanib qaradi. Yoniga jimgina cho'qqaydim. Uning qalin qoshlari o'rtasiga tugunchak tushdi, bilinar-bilinmas «uh» tortdi, papiros tutatdi.

— Biron narsa dedimi?!

— Top, dedi, kutgani vaqtim yo'q dedi, keyin... choy, dedi.

— Achchiqroq damladingmi?

— Choynakka Xadicha opaning yarim quti choyini soldim.

— Yaxshi qilibsani, — dedi u, — pul olsak unga bir quti choy olib beray, sen ham bir quti olib ber!

Oradagi uzin-yuliy gap-so'zlar yarim kechada ko'chadan o'tgan yo'lovchining qo'rqqandan aytgan ashulasiga o'xshash tuturiqsiz edi, ammo na chora, G'afur G'ulomga ro'para bo'lishdan o'zga iloj qolmagandi. Xonagacha qisqa masofani bamisoli birov bo'ynimizga arqon solib sudraganday arang bosdik.

— Bo'lar ish bo'ldi, — dedi O'lmas, — bunaqada «miq» etmagan yutadi.

— Rost aytasan.

— Har qancha koyisa G'afur aka... haqqi bor.

Bularni O'lmas mengami yo o'zini yupatish uchun aytdimi, bilmasdim. Oldinma-keyin xonaga kirsak, G'afur aka telefonda kim bilandir bemalol gaplashib o'tirgan ekan. Kezi kelganda aytay: O'lmas — bolalikdagi o'rtog'im, bir mahallada tavallud topdik. Ota-onalarimizning yaxshigina bordi-keldisi bo'lgan. Miroboddagi Abdulla Avloniy tashkil etgan 40- o'rta maktabning bir sinfida 10 yil, oliygohda besh yil birga o'qidik va radioda ancha yillar yonma-yon ishladik va hokazo.

Ayta olamanki, O'lmas madaniyatli, xushmuomala, halol va pokiza, o'qimishli yigit edi. Og'zidan sira nojo'ya gap chiqmagan, hatto tuzukkina so'kinishni ham bilmasdi, chog'imda, jahli chiqqan kezlari «e, seni...» derdi-yu, u yog'iga o'tolmasdi. G'afur aka bilan bo'ladigan muomalani esa juda joyiga qo'yardi. Uning o'ta boodoblighi G'afur akaga xush kelib

hammamizni «sen»lagan joyda uni «siz»lab, ko'rganda ajabtovur mehri tovlanib «Bek» deb atardi.

G'afur aka gapini qisqa qildi, telefon go'shagini qo'yar-qo'yimas qovog'ini uyib, afti-angorimizga razm soldi-da, uzoq jim qoldi. G'afur aka juda ta'sirchan odam edi. Uning jahli birpasda rahm-shafqatga aylanardi-qo'yardi, mana hozir ham birdan yumshab so'radi:

— Qayoqlarda yuribsiz, Bek?

O'lmas ikkala qo'lini ko'ksiga qo'yib, uzr so'rashga tushganda G'afur aka to'xtatdi.

— Sabr qiling... boya, G'afur G'ulom hamma yoqdan chalpakdek yog'ilgan maqtovlardan taltayib, kelgusida viloyat yana avvalgi holga tushmasin degan ma'noda bulturgi gaplarini atayin qaytardi, shundaymi?.. Shuni biroz kengaytirasiz, mayli, yarim betmi, bir betmi, ko'targancha qog'ozga tushiring, Bek, tabrikka qo'shib, hali soat 2 da eshittiring!

Oldinma-keyin shoshgancha xonadan chiqayotganimizda G'afur aka meni to'xtatdi. Bo'shahib joyimga o'tirdim.

— Choying «rais choy» bo'пти, — deb qo'ydi, — kecha hisobxonadan qo'ng'iroq qilishib, uchrashinlar deyishibdi, nima ishi bor ekan?

Bosh hisobchidan bilsam, G'afur akaning anchagina qalam haqi, yosh xodimaning aybi bilan aloqadan qaytib, shu yerda yotgan ekan, biror soat kutsinlar, xodima kelishi hamon yozdirib beray deb iltimos qildi.

— Yo'q, vaqtim ziq, — dedi G'afur aka, — kutolmayman, e, yana ovora bo'lamanmi?.. Anavi gollan pechkaning oldida o'tiradigan o'ris chol bormi?... O'shanga «G'afur G'ulom» deb uchta barmog'ingni ko'rsat!

Shunday qildim: qovog'idan qor yog'ilib o'tiradigan Kostya amaki ismli hisobchi chol birdan yoyilib jilmaydi, og'zida qolgan so'laqmondek sap-sariq tishini tili bilan likillatgancha, qo'shni stolda uyulib yotgan qog'ozlarni titkilay boshladi...

Kassada, aksiga, mayda pul qolgan ekan, G'afur aka bir dasta pulni sanay boshlashi bilan chol hisobxonadan chiqib, ro'parasida qaqqayib turib oldi.

— Obbo, — dedi G'afur aka, — yanglishib ketdim, bu

olmaguncha qo'ymaydi.

Cholga ikkita bir so'mlik uzatgan edi, Chol cho'ntakka soldi-yu, joyidan qimirlamadi.

— Ko'rdingmi, — dedi G'afur aka men tomonga bir qarab qo'yib, — yarimta qurg'urning 3 so'm turishini biladi-da!

G'afur aka qolgan bir so'mni ham uzatdi, chol minnatdorchilik bildirib ketayotganda yana 3 ta bir so'mlik berdi.

— Manaviga yaxshilab gazagini qil!

Kuzatgani ko'chaga chiqqanimda G'afur aka birdan xizmat qilgan sen qopsan-ku, deb yonidan 3 so'm olib uzatsa. Olishga qani g'ururim qo'ysa, olmaslikning aslo iloji yo'q, shu tobda G'afur akaning qo'lini qaytarib bo'larkanmi? Bilagimga bir botmon tosh bog'langandek arang qo'l cho'zganimda, G'afur aka ko'nglimdagini payqadimi, «Ke, qo'y, — deb pulni qayta kissaga soldi, — sen ham birovning arzandasisan... bilmay ichib qo'ysang, tovoningga qolmay».

Har qanaqa vaziyatdan ham G'afur aka yengil chiqa olardi. Hozirgi gapini muloyim jilmayib, shunday ohangda aytdiki, beixtiyor kulib yubordim. Umuman, G'afur aka bor joyda kulgu arimasdi, uning hazillari odamga botmasdi, aksincha, ko'ngilning g'uborini tarqatardi. U kelganda rutubatli xona ham yorishgandek bo'lardi — G'afur G'ulom o'zi bir dunyo inson edi!

... O'lmas radio uydan xunob bo'lib keldi. Yo'lda ko'zi shilpiq xodim uchrab «baribir bu narsaning siyosiy jihati ham bor», deb shama qilibdi.

Keyin bilsak: G'afur G'ulom shu kuni erta bilan yuqori mahkamaga taklif etilgan ekan. Ishlarini tugatib, ke, tabrikni shu joyda eshita qolay, deb bo'limga kirgan. Eshittirish boshlanib, suxandon G'afur G'ulomga so'z berganda... Hamma sarosimada qolgan, bir-ikki xodim bu joyda bo'lganimiz ham yo'q, bu hangomalarni eshitganimiz ham yo'q, qabilida ish tutib, xonadan sekin chiqib ketgan. Mas'ulrog'i tilini ostiga dori qo'yib, devorga suyangan. G'afur aka radioda ishlab ko'rmagan, ammo ehtimoliy ko'ngilsizliklar bo'lib turishini yaxshi bilardi. Ko'tariladigan chang-to'zonni darhol joyida bostirib, radioga kelgan... bir yarim soatlardan keyin yuqori

mahkamaga qaytib borib, bo'limdagilar bilan birgalikda «Qishloq xo'jalik xodimlariga atalgan dastur»da tabrikni eshitgan va yana bir bor hammani tinchlantirgan. Ular ham G'afur akaning yuzidan o'tolmay, lom-lim deyisholmagan!

O'shanda, deyman, G'afur G'ulom qattiq-qurum gapirsa, har qancha koyisa haqli edi, balki biz ham yengil tortar-midik?! Ammo bunday qilmadi, keyincha ham bu ko'ngilsiz voqeani mutlaqo eslatmadi, aksincha, esishi muqarrar sovuq shamolni baquvvat yelkasi bilan to'sib qoldi. Bag'rikenglik... shunchalar bo'lar!

Bularni O'lmas biron joyda xotirlagan yo qalamga olgan-olmaganidan bexabarman, ammo har ikkimizning buyuk inson oldidagi qarzimiz deb ushbuni minnatdorlik bilan eslamoqni lozim topdim.

Hasrat toshi

Aeroportga yaqinlashganda yo'l ikkiga ayriladi: temiryo'l yoqalab yurilsa, aeroportga, chappa burilsa, «Sariq ko'l» mahallasiga boriladi. Mahalla og'zida tramvay aylanasi bor. Uning o'rnida bir mahallar kolxoz ombori bo'lgan. Ahli mahalla joylashgan yerlardagi hosil kun bo'yi omborga tashilar, ertalab Mirobod bozoridagi do'konlarga jo'natilardi.

Zamona zayli bilan otam bir muddat omborchi bo'ldi va meni «boqishasan» deb o'zi bilan olib keta boshladi. Yumushlarim o'zimga yarasha edi: omborxonaning qo'qonarava zo'r-bazo'r aylanadigan hovlisini supurib-sidiraman, har joyda sochilib yotgan bo'sh yashiklarni yaroqli-yaroqsizga ajratib taxlayman. Yaroqsizlarini otam vaqt topib, ta'mirlab qo'yadi. Peshinga borib ish kamayadi. Aravalar tovsiladi. Otam randa-lanmagan qo'pol taxtalardan devorga taqab solingan eni kambar, bo'yi hovlining bir tomonini egallagan so'rining chekkasiga cho'ziladi, garmdori gullari yog' bosgan eski do'ppini to'rt buklab boshiga qo'yadi-da, mizg'ib oladi, bo'lmasa ish qiziganda kalovlab qoladi. Men omborga ko'z-quloq bo'laman... Yig'ilgan hujjatlarni otam bandi uzuq olataroq charm jildga joylaydi. Men uni mahkam qo'ltiqlab,

idoraning bosh hisobchisiga tashlab ketaman. Idora uzoq emas. Chorrahadan Qorasuvning oftobda mavjlanib oqishi ayqash-chayqash qalqigan muz parchalarga o'xshab ko'rinadi. Suv yoqalab borilsa, eski tegirmon yoni bilan guzarga chiqiladi. Qo'shchinor ostidagi katta choyxona kun bo'yi bo'sh, choyxo'r ko'rinmaydi. Ahyonda ko'lankadek qalqib o'tgan yo'lovchi yo' adashib guzarga chiqqan odam, yo'l ustida bir piyola choy ichgani, muttasil tish og'rig'iga yo'liqqanday lunjlari osilib yuradigan devqomat Ubaydullo firqadan cho'chiydi. O'zi esa omborxonaning kichkina choyxonasini afzal ko'rib, peshinda ikki g'ildirakli fayton aravada tushlikka keladi. Uning hordiq chiqaradigan, ba'zan raykom vakili — ko'zlari chaqchaygan oshnasi bilan ko'ngil ochadigan makoni — shu choyxona-yu omborxona yonidagi pastak derazasiga surp parda tortilgan nim qorong'i bostirma edi. Omborxonaga qancha suv sepmay, ot-aravaning keti uzilmagandan keyin, salda yana hamma yoqning tuprog'i o'ynab ketadi. «Firqa amaki so'rida o'tirganlarida ariqdan suv olmang, — deb qayta-qayta tayinlaydi choyxonachi, — suv loyqalamasin, ta'blari nozik». Kun qizig'ida hovliga suv sepish-sepmasligim firqa amakining kayfiyatiga bog'liq. Tushlikdan keyin kayfiyati yaxshi bo'lsa, choyxonachi bilan qarta tashlashadi, yonboshlab besh-olti quloch naridagi shoxlari tarvaqaylagan tolning tanasiga sadaf sopli pichog'ini irg'ita boshlaydi, buning shunaqa mashqini olganki, har gal pichoq mo'ljalga bexato tegadi. Choyxonachi qiyqirib, «mergansiz, firqa aka, jumlayi jahonning tanho merganisiz», — degancha pichoqni toldan sug'urib keladi. Firqa amaki kayfiyati bo'lmagan kunlari so'rida ko'rinmaydi hisob. Men paqirni olib ariqqa yuguraman...

Bugun firqa amakining mudrovi pastroqqa o'xshaydi. Chorrahada ko'ringan cholga e'tibor ham bermay, sim karavotga birpas o'zini tashlab olgani bostirmaga kirib ketdi. Chol qornini changallagan qora terga botib keldi-da, belbog'i qatidagi shishani avaylab chiqarib, choyxonachiga tutdi.

— Zo'ri-ku... Ashir tog'a!

Ashir tog'a ariq bo'yiga cho'qqayib yuvindi, qirq yamoq qiyiq bilan yuz-ko'zini artdi, tolning yerdan turtib chiqqan

beso'naqay ildiziga o'tirib, tanasiga horg'in suyandi. Ko'zlarini yumdi. Boshini ko'ksiga tashladi. Ziyofat kunlari chol nozik mehmonga tortilgan quyuq-suyuq ovqatning idish-tovog'i qaytguncha shu ko'yi haq deb o'tiradi. Sarqitni avval choynaxona nashi saralab oladi, qolgan-qutgani unga tegadi, tovoqqa solib, betob nevarasiga tashlab chiqadi.

...Otam tomorqaga odam tushadi deganiga joyroq turdim. Onam tovoqni ikki qavat bo'z dasturxonga o'rab-chirmab berdi, ovqatni olib kelsam, Yoqub aka ko'cha ariqda qiyg'os o'sgan supurgi soyasida qorni pachoq to'nka choynakni yerga o'rnatib qaynatayotgan ekan.

Dasturxonning bir chekkasini ochdi.

— Iliqqina ekan, bir chuqum Ashir tog'aning nevarasiga beray.

U sirlanmagan sopol tovoqqa ovqat soldi, non bostirdi, qiyiqqa o'radi. Chorrahadagi devorlari tuyaning o'rkachidek past-baland hovliga kirib hayallab qoldi. So'qqabosh bu odam qish chillasini choynaxona o'tkazadi. Ko'klamning iliq-issiq kunlari keldi deguncha, eski olacha choponni qo'ltiqlaydi, ketmon dastaga bo'z xaltani ilib, yelkaga tashlaydi-da, odamlarning tomorqasiga tushib ketadi. Qay yerda ishlasa, chang-to'zonni to'sadi, deb ko'cha ariqqa supurgi ekadi. Kuzda Ashir tog'a o'rib oladi. Chol dasta-dasta supurgi bog'lab, qishi bilan Mirobod bozorida sotadi, yozda kolxoz poliziga qaraydi, ba'zan oyboltani yelkaga tashlab, shahardagi to'nka kovlovchilarga qarashadi — shu tariqa amal-taqal ro'zg'or tebratadi.

...Yoqub aka bilan boshlashib Ashir tog'a nevarasini opichib chiqdi. Qizaloq ingichka, oriq qo'llari bilan cholning bujur tol tanasiga o'xshash ajindor bo'ynidan mahkam quchoqlaganicha, boshini yelkasiga qo'yib, ko'zlarini ochmasdi. Chol yo'l yoqalab yakkam-dukkam teraklarning olachalpoq soyasidan borarkan, Yoqub aka shoshgancha qiyiqni ariqda ho'llab, qizchanning boshiga tashlab qo'ydi. Bo'shshagancha keldi-da, cho'qqayib choynakka qayta olov yoqdi.

— Osmon yiroq, yer qattiq, — deb qo'ydi uh tortib.

— Qayoqqa ketdi?

— Shaharga, o'g'lim, shaharga. O'pka davolaydigan qo'li

yengil doktor bor, oti Shokir Alimov, shu kolxozning odami deyishadi, shuning oldiga ketdi. Qishda bolani ko'rib: «Dardini o'tkazib qo'yibsiz, ovqatga zo'r bering, nahorga tuxum yutishni kanda qilmasin» deganiga chol bechora bitta tovuqni yer-u ko'kka ishonmaydi, qishda ham bostirmaning burchagiga havoza qilib, tovuqni o'sha yerda boqadi, o'g'li olib kelgan bir savat jo'jadan shu... bittagina tovuq qolgan.

— O'g'li bormi?

— Bor edi...

Yoqub aka oshdan uch-to'rt qoshiq totingan bo'lib, ustini yopib qo'ydi, bosib-bosib choy ichdi. Guvaladek kesakka choponni to'rt buklab yonboshladi.

— Urushdan qaytmadi... Sho'rlik ona yig'lay-yig'lay ko'zdan ayrildi, chol eski tokning qiyshaygan zangidek bukchayib qoldi... Kelinining gaplashib yurgani bor ekan, shu ko'klam betob bolani tashlab, o'sha bilan O'ratepaga qochib ketdi...

Olisda fayton-arava ko'rinishi bilan Yoqub aka sergaklanib, o'rnidan turdi. Aravani to'satdan to'xtatib chakki qilganini firqa amaki kech payqadi: orqadagi chang-to'zon ustidan yopirilib o'tdi, bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'taldi.

— Hoy, unsur, ishlang kolxozda ish qurib qolganmi?!

Yoqub aka javob bermadi. Firqa amakining fig'oni falakka ko'tarilib, jilovni siltadi, arava o'qday uchib chorrahadan burilib ketdi.

— «Unsur» nima degani?

Yoqub aka kuldi.

— Xudo biladi, firqachasiga so'kkanimi? Kolxozga zayom tushgan, behisob katta emish, shunga bo'zchining mokisiday yugurib, odam xabarlayapti. Menga guzarda yig'in bo'ladi, hamma qatori zayomga yozilasan, kolxoz ishidan bo'yin tovlaganing bilan qizil choyxonasida yotib yuribsan, deb do'q-po'pisa qildi, xumpar.

Otam turnaqator kelib-ketib turgan aravalardan bo'shay olmasdi. Yig'inga borolmadi. Zarur hujjatlarni jildga joylab, hisobchiga ber-u qayt, deb meni jo'natdi. Borsam sayxonga tumonat yig'ilgan: eski-tuski sholcha, namat, bo'yrada birov

chordona qurgan, birov cho'qqaygan, joy yetishmaganlar yarim doira bo'lib tik turishardi. Qorasuv bu joydan eni uch metr dan oshmay, torayib oqadi. Suvning ustidagi so'rida qizil alvonli stol, atrofida pakana, chillakdek oriq — raykom vakili bilan bir dasta qog'ozni oldiga qo'yib kotiba o'tirar, firqa amaki qo'llarini silkitgancha gapdan to'xtamasdi. Uning dev qomati oldida raykom vakili yana ham kichkina bo'lib ko'rinardi... Odamlarni yorib, hisobxonaga o'tolmasdim. Firqa amakining orqaga qarab qolishidan cho'chib, sekin qo'shchinor panasiga o'tdim.

Vakil firqa amakining yengidan tortdi.

— Cho'zma!

Firqa amaki beso'naqay gavdasi bilan o'girildi, sichqonning qarshisida tiz cho'kkan filga o'xshab vakilga bukchaydi, nimadir dedi, vakil qo'l siltadi.

— Aziz birodarlar, — uning boyagi shashti qolmadi, — baxt qushi boshimizga qo'ndi! Zayomga yozilish kompaniyasini rayonda biz boshlaymiz! Jonajon partiya chaqirig'iga «labbay» deguvchilar, qani marhamat, chiqaversin!

Firqa amaki kutgan davomli qarsaklar xazonrezgida to'kilgan barglarning ola-shovur shitirlashiga o'xshab o'tdi.

— Ana, birinchilardan kolxoz faxriysi Ashir tog'a qo'l ko'tardilar, yo'l berilsin, Ashir tog'aga!

Sayxon etagida bormi-yo'qday bo'lib o'tirgan Ashir tog'ani so'laqmondek ikki yigit yosh boladek qo'ltig'idan ko'tarib kelib, so'riga chiqarib qo'ydi. Chol dag'-dag' titrardi, hammaga javdirardi, ammo hech kimni ko'rmasdi. Suvning shovqini orasida uning hazin tovushi eshitildi.

— Jon bolam, meni qiynama...

— Aljiramang, qariya! — Firqa amakining ko'zlari soq-qasidan chiqquday olaydi, — aytdim-ku, bir so'm to'lamaysiz, bu bir siyosat, bu bilan siz odamlarni vatanparvarlikka da'vat etgan bo'lasiz!

— Qariganda qushxonaning serkasi bo'lmay o'lay!

— Bas qiling, hammaning ko'zi shu yoqda!

Chol hech narsaga ko'nmas, nuqul o'zinikini ma'qullardi. Yig'ilganlar orasida besaranjomlikka o'xshash g'alati kayfiyat

paydo bo'ldi. Tortishuv cho'zildi. Vaziyat og'irlashdi. Qaltis tus oldi. Firqa amaki ortiq gapga ko'ndira olmasligini payqab, cholning yelkasidan quchgan bo'ldi, xiyol engashdi-da, qo'njidan pichoq olib, biqiniga sekin tiradi. Chol tovoniga birov mix qoqqanday sakrab tushdi, yaktagining besh tiyinlik chaqaday joyi birpasda qizg'ish tus oldi. Bu ishni odamlardan panalab shunday abjirlik bilan bajardiki, yonginasidagi kotiba ayol ham payqamay qoldi. Firqa amaki cholni hamon bag'ridan qo'ymay sayxondagilarga yuzlandi.

— Otam tushmagur, yozilsam kattasiga yozilaman, yetsa molim, yetmasa jonim deb, tixirlik qilyaptilar!

Ola-shovur olqishlarga aylandi-yu, uning sadolari ostida Ashir tog'a titrab-qaqshab qog'ozga qo'l qo'ydi. Ammo qarsak sadolari ko'pga bormay yig'i-sig'iga aylandi. Qorasuvda cho'milib kelayotsam chorrahada katta yuk mashina turibdi: atrofida bolalar, qari-qartang chollar, bir talay xotin-xalaj. U paytlar bunaqa mashina anqoning urug'i edi — yaqiniga bordim. Oppoq soqoli ko'ksini yelpig'ichdek to'sgan qariya ro'paradagi eshikka bezovta nazar tashlayotgan notanish odamga yig'lamsirab gapirar, ammo undan sado chiqmasdi, kesakka aylangandi.

— Sigirni tashlab ket, jon bolam, nevaralar oqsiz qoladi. Zayom pulini godovoyda olamiz degansanlar, lafzlaring bormi?!

Eshikdan barzangidek kishi choyshabga o'ralgan bir quchoq beqasam ko'rpacha ko'tarib chiqib, mashinaga uloqtirdi. Orqasidan sherigi yangi palakni sudragancha yo'l-yo'lakay yig'ishtirib kelayotgan edi, uvvos solib hovlidan otilib chiqqan ayol palakka yopishdi:

— Palakka tegma, nomard, onam bunga o'n yil ko'z nurini to'kkan.

Barzangi bilan ayol palakni ikki tomondan torta-torta shirillatib yirtib yubordi. Barzangi qo'lida qolgan bo'lakni g'ijimlab ayolga uloqtirdi. Ayol unga o'ralashib ostonaga gursillab yiqildi. Qiy-chuvda kimdir mashina orqasiga bog'langan sigirning boshvog'ini bo'shatib yubordi. Ozodlikni payqagan jonivor jon-jahdda ariq hatlab, tomorqa oralab

qochdi. Uni quvgan kishi ariqdan o'tolmay oyog'i toyib, suvga shaloplab tushdi. Etigi qo'njigacha balchiqqa botib, so'kina-so'kina ortga qaytdi. Ko'cha boshida uzun-qisqa bo'lib kelayotgan vakil bilan firqa amakini ko'rib, noiloj Ashir tog'anikiga o'zimni urdim.

Etagida bir dunyo supurgi pala-partish uyilgan katalakday hovlida katta shoxi qurigan o'rikdan bo'lak dov-daraxt ko'rinmas, hamma yoq jazirama issiq, dim, nafas olib bo'lmasdi. Oppoq sochlari to'zigan uvoqqina kampir o'rikning bo'yradek soyasida qoqsuyak oyoqlarini oftobga toblab o'tirar, nevarasi bir hovuch bo'lib, tizzasida muk tushib yotardi.

Ko'chada firqa amaki «bu yoqqa ham kiriladimi?» deb so'ragan edi, vakil jerkib tashladi:

— E, o'sha ishongan odamingdan o'rgildim... rasvo qilay dedi-ku.

Supurgi g'aramiga yashirinishim bilan oldinma-keyin ichkariga kirishdi. Firqa amaki kampirni ko'rib, hovli o'rtasida qaqqayib turib qoldi. Vakil bostirma tomon o'tib, hayallamay «tavba, bu uyda hech vaqo bormi?» — degancha orqaga qaytayotganda yo'l ustidagi cho'yan obdastaga qoqilib munkidi va borib o'rikka boshi bilan tegdi. Daraxtda o'tirgan tiqachaday oq tovuq qaqqillab, birdan pastga sakradi, vakil cho'chib o'zini chetga olaman deganda, yana bexos yelka aralash daraxtga urildi.

— La'natini qozonga bos! — dedi vakil yerda yotgan bir poy yirtiq kavushni tovuqqa otib va peshanasini changallab ko'chaga chiqdi.

Firqa amaki bir lahza dovdirdi, ammo o'zini tezda o'nglab oldi: jazzasi uch-to'rtta jo'ja olib beradi, vassalom, shu tobda vakilning gapini ikkita qilib bo'larkanmi?! U jon-jahdda tovuqqa tashlandi, qurg'ur egasidan beshbattar qaysar ekan, hali u yoqqa lapanglab qochadi, hali bu yoqqa... Salda uni holdan toydirib qo'ydi. Egar chaqalagan odamdek oyoqlarini beo'xshov kergancha bordi-da, kampirning hassasini olib tovuqqa uloqtirdi, tayoq qanotiga tegib, tovuq qaqqillab yotib qoldi. Shundagina kampir mudhish voqea ro'y berganini payqab nevarasini shoshgancha bo'yraga yotqizdi, yon-verini paypaslab, hassani topolmagach, jon-jahdi bilan ko'cha eshikka emaklab

ketdi va vaqt g'animatda tovuqni qo'ltiqlab ostonaga yetgan firqa amakining oyoqlarini mahkam quchoqlab oldi, chang-qurum bosgan etigiga yuz-ko'zlarini surtib yolvordi.

— Hoy, kimsiz, tovuqqa tegmang! Chol, qayoqdasiz?!

Firqa amaki gansiraklab, rapidadek panjalari bilan eshikka suyandi. Kesaki orasidan chiqqan ari jizillatib kaftini chaqdi. Tizzalariga ilondek chirmashgan qo'llardan qutulish payida oyog'ini siltab tortgan edi, nag'al poshnasi bexos kampirning qanshariga tegib ketdi. Kampir ostonadan pastga yumaladi, bezgak xuruj qilganday titrab-qaqshab anchagacha yotdi, keyin g'alati tovush chiqarib g'uldiradi, qarg'adi shekilli, afsus, qarg'ishi ijobat bo'lmadi. Ko'p o'tmay «zayomga yozilish kompaniyasini namunali o'tkazgani» uchun firqa amaki shahardan nishondor bo'lib qaytdi. O'sha kuni kampir sho'rikk mangu makoniga qo'yildi.

G'am-g'ussa bir kelmasin ekan, kampirning uch kunligida nabirasi ham cholning tizzasida yorug' olamdan ko'z yumdi.

Urushning dastlabki oylari Qorasuv ustidan o'tgan temir-yo'l shoxobchasining omborga yaqin etagida sandal kursiday xarsangtosh yumalab yotardi. Kechalari Ashir tog'a allamahalgacha tizzalarini quchoqlab ustida o'tirganiga, uni cholning «hasrat toshi» deyishardi. Nabirasidan keyin chol anchagacha u yerda ko'rinmay, to'satdan paydo bo'lish tafsilotini choyxonachining dadamga aytganlaridan chalachulpa angladim.

...Firqa amaki odatdagi ziyofatdan keyin uyga ketgani erindi. Bostirmada tunadi. Yarim kechasi allakimning hansirab nafas olishidan cho'chib uyg'ondi, uyg'ondi-yu boshida muallaq osilgan oyboltani ko'rib, sim karavotga yopishib qoldi. Eshik tirqishidan bir qatim ipday cho'zilib tushgan shu'lada boltaning charxlangan dami xanjarday yarqirab ketdi.

Chol bukchayib engashdi, xirillab qichqirdi:

— Tovuq qani, ablah, oq tovuq?!

Firqa amaki, ittifoqo burchakda yotgan bir hovuch oppoq uvadaga ko'zi tushmasa, yo boshiga bolta tushardi, yo dahshatdan yuragi yorilardi.

— Ana! — Cholni alahsitdi u, — ana, yotibdi, ana!

Chol yon-atrofga alangladi, to'satdan burchakda allanarsa «silkingan»day bo'ldi, hayajondan duv etib ko'zlariga yosh keldi. Boltani ohista yerga qo'yib, oyoq uchida bordi-da, uvadani bag'riga bosganча silab-silab ko'chaga chiqdi...

...Qish chillasiga yaqin qabriston darvozasida tushib qolgan bir poy eski choriqdan cholni tusmollab topishdi. U bir qarich qorning tagida kichkina qabrni quchoqlab yotardi. «Unsur» Yoqub aka olacha choponning orasida yig'ib yurgan o'limlik pulga Mirobod bozoriga tushib, qo'ldan bir to'p shasha doka oldi. Uni qavatlab kafanlik qilishdi. Shomga yaqin chol nabirasi yoniga qo'yildi. Dog' tekkan yaktakni g'assolga berishdi. O'g'li, tepib-tepib kiying, ota, deb puxtagina kirza etikni tashlab ketgan edi. Chol ne-ne qora sovuqlarda, ne-ne qor-yomg'irlarda eski choriqda yursa yurdiki, etikni kiymadi, o'ziga buyursin deb, bostirma to'siniga osib qo'ydi. Sho'ring qurg'ur foniy olamni oyoqyalang o'tkazdi, boqiy dunyoga ham sarpoychang ketmasin deb shu etikni go'rkovga berib kelishdi.

...Har gal aeroportga yo'lim tushsa, mahallaning og'zida to'xtayman. Qorasuvdan o'tgan o'sha shoxobcha temiryo'l hali ham bor. Sandal kursiday «hasrat toshi»ning yon-atrofi allaqachon tuproqqa ko'milib, barkashday joyi qolgan, xolos. Toshga cho'qqayaman. Bolaligim o'tgan joylarga uzoq termulaman. Past-baland dalalardan, tuproq ko'chalardan asar qolmagan: asfalt yotqizilgan tekis, ravon ko'chalar, ko'm-ko'k daraxtlar orasida qad ko'targan hashamatli uylar! Xayolga tolaman. Bu joylardan kimlar yurmadi, kimlar o'tmadi?! Sho'ring qurg'ur Ashir tog'a zoti insonga ato etilgan bir lahzalik g'animat umrda nima ko'rdi, nima topdi, o'zidan nima qoldirdi dunyoda? Orzu-armonlari ushalmay o'tganlarning son-sanog'i bormi?

Ozod yurtning ozod farzandi bo'lish baxtidan benasib ketgan barcha insonlarning oxirati yorug' va obod bo'lsin.



MUNDARIJA

Hikoyalar

Sevgi desam.....	3
Yo'lda.....	8
Muhabbat.....	11
Qadrdon ko'zlar.....	17
Yillar.....	20
Ota.....	37
Uchrashuv.....	41
Qo'shnilar.....	50
Vafo.....	53
Chinor.....	55
Ona.....	62
Qizginam.....	66
«Devona».....	72

Esselar

Asqad akaning anjiri.....	80
Bag'rikeng inson edi.....	88
Hasrat toshi.....	94

M37

L. Mahmudov

Sevgi desam...: (Hikoyalar, esselar).—
T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2005.—104 b.

BBK 84(5U)6-44

LATIF MAHMUDOV

SEVGI DESAM...

(Hikoyalar, esselar)

*«O‘qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2005*

Muharrir *S. Xo‘jaahmedov*

Badiiy muharrir *Sh. Xo‘jayev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Sodiqova*

Musahhih *M. Ibrohimova*

IB 8338

2005- yil 14- fevralda original maketdan chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 84 x 108¹/₃₂. Kegli 10,5 shponli. Tayms garniturası. Ofset bosma
usulida bosildi. Bosma t. 6,5. Shartli b. t. 5,46. Nashr t. 5,2. 5000 nusxada
bosildi. Buyurtma № 12.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi,
30- uy // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko‘chasi, 1- uy.
Shartnoma № 12—51—04.